qatorga qo'yishning sababi shundaki, ularning talaffuzi vaqtida qattiq tanglay bilan tilning oralig'i deyarlibir xil bo'ladi. Lekin u ning talaffuzida lab faol ishtirok etganligi uchun unda lablanish hodisasi yuz beradi. a unlisini talaffuz qilish vaqtida og'iz bo'shlig'ining holati esa tor unli i tovushini talaffuz qilishdagi holatdan keskin farq qiladi, ya'ni a tovushini talaffuz qilishda pastki jag'ning quyiga tushishi ham, tilning qattiq tanglaydan uzoqlashishi ham maksimum darajada bo'ladi. Shunga ko'ra til bilan tanglay o'rtasidagi havo yo'li ham maksimum darajada keng bo'ladi. Ana shuning uchun ham a, o unililari keng unililar deb ataladi. e bilan o' tovushini talaffuz qilgan vaqtda esa til bilan qattiq tanglayning oralig'idagi masofa i va o' tovushini yoki a bilan o ni talaffuz qilgandagi holatga nisbatan o'rtacha holatda bo'ladi. Unli fonemalarning uch bosqichli zidlanishi deyarli barcha o'zbek tilshunoslari tomonidan e'tirof etilsa-da, lekin bu uch bosqichli zidlanishni tashkil etayotgan unli fonemalarning miqdori masalasida tilshunoslar o'rtasida bir xillik yo'q. Ko'pchilik tilshunoslar Ye.D.Polivanov tomonidan ko'rsatilgan oltita fonema borligini tan oladilar.¹ Faqat professor M.Mirtojiev o'zbek adabiy tilidagi unlilarning oltitadan ko'p ekanligini ko'rsatadi.² Shuningdek, fonema nazariyasi yaratilgandan buyon birinchi planda sanalib kelinayotgan fonemaning funksional tomoni rad etiladi. Xususan, muallif yozadi: "Inson tovushining ikki asosi bor: 1) akustik asos 2) biologik asos. Ba'zi adabiyotlarda yana lingvistik asos haqida ham gap boradi. Bunda esa tovushning nutqdagi vazifa tomoni nazarda tutiladi. Biroq tovush nutqda vazifa bajarmaydi, balki nutq mazmunining eng kichik bo'lagi bo'lgan fonemaning shakli hisoblanadi".³ Odatda, LFM (Leningrad fonologik maktabi) vakillaridan boshqa barcha tilshunoslar fonemaga so'z va morfemalar tarkibida kelib, ularning ma'nosini farqlash uchun xizmat qiladigan va o'zi ma'noga ega bo'lmagan bir yoqlama birlik sifatida qaraydilar, bu bilan fonemani ikki yoqlama birliklar – morfema va leksemalarga qarama-qarshi qo'yadilar. M.Mirtojiev o'zbek adabiy tilidagi unlilarni og'izning ochilish darajasiga ko'ra an'ana bo'yicha uch darajaga bo'lgani holda, ularning miqdorini quyidagicha ko'rsatadi: Tilning yuqori ko'tarilishidagi unililar: i, i, y, u, o'. Tilning o'rta ko'tarilishidagi unililar: e, e, o, o. Tilning past ko'tarilishidagi unililar: e, o, o, e. ⁴ Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida 15 ta unli ajratilmoqda. Fonemalarni ajratishda fonologik muhim va nomuhim belgilari ajratish lozim. Artikulyatsion-akustik tamoyil fonema variantlarini belgilash uchun xizmat qiladi. Variantlarning akustik-artikulyatsion belgilari aniqlangandan so'ng, bu belgilar variantlarni muayyan umumiyliklarga birlashtirish uchun xizmat qiladi. Umumiylikka birlashtirishda artikulyatsion-akustik birliklarning vazifa tomoni bosh tamoyil bo'lib xizmat qiladi. A.M.Shcherbak turkiy tillarda uch bosqichli unililar sistemasi haqida fikr yuritar ekan, bunday bosqichli sistema ham aslida ikki bosqichli sistemadan kelib chiqqanligini ko'rsatadi.⁵ Yuqorida keltirilgan ozarbayjon, qozoq, o'zbek tillaridagi yarim keng unli e, bir tomondan keng unililar bilan, ikkinchi tomondan esa tor unililar bilan zidlanishga kirishadi, keng unli bilan zidlanganda tor, tor unli bilan

zidlanganda esa keng hisoblanadi. Bu unlining turkiy tillarda paydo bo'lishi va uch bosqichli unlilar sistemasining hosil bo'lishi masalasi juda ko'p turkologlar diqqatini tortgan. Bu masalaga birinchi marta O'rxun-Enasoy yodgorliklarini tadqiq qilish jarayonida V.Tomsen e'tiborini qaratgan.¹ Og'izning ochilish darajasiga ko'ra uch bosqichli unlilarning kelib chiqishi to'g'risidagi turkologlarning fikrlari haqida A.M.Shcherbak batafsil ma'lumot bergan.² Shuning uchun bu yerda ularning hammasiga to'xtalib o'tirish ortiqcha deb o'ylaymiz. A.M.Shcherbakning o'zi yarim keng unli keng unlidan cho'ziq - qisqalik zidlanishi asosida keyinchalik paydo bo'lgan degan g'oyani ilgari suradi. Xullas, og'izning ochilish darajasiga ko'ra uch bosqichli unlilar bir qator turkiy tillarda uchraydi. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, nutq jarayonida bu unlilar o'rtasidagi differensial belgi mo'tadillashib, bir unli kabi talaffuz qilinishi mumkin. Bunday xususiyat turkiy tillar o'rtasidagina emas, balki bir turkiy tilning dialektal variantlari sifatida ham uchraydi. Masalan, o'zbek tilida dedim-didim, ikkiekki, qilgan edim-qi:gandm, achasi - echs va boshqalar. Oraliq bosqich, ya'ni yarim keng unlilar turkiy tillar tarixida keyin paydo bo'lganligi uchun, tor unlilar bilan keng unlilar bir-biriga konkret holda (binar) zidlanadi. Lekin bu zidlanish ham nutq jarayonida mo'tadillashuvi mumkin. Masalan, dadasi - dedici. Bunday a - i variantli-ligi ko'proq Namangan shevasida so'zning ikkinchi bo'g'inida umlaut hodisasi asosida vujudga keladi. Shunday qilib, og'izning ochilish darajasiga ko'ra til sathida kenglik, o'rta kenglik, torlik farqlovchi belgilari asosida unli fonemalar ajratilsa ham, lekin nutq jarayonida bu belgilar mo'tadillashib (neytralizatsiya), o'rta keng unli keng unlining ham, tor unlining ham; tor unli o'rta keng unlining, o'rta keng unli tor unlining; keng unli tor unlining, tor unli keng unlining o'rnida qo'llanib, bir fonemaning pozitsion yoki dialektal varianti maqomida ham qo'llanishi mumkin. Nutq jarayonida unlilar artikulyatsion-akustik tomondan turli variantlarda talaffuz qilinishidan qat'iy nazar, til sathida og'izning ochilish darajasiga ko'ra uch farqlovchi belgi fonologik qimmatga ega bo'ladi va unlilar sistemasidan o'z qimmatiga ko'ra joy oladi. Lablanishlik-lablanmaslik belgisi O'zbek adabiy tili unlilari uchun yana bir farqlovchi belgi lablanishlablanmaslikdir. Bu farqlovchi belgi ham barcha turkiy tillar unlilari uchun tipik sanaladi. Lablanish-lablanmaslik belgisiga ko'ra unlilar binar zidlanishga ega bo'ladi: a, ä, i, i – lablanmagan unlilar; o, ö, y, y – lablangan unlilar. Ko'rinadiki, har qaysi lablangan unliga lablanmagan unli mos keladi. Lablanish-lablanmaslik belgisiga ko'ra binar moslik ko'p hollarda buzilishi mumkin. Bunday nomuvofiqlik lablanmagan unlilarning nutq jarayonida lablanishida va lablangan unlining lablanish belgisini yo'qotishida kuzatiladi. Xususan, o'zbek, boshqird, tatar tillarida «a» ning lablanishi kuzatiladi. Boshqird, tatar tillarida nutq jarayonida «a» ning lablanish belgisiga ega bo'lishi bu unli fonemaning kombinator variantini hosil qilsa, o'zbek tilida dastlab variant holda mavjud bo'lgan bo'lsa ham, lekin hozirgi o'zbek adabiy tilida fonologik qimmatga ega bo'ladi.¹ O'zbek tili fonetikasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda «o» fonemasi-ning artikulyatsion-akustik belgisi

turlicha talqin etiladi. Ayrim mualliflar lablangan unli desalar², boshqa tadqiqotchilar lablanish belgisini inkor qiladilar. Jumladan, prof. M.Mirtojiev bu ikki unli haqida quyidagilarni yozadi: «Yana o‘zbek tilida «o» unlisi va Buxoro-Samarqand shevalariga xos «o» unlisi bor. Bularda tilning old va orqa qismi bir xil holatda bo‘ladi. Shunga qaramay, uning urinib o‘tish joyi tilning orqasi bo‘lgani uchun, ularni ham til orqa unlisi deb qaraladi... O‘zbek tilida lablangan unlilar bir necha: u, ü, ö, ø. Yana Buxoro-Samarqand shevalariga xos «o» unlisi ham lablangan bo‘lib, uning lablanishi boshqa lablangan unlilarga nisbatan juda pastdir. «o» unlisini ba’zi adabiyotlarda lablangan deb ham qayd etiladi. Buning asosi bor. Chunki u lab tovushlari bilan yondosh qo‘llanganda, albatta, lablangan talaffuzga ega bo‘ladi. Biroq boshqa hollarda esa u lablanmaydi. Bu esa uning assimilyativ lablanishi mumkinligini ko‘rsatadi. Asosan esa, bu tovush lablanmagan deb qaralishi kerak».³ Yuqoridagi parchani o‘qigan har qanday fonologiyadan xabardor bo‘lgan o‘quvchi til sistemasida paradigmatic munosabatdagi unli fonema bilan uning sintagmatikadagi turli o‘zgaruvi (modifikatsiyasi) qorishtirilayotganligini payqaydi. O‘zbek tili fonetikasi (fonologiyasi) tarixi bilan shug‘ullangan yirik turkologlar «o» fonemasining kelib chiqishi haqida ikki xil fikr bildiradilar. Ko‘pchilik «o» fonemasi o‘zbek tilida umumturkiy orqa qator, keng, lablanmagan unlining nutq jarayonida, muayyan fonetik qurshovda lablangan variantda talaffuz qilinishi va davrlar o‘tishi bilan bu variantning fonologik qimmatga ega bo‘lib, mustaqil fonemaga aylanganini ta’kidlaydilar. Ye.D.Polivanov o‘zbek tilidagi singarmonizm qonuniyatining yo‘qoli-shi, unlilarning qatorga ko‘ra binar zidlanishining mo‘‘tadillashuvi, keng, lablangan unli fonemaning («o») vujudga kelishini tashqi omil bilan, eroniy tillarning ta’siri bilan bog‘lagan edi.⁴ F.A.Abdullaev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, singarmonizmning yo‘qolishidek yirik hodisani tilning o‘z ichki taraqqiyotini hisobga olmasdan, faqat tashqi ta’sir asosida tushuntirish turkologlar o‘rtasida haqli ravishda turli e’tirozlarning tug‘ilishiga sababchi bo‘ldi.⁵ Shuningdek, o‘ning kelib chiqishini faqatgina divergensiyaga bog‘lab qo‘yish ham mumkin emas. Chunki bir qator o‘zbek shevalari materiallari shuni ko‘rsatadiki, singarmonizm saqlanib qolgan holda ham birinchi bo‘g‘inda paydo bo‘lishi mumkin. Shu sababli A.K.Borovkov o‘ning hosil bo‘lishini konvergensiya bilan birga pozitsion holat bilan ham bog‘lab asoslaydi. O‘ fonemasining paydo bo‘lishi va uning lablanish darajasi haqida xilma-xil fikrlar bayon qilingan. Ularning barchasiga o‘z munosabatlarimizni bildirib o‘tirmasdan, A.Abduazizovning quyidagi fikrini keltirish bilan cheklanamiz: «Har ikki ta’sir (ichki va tashqi - D.N.) natijasida a fonemasi divergensiyaga uchragan, ya’ni ikki fonemaga ajralgan.¹ Ye. D. Polivanov formulasi bo‘yicha a : b - c, ya’ni s elementi a va b elementlariga ajralgan. Natijada o‘zbek tili vokalizmida barcha til oldi unlilari i, e, a lablanmagan va barcha til orqa unlilari u, o‘, o lablangan bo‘lib, ikki teng simmetrik guruhga ega bo‘lgan. Aslida a fonemasining o‘z juftiga ega bo‘lmagani bu sistemada bo‘sh katak qoldirilgan: i u e o‘ a - «Bo‘sh katak»ning to‘ldirilishi, ya’ni o fonemasining paydo bo‘lishi

yuqoridagi divergensiya hodisasi natijasida bo‘lib, o‘zbek tili vokalizm sistemasini simmetrik holatga olib keldi. Endilikda bu sistemani Ye.D.Polivanov tasnifiga asoslangan N.S.Trubetskoy fikricha, ikki sinfli (oldi va orqa qator), uch pog‘onali (quyi, o‘rta, yuqori), to‘rtburchakli, mantiqiy jihatdan ekvipolent (ya’ni ikki xil belgi birlashgan: lablangan-lablanmagan asosiy farqlanish belgisi va til orqa-til oldi ularga yordamchi, farqlamovchi) jahon tillarida juda kam uchrovchi vokalizm sistemasi deb qaraladi».2 Yuqoridagi fikrlar «o» unlisining kelib chiqishi, lablanish darajasi, unlilar sistemasidagi o‘rni haqida izoh talab qilmaydigan darajada dalillarga asoslangan holda bayon qilingan. Demak, o‘zbek tilidagi unlilarning ikkinchi eng muhim farqlovchi belgisi lablanish-lablanmaslik belgisidir. Unlilarning paradigmatic tavsifi Unlilarning nutq jarayonida qanday voqelanishidan qat’iy nazar, sistemada o‘zaro zidlanish asosida farqlovchi belgilar majmuasi sifatida tavsiflanishi ularning paradigmatic tavsifi sanaladi. Har qanday paradigmatic tavsif sintagmatika materiallariga asoslanadi. Sintagmatikadagi unlilarning barcha belgilaridan farqlovchi belgilarning ajratib olinishi fonemalarni farqlovchi eng kichik birlik sifatida belgilashga imkon beradi. Invariantlar tavsifi quyidagicha bo‘ladi: 1) keng, lablanmagan unli; 2) keng, lablangan unli; 3) o‘rta keng, lablanmagan unli; 4) o‘rta keng, lablangan unli; 5) tor, lablanmagan unli; 6) tor, lablangan unli.

Qo‘shimcha belgilar. Qator belgisi Turkiy tillarda unlilarning qator belgisi ham muhim farqlovchi belgilardan sanaladi. Bu belgiga ko‘ra unlilar ikki zidlanuvchi qatorga – old qator va orqa qator (quyi tonallik - yuqori tonallik) unlilariga bo‘linadi. Ko‘pgina turkiy tillarda orqa nazallik cho‘ziqlik qator 1.lab ishtiroki 2.tilning ko‘tarilishi 25 qatordagi har bir fonemaga old qator fonemasi muvofiq keladi: a, o, y, i orqa qator unlilari ä, ö, ý, ï old qator unlilari bilan zidlanadi va bu zidlik fonologik qimmatga ega bo‘ladi. Turkiy tillarning ko‘pchiligiga xos bo‘lgan unlilarning yuqoridagi kabi qatorga ko‘ra zidlanishi hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun xos emas. Bu esa o‘zbek tilining turkiy tillar sistemasida o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi bu o‘ziga xos xususiyat singarmonizm qonuniyatlarining buzilishi, old qator unlilari bilan orqa qator unlilarining qator belgisiga ko‘ra zidlanishi mo‘tadillashib, sakkizta unlining to‘rtta unliga kelib qolishi bilan bog‘liqdir. O‘zbek tilidagi bu jarayonning qanday sabablarga ko‘ra ro‘y bergani haqida Ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, A.M.Shcherbak, V.V.Reshetov, N.A.Baskakov, F.A.Abdullaev, Sh.Sh.Shoabdurahmonovlar tomonidan turlicha fikrlar aytilgan. Bu fikrlarga A.M.Shcherbak, F.A.Abdullaev, A.A.Abduazizov tomonidan munosib baho ham berilgan. Shuning uchun ham biz bu yerda ularni batafsil sharhlab o‘tirishni ortiqcha deb bilamiz. Lekin shuni ta’kidlash joizki, unlilarning qator belgisiga ko‘ra zidlanishining neytralizatsiyasi hozirgi o‘zbek tilining faqat Toshkent dialekti uchun xosdir. Toshkent dialektidagi ana shu ikki belgiga ko‘ra unlilarning zidlanishi adabiy tilga asos qilib olingan. Boshqa barcha shevalarda uch belgili zidlanish uchraydi, ya’ni qator belgisi ham zidlanish uchun

asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Masalan, Andijon, Marg‘ilon, qo‘qon, Namangan, O‘sh shevalarida o‘r – ör, o‘n - ön, o‘t - öt, bo‘z - böz, o‘z - öz, un - ün kabi farqlanishlar fonologik qimmatga ega. Bir fonetik sharoitda orqa qator va old qator unlilari biri o‘rnida ikkinchisi kelib, ma’no farqlash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham turkiy tillar unlilar sistemasi uchun qator belgisini differensial belgi sifatida olgan V.V.Radlov, V.Tomsenlarni, E.Umarov fikricha, qoralamaslik, aksincha, ularning yo‘lini ma’qullamoq lozim. O‘zbek adabiy tilidagi olti fonemalik sistemada fonemalar qatorga ko‘ra zidlanmasligi haqidagi E.Umarov fikrini ma’qullaymiz. Darha-qiqat, hozirgi o‘zbek adabiy tilida qator belgisi fonologik qimmatga ega emas, faqat variantlarning sifat belgisi bo‘lib xizmat qiladi. Nazallik belgisi Turkiy tillarda nazallik belgisiga ko‘ra sof va nazal unlilarga zidlanish barqaror xususiyatga ega emas. Shu bilan birga, fonologik qimmatga ham ega emas.¹ Ya’ni bu belgi ma’no farqlash vazifasini bajarmaydi. Nazalizatsiya hodisasi tuva, xakas, ozarbayjon, uyg‘ur va o‘zbek tilining Namangan shevasida keng tarqalgan.² Nazallik lotincha «burunga oid» ma’nosini ifodalaydi. Bu belgi bo‘lgan unlilarda tanglay pardasining tushishi va havo oqimining bir vaqtda og‘iz va burun bo‘shlig‘idan o‘tishi natijasida tovush burun tembriga ega bo‘ladi. Buning natijasida og‘iz unlisi burun unlisiga aylanadi. Hozirgi ayrim o‘zbek shevalarida so‘z tarkibida n va ng undoshlarining tushishi natijasida bu undosh oldida kelgan unlilarning nazalizatsiyasi kuzatiladi. Cho‘ziq - qisqalik belgisi Turkiy tillarda unlilar miqdoriy belgisiga ko‘ra ham oppozitsiyaga kirishadi. Bu belgiga ko‘ra unlilar cho‘ziq unlilar va qisqa unlilarga bo‘linadi. Ayrim adabiyotlarda miqdoriy belgisiga ko‘ra uch darajadagi cho‘ziqlik mavjudligi va shunga ko‘ra unlilar ham uch guruhga bo‘linishi ko‘rsatiladi: cho‘ziq unlilar, qisqa (me’yordagi) unlilar va o‘ta qisqa unlilar.⁴ Qisqa unlilar odatdagi (me’yordagi) monoftonglar kabi voqelanadi. Cho‘ziq unlilar esa monoftong hoida ham, diftong hoida ham yuzaga chiqishi mumkin. A.M.Shcherbakning ta’kidlashicha, unlilarning cho‘ziqlik va qisqalik belgisiga ko‘ra zidlanishi oltoy, gagauz, qirg‘iz, tofalar, tuva, turkman, xakas va yoqut tillari fonologik sistemasida muhim rol o‘ynaydi. Unlilarning cho‘ziqlik belgisi ko‘pchilik adabiyotlarda birlamchi cho‘ziqlik va ikkilamchi cho‘ziqlikka bo‘linadi. Birlamchi cho‘ziqlik turkiy tillarning bobotil davridan beri mavjud bo‘lsa, ikkilamchi cho‘ziqlik har qaysi turkiy tilda turli fonetik o‘zgarishlar ta’sirida o‘ziga xos yo‘l bilan keyinchalik paydo bo‘lgan. Xususan, unlidan keyin kelgan undoshning tushishi hisobiga unlining cho‘zilishi turkiy tillarda keng tarqalgan hodisa sanaladi. Masalan, oltoy tilida tu: «tog‘», su: «suv», mu:s «muguz»; gagauz tilida cha:r «chaqir», si:r «sigir», bu:n «bugun», do:ru «to‘g‘ri»; tuva tilida o:l «o‘g‘il» va boshqalar. O‘zbek adabiy tili uchun cho‘ziqlik belgisi farqlovchi belgi hisoblanmaydi. Lekin bir qator o‘zbek shevalarida, xususan, o‘g‘iz shevalarida birlamchi cho‘ziqlik uchraydiki, bunday holda u fonologik qimmatga ega bo‘ladi. Cho‘ziq unli bilan qisqa unli bir fonetik sharoitda o‘zaro almashinib, ma’no farqlash vazifasini bajaradi.

Savollar

1. Unlilarning uch belgiga va ikki belgiga asosan tasnifini izohlang.
2. Indifferent unlilarni va konvergentlarni tushuntiring.
3. Qanday belgilarni asosiy belgilar deb ataymiz? Qo‘shimcha belgilar debchi?
4. Kenglik-torlik belgisini tushuntiring.
5. Lablanishlik-lablanmaslik belgisini tushuntiring.
6. O fonemasining paydo bo‘lishi haqida nimani bilasiz?
7. Qator belgisi haqida ma’lumot bering.
8. Nazallik belgisini tushuntiring.
9. Cho‘ziq - qisqalik belgisini izohlang.
10. Paradigmatik tasnifni tushuntiring.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о‘quv qo‘llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po‘latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайсева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

5-Mavzu: O‘zbek imo-ishora tilida nutq tovushlarining fonetik o‘zgarishlari.

Reja:

1. Akustika va fonetika.
2. Akustik hodisalar va tushunchalar.
3. Tovushlar artikulyatsiyasi.

Fizikaning akustika bo‘limi tilshunoslikning fonetika bo‘limi bilan chambarchas aloqadadir. Tovushning eshitilishi haqida biror tushuncha hosil qilish uchun , bir oz bo‘lsa-da, akustikadan xabardor bo‘lish kerak. 54 Akustika fani fizikaning tarkibiy qismi bo‘lib, tovushning eshitish xususiyatlarini o‘rganadi. Ultra va infrabinafsha tovushlar kashf etilgunga qadar har qanday tovushni qabul qilish vositasi insonning eshitish organi quloq deb hisoblangan, shuning uchun fizikaning tovushlarni o‘rganuvchi sohasi akustika (yunoncha eshitish so‘zidan olingan) deb

yuritilgan. Tovush toʻlqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bogʻliq hodisalarni akustik hodisalar deb yuritiladi. Tovushlarning tarqalish tezligi eksperimental (tajribaviy) metod asosida oʻrganilish yoʻliga qoʻyilishi bilan akustika sohasi taraqqiyotida katta oʻzgarish sodir boʻldi. XVII asrga kelib fizik olimlar havoda tovush toʻlqinlarining tezligini oʻlchash bilan aloqador dastlabki tajribalarni oʻtkazdilar (masalan: toʻpdan oʻq otilganda yorugʻlik chaqnagan payt bilan oʻsha tovush yetib kelgan payt orasidagi vaqtni aniqlashga harakat qilingan). Hozirgi paytda tovushning havodagi tezligi normal sharoitda 331 m/sekundga tengligi asboblarda yordamida aniqlangan. Shuningdek, olimlar suvda tovush tezligi 1500 m/s, poʻlatda esa 6000 m/s ekanligini oʻlchov asboblari yordamida maʼlum boʻlgan. Asosiy akustik tushunchalar qatoriga tovushning balandligi, tovush bosimi, tovush kuchi, tovush tembri, akustik rezonans kabilar kiradi. Inson oʻzining eshitishiga qarab har qanday tovushning balandlik darajasini aniqlaydi. Odam quloqidagi pardaga tovush toʻlqinining taʼsir kuchi tovush bosimi deb yuritiladi. Gaz yoki suyuqlikdan tovush toʻlqini oʻtganda vujudga keladigan qoʻshimcha bosim tovush bosimi sanaladi. Odam qulogʻining tovushni sezish bilan bogʻliq eng past chegara 10-6 PA tovush bosimiga mos keladi, yaʼni normal atmosfera bosimining 10-10 qismini tashkil etadi. Agar tovush bosimi yuqori chegaraga yetsa (quloqda ogʻriq paydo boʻladi), taxminan 100 PAga teng keladi. Tovush tebranishlari garmonik tovush boʻylcha yuz beradi, buni odam qulogʻi musiqaviy ton sifatida qabul qiladi. Shuni inobatga olish lozimki, yuqori chastotali tebranishlar yuksak tondagi tebranishlar sifatida, past chastotali tebranishlar esa past tondagi tovushlar sifatida quloqqa yetib boradi. Yuqori va past tebranishdagi tovush tebranishlari oraligʻidagi masofa oktava deb yuritiladi. Masalan, birinchi oktavaning "lya" toni 440 gers chastotaga ega boʻlsa, ikkinchi oktavaning "lya" toni 880 gersli chastotaga mos keladi. Garmonik qonunga boʻysunmaydigan tovush tebranishlari ham bor. Ularni inson tembriga ega boʻlgan murakkab tovush sifatida qabul qiladi. Shuning uchun ham tonning balandligi bir xil boʻlsa ham, gʻijjak va pianino asboblardan chiqadigan tovushlar tembriga koʻra farq qiladi. Odam quloqi eshitishi mumkin boʻlgan tovush tebranishlarning chastotasi 20 dan 20000 gersgacha boʻlgan oralikda ekanligi aniqlangan. 20 gersdan kam chastotali tebranishlar infraqizil tovushlarni, 20 mingdan koʻp chastotali tebranishlar esa ultrabinafsha tovushlarni hosil qiladi. Agar jismning xususiy erkin tebranishlari chastotasi tovush toʻlqinining chastotasi bilan kelsa akustik rezonans hodisasi yuzaga keladi. Masalan, puflab chalinadigan cholgʻu asboblarning, jumladan, organning trubalari akustik rezonator vazifasini bajaradi. Fizikaning akustika sohasiga tegishli maʼlumotlar fonetikada, ayniqsa nutq tovushlar tizimini oʻqitishda muhim ahamiyat kasb etadi. 55 Nutq tovushlariga fizik yoki akustik aspektda qaralsa, ularda, avvalo, ikki xil belgi koʻzga tashlanadi: bulardan biri – nutq tovushlarining sifat belgisi, ikkinchisi esa miqdor belgisidir. Nutq tovushlarining sifat belgilari quyidagilardir: 1. Tovushning kuchi yoki intensivligi. 2. Tovushning balandligi. 3. Tovush tembri yoki boʻyoqdorligi. Tovush

to'liqining balandligi va kengligi tovush kuchi deyiladi. Boshqacha aytganda, to'liqning paydo bo'lgan o'rni bilan uning pastga tushgan o'rni o'rtasidagi kenglik tovush kuchini ko'rsatuvchi faktordir. Akustikada tovush to'liqining balandlik va kenglik ko'lami amplituda (grekcha *acustikos*, eshinish demakdir) deyiladi. Odatda amplitudaning ko'lami qancha katta, keng va baland bo'lsa, tovush kuchi shunchalik ko'p bo'ladi. Tovush kuchi nutqda nutq protsessining holati va urg'u bilan bog'liq bo'ladi. Odatda, so'zda urg'u tushgan tovushlar kuchli, urg'usizlar esa kuchsiz tovushlar hisoblanadi. Shu bilan birga, har bir tovushning kuchini belgilashda uning nutq jarayonida aytilish holati ahamiyatlidir. Lekin teng kuchga ega bo'lgan tovushlarda ham shovqin har xil bo'lishi mumkin. Bu tovushning balandligiga bog'liq. Tovushning balandligi qancha yuqori bo'lsa, uning shovqini shunchalik baland bo'ladi. Lekin tovushning asosiy xususiyatini (intensivligini) uning kuchi belgilaydi. Og'iz bo'shlig'ining maksimal shovqin chiqarish imkoniyatiga ko'ra i tovushi eng kuchli tovush hisoblanadi. A tovushi esa bu jihatdan eng kuchsiz tovushdir. Chunki og'iz bo'shlig'i a ni talaffuz qilganda i ga nisbatan keng ochiladi, havoning chiqish kuchi kamayadi. Lekin og'iz bo'shlig'ining a tovushi nutq protsessida qo'llash imkoniyati i tovushining imkoniyatiga nisbatan ancha qulay. Shunga ko'ra odatdagi nutq protsessida a tovushi i tovushiga nisbatan ko'proq kuch bilan qo'llanadi. Lekin nutq protsessida tovushlar maksimal shovqin asosida emas, balki tabiiy nutq zarurati darajasida ifodalanadi. Chunki maksimal shovqin holatida nutq tovushlari asosiy xususiyatini yo'qotadi. Bu jihatdan qaraganda ham a tovushining talaffuzi i ga nisbatan qulayroq. Tovush balandligi tebranishning vaqtga nisbatan bo'lgan miqdori bilan o'lchanadi. Uning o'lchov birligi gers(Gs) deb ataladi. Gers tebranishning sekundga nisbatan o'lchovini belgilaydi. Tebranish qancha ko'p bo'lsa, tovush shuncha baland, tebranish oz bo'lsa, tovush ham past bo'ladi. Boshqacha aytganda, tovushning balandligi tebranishning zichligiga bog'liq: tebranish qancha zich bo'lsa, tovush shuncha baland bo'ladi. Tovush tembri (fransuzcha *timbre* – tovush bo'yog'i) yoki bo'yoqdorligi. Har bir tovushning o'ziga xos ohangi, rangi yoki buyoqdorligi tovush tembri deyiladi. Tovush bo'yoqdorligi tovush tembrining holati va darajasi bilan o'lchanadi. Tovush tembri asosiy tonlar bilan obertonlarning (nemischa *oberton* – qo'shimcha ohang) murakkab qo'shilmasidan iborat. Akustikadan ma'lumki, har bir tebranuvchi jism, masalan, rubobning tori biror ta'sir natijasida tebranadi va havo to'liqinlanishi natijasida ovoz chiqaradi. Torning butun tanasi bo'ylab chiqargan ovozi asosiy ton – asosiy ovoz bo'ladi. Lekin tordagi umumiy, asosiy to'liqinlanish bilan birga uning tanasining ayrim qismlari ham o'ziga xos ravishda to'liqinlanadi. Bunday to'liqinlanish asosiy to'liqinlanishga nisbatan uning yarmini, uchdan birini yoki chorak qismini tashkil etishi mumkin. Ana shunday qo'shimcha to'liqinlarning jaranglashi natijasida qo'shimcha ovozlar yoki ohanglar – obertonlar hosil bo'ladi. Bu aytilganlar tembrning umumiy akustik xarakteristikasidir. Hamma unli tovushda ham ovoz bor. Lekin ular bir-birlaridan tembri bilan farq qiladi. Bunda og'iz bo'shlig'i asosiy va

eng murakkab rezonanslik vazifasini bajaradi, shu bilan birga, nutq jarayonida tovush tembrining hosil qilinishida yumshoq tanglay (xususan, burun rezonansini hosil qilish uchun) va tovush paychalari ham faol ishtirok etadi. Bulardan tashqari, nutq tovushlarini hosil qilishda til, lab, tish va boshqa nutq organlarining ham o'ziga xos o'rni bor. Boshqacha aytganda, tovushning boshqa sifat ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, nutq tovushlarini hosil qilishda tovush tembrining ham muhim ahamiyati bor. Biroq nutq tovushlarini hosil qilishda akustik jihat bilan bir qatorda fiziologik jihat, ya'ni nutq organlari ishtiroki muhim rol o'ynaydi. Biroq bu ikki tomon ham nutq tovushlarining to'liq qimmatini yarata olmaydi. Ularning to'liq qimmati nutq tovushlarining ma'no yaratish xususiyatlari tufayli, sotsial qimmati tufayli yuzaga chiqadi. Tovushning miqdor belgisi deyilganda odatda tovushning cho'ziqligi nazarda tutiladi. Tovushning cho'ziqligi uning talaffuz qilinishicha, ko'p vaqt ketgan tovushlar cho'ziq tovushlar deb ataladi. Lekin nutq tovushlari uchun absolyut cho'ziqlikning qimmati yo'q. chunki nutq tovushlarining qimmati o'zining tabiiy (nisbatan cho'ziq, nisbatan qisqa) vaqti bilan belgilanadi. Biroq "miqdor belgisi" degan iboraning nutq tovushining cho'ziqliligiga nisbatan shartli ravishda qo'llanilishini unutmaslik kerak. Chunki ayrim tillarda, kam bo'lsa-da, ma'no ajratish uchun xizmat qiluvchi cho'ziklik ham uchraydi. Bu esa nutq tovushining sifat belgisidir. (Bu haqda vokalizm mavzusida batafsil to'xtalgan) Shuni ta'kidlash zarurki, fonologik cho'ziqlik sifat o'zgarishiga olib kelsa, fonetik cho'ziqlik miqdor o'zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, ayrim tillarda prinsipial (ma'no ajratuvchi) cho'ziq tovushlar mavjud. Ular shu tilning tabiatiga xos bo'lgan birlamchi - fonologik cho'ziq tovushlardir. Shuningdek, ikkilamchi – fonetik cho'ziqlik ham bo'lib, ular keyingi davrda yuzaga kelgan. Bunda tovushning cho'ziqligi urg'uga yoki pozitsiyaga bog'liq bo'ladi. Bunday cho'ziqlik odatda hamma tillarga xos bo'lib, nutq jarayonida ko'p uchraydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, rus tilshunoslari fonetik cho'ziqlikni cho'ziqlikning asosiy turi deb hisoblaydilar. Ma'lum bir tilga xos bo'lgan nutq tovushlarini hosil qilishga muvofiqlashgan nutq apparati artikulyatsion baza deb ataladi. Tovush artikulyatsiyasida uch holat bo'ladi: 1. Ekskursiya — tovush hosil qilishga o'tish. 2. Pauza—tovush chiqarish uchun pauza qilish (to'xtab olish). 3. Rekursiya — asl holiga qaytish. Artikulyatsiyada ikki hodisa juda muhim rol o'ynaydi: artikulyatsiya o'rni va artikulyatsiya usuli.

6-Mavzu: O'zbek imo-ishora tilida Orfoepiya haqida umumiy ma'lumot.

O'zbek milliy tilining tarkibi nihoyatda rang-barang va murakkab bo'lib, u o'zida uchta yirik lahjani birlashtiradi. Bu lahjalardagi so'zlar talaffuzi o'ziga xos fonetik, leksik va morfologik belgilari bilan farqlanadi: 1) qipchoq lahjasida so'z boshida adabiy tildagi yundoshi o'rnida talaffuz qilinadi: yo'q //jo'q, yigit//jigit; adabiy tildagi g'o'rnida vundoshi aytiladi: tog'//tov sog'//sov; so'z oxirida k, qundoshlari tushiriladi: kichik//kichchi, qattiq//qatti; 2) o'g'uz lahjasida esa so'z boshida keladigan t, kjarangsiz undoshlari d, gtarzida talaffuz qilinadi: tog'//dag',

kel//galkabi; 3) qarluq -chigil -uyg'ur lahjasining o'ziga xos fonetik xususiyatlari so'z oxiridagi qundoshning g'tarzida aytilishi, ba'zan tushirilishida kuzatiladi: qovoq//qovog', shuningdek, bu lahjada aunlisining otovushiga o'zgartirilishi ham kuzatiladi: aka//okakabi. O'zbek lahjalaridagi bu kabi lahjaviy xilma-xilliklar, shubhasiz, adabiy tilning talaffuz me'yoriga ham o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Ana shunday nutqiy tafovutlarni bartaraf etish, lahjalardagi eng maqsadga muvofiq so'z shakllarini tanlagan holda qoidalashtirish orfoepiyaning muhim vazifalaridandir. Og'zaki nutqda har xil talaffuz qilinadigan tovush, qo'shimcha va so'zdan adabiy til uchun qabul qilingan bittasi to'g'ri talaffuz me'yorihisoblanadi. Masalan, o'zbek shevalarida bir so'z turlicha talaffuz qilinadi: ko'z –go'z, ota –ata, aka –oka, anor –onar kabi. Hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasi shevada -yapti, -opti, -utti, -vottishaklida qo'llanadi: boryapti, boropti, borutti, borvotti kabi. Adabiy tilda shulardan yo'q, ko'z, ota, aka, anor, boryapti variantlari adabiy talaffuz me'yori (orfoepik norma) sifatida saralangan. Albatta, orfoepiya boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar talaffuzi-ni ham qamrab oladi. Xususan, o'zlashma so'zlarning orfoepiya qonun-qoidalariga mos ravishda talaffuz qilinishi qoidalashtirilgan. Masalan, fabrika, fakt so'zlari pabrika, pakttarzda aytilsa ham, ular asliga muvofiq talaffuz qilinishi lozim. Adabiy talaffuz me'yorlari tilning tovush tizimi asosida yaratiladi. Bu esa orfoepik me'yorlarni belgilashda tovush tizimi, uning nutqiy jarayonda turlicha o'zgarishini hisobga olishni taqozo etadi. Ayrim unli va undoshlar orfoepiyasi 1. Iunlisi atir, ayrim, bilankabi so'zlarda qisqa, biyron, siyrakkabi so'zlar tarkibida yundoshdan avval kelganda o'ta cho'ziq; qirq, qir, qiz, kabi so'zlar tarkibida qattiq itarzida talaffuz qilinadi. Ayrim so'zlarda io'ta qisqa talaffuz qilinib tushiriladi: qobiliyat//qobilyat, quyidagi //quydagi; azm, adl, ayolso'zlari talaffuzida esa orttiriladi, biroq yozilmaydi. 2. Uunlisi, buvi, buloqso'zlarida qisqa; xusumat, quvvatkabi so'zlarda esa cho'ziq talaffuz qilinadi; gul, guvoh, kuyovkabi so'zlarda yumshoq; qum, qurol, g'ussakabi so'zlarda esa qattiq talaffuz qilinadi. Ko'rinadiki, unlilarning qattiq yoki yumshoq talaffuz qilinishi ko'p hollarda yonma-yon kelgan undoshning til oldi yoki orqa ekanligi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Xususan, q, g', xkabi til orqa undoshlari ishtirok etadigan so'zlarda ular qattiq, boshqa undoshlar (til oldi, sayoz til orqa undoshlari) ishtirok etgan so'zlarda esa yumshoq talaffuz etiladi. Qiyoslang: qo'pol, g'o'za, o'rda, go'dak, do'l, jo'yak, ko'ngil. 3. B, v, g, d, zundoshlari urg'usiz bo'g'inda, so'z oxirida jarangsiz undoshlar yonida kelganda jarangsizlashgan holda talaffuz qilinadi: ketdi//ketti, kitob//kitop, zavod//zavot, barg//bark, aktiv//aktif, peshvoz//peshvos, izhor//ishor. 4. D, s, t, l, n, ch, sh, mundoshlaridan oldin qo'llangan chuqur til orqa, portlovchi qundoshi xtarzida talaffuz qilinadi: naqd//naxt, maqsad//maxsat, vaqt//vaxt, baliqchi//balixchi, oqsoq/oxsog', nuqson// nuxson, qaqshamoq //qaxshamoq, cho'qmor//cho'xmor. 5. K, g, ng undoshlari oldida kelgan nsonori ng, ng'tarzida aytiladi: ko'lanka//ko'langka, ko'tarinki//ko'taringki, dengiz//dengngiz,

nonko‘r//nongko‘r,yong‘oq//yongngoq//yongg‘oq,
to‘ng‘illamoq//to‘ng‘g‘ilamoq.6. Ikki unli yonma-yon kelgan so‘zlarda ko‘pincha yundoshi orttiriladi:oila// oyila, shoir//shoyir, rais/rayis, radio//radiyo kabi.Ayrim grammatik shakllar orfoepiyasi1.Tushum kelishik affiksi talaffuzda -di, -ti, -zi, -rikabi fonetik variantlarga ega bo‘ladi: otni//otti, toshni//toshti, gulni//guldi, gapni//gapti//gappi, tuzdi//tuzzi.2. Men, senolmoshlariga -ning, -ni, -nikiaffikslari qo‘shilganda qo‘shimcha tarkibidagi bitta nundoshi tushiriladi va shunday yoziladi :mening, seni, meniki.3. U, bu, shu, o‘shakabi olmoshlarga -ga,-da,-dan,-day,-chaaffikslari qo‘shilganda nundoshi orttirilib talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: unga, unda, bundan, shundan, shunday, o‘shanchakabi. 4. Oxiri z undoshi bilan tugaydigan sonlarga dona son yasovchi -taaffiksi qo‘shilganda zundoshi starzida talaffuz qilinadi: to‘qqizta // to‘qqista, o‘ttizta // o‘ttista; oxiri z, shbilan tugaydigan otlarga -sizensifat yasovchi qo‘shilganda ham bu undoshlar starzida talaffuz etiladi: boshsiz//bossiz, izsiz//issiz, ovozsiz//ovossiz; bunday holni oxiri z bilan tugaydigan ba‘zi so‘zlarga ot yasovchi -chiaffiksi qo‘shilganda ham kuzatish mumkin: zakazchi//zakaschi, arazchi//araschi, taqrizchi// taqrischikabi.5. Tarkibida -n, -in, -lanaffiksi bo‘lgan so‘zlarga -laaffikslari qo‘shilganda -n, -in, -lanaffikslari oxiridagi nundosh mtarzida talaffuz qilinadi: kiyinmoqda//kiyimmoqda, burkanmoqda//burkammoqda, ovqatlandi// ovqallandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о‘quv qo‘llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po‘latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайсева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

7-Mavzu: Grafika.

Reja.

- 1.Grafika haqida tushuncha.
- 2.Grafika va uning turlari.

Grafika haqida umumiy ma'lumot

Grafika grekcha *grafikos* so'zidan olingan bo'lib, yozuv degan ma'noni bildiradi.

Grafika og'zaki nutqni turli shakllar, belgilar, raqamlar va chiziqlar yordamida aks ettiruvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Grafik vositalarga harflar, belgilar va tinish belgilari kiradi. Harf – tovush ifoda etuvchi shakl.

Til va yozuv

Til va yozuv o'zaro uzviy bog'liq va aloqador hodisadir. Til jamiyat bilan bir vaqtda yuzaga kelgan. U jamiyatning bo'lishida muhim omillardan biridir. Tilsiz jamiyat bo'lmaydi.

Yozuv – jamiyatning madaniy yutuqlaridan biri. U jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida hayotiy zarurat natijasi sifatida yuzaga keldi, yaratildi. Yozuv ham til kabi jamiyat a'zolarining aloqa-aralashuvida asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ko'p hollarda yozuv tilning o'rnini bosadi. Lekin til va yozuvning o'ziga xos ahamiyatli tomonlari bor. Yozuv fikrni yetkazishda masofa jihatidan chegara bilmaydi. Til esa vaqt va makon jihatdan chegaralangan. U yaqin masofada turgan suhbatdoshiga eshitiladi.

Yozuv madaniy, ma'rifiy va adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga meros sifatida qoldirish imkoniyatiga ega. Og'zaki nutq esa aytilayotgan paytdagina qabul qilinadi. Biroq yozuv maxsus yozuv qurollari, sharoit, vaqt va shartli belgi shakllarni talab etadi. U tilni barcha nozikliklari bilan aks ettira olmaydi. Shunga qaramay, jamiyatda yozuvning o'z o'ri bor; yozuv masofa bilan ajralgan odamlar orasida aloqa munosabatini ta'minlashda, barcha uchun tushunarli bo'lgan adabiy tilning yuzaga kelishida, madaniy-adabiy boyliklarni keyingi avlodlarga yetkazishda katta imkoniyatlarga ega.

Tarixchilarning aniqlashicha, yozuv dastlab Messopotamiya degan joyda paydo bo'lgan va bu yozuv tarixga **mixxat** nomi bilan kirgan. Bu xat eramizdan oldingi V–IV asrlarda O'rta Osiyoning Eronga yaqin hududlarida rasmiy yozuv sifatida ishlatilgan. Hozirgi eramizdan boshlab taxminan VI asrgacha **so'g'd** yozuvi ishlatilgan. V-VIII asrlar davomida turkiy xalqlar **runik** yozuvidan foydalanishgan. Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklari dastlab Janubiy Sibirning Enasoy daryosi havzalarida va Mo'g'ulistonning O'rxun vodiysida topilgan. Shunga nisbatan qadimgi turkiy yozuv O'rxun-Enasoy obidalarining yozuvi deb ham yuritiladi. 1893-yili daniyalik olim N. Tomsen va rus olimi V. V. Radlov qadimgi turkiy yozuvni o'qishga muvaffaq bo'ldilar. O'rxun-enasoy yozuvlari Rim yozuvlariga o'xshab ketganligi uchun **run** (**runik**) yozuvlari yoki **dulbarchin** deb ham yuritiladi.

O'rta Osiyoning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi mahalliy xalqi sak va massaget urug'lari bo'lib, ularning ham o'z yozuvlari mavjud edi. Ana shu yozuvdan qadimiy **xorazmiy** va **so'g'd** yozuvlari yaratilgan. **Xorazmiy** yozuvi ham o'zbek xalqi ajdodlari tomonidan qo'llanilgan yozuv bo'lib, bu yozuv II asrning oxiri III asrning boshlarida xorazmshoh chiqargan pullarda uchraydi.

1970-yillargacha turkiy yozuv eramizning VI-VII asrlarida shakllangan degan fikr yetakchi edi. Keyingi topilmalar turkiy yozuvning ildizlarini ikki yarim ming yillik o'tmishdan izlamoq kerak, degan xulosani chiqarishga asos bo'ldi. 1988-

yilda Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Lo'mbitepa yodgorligidan ko'za topildi. Uning bandi sirtiga qadimiy turkiy bitik o'yib tushirilgan ekan. Bu bitik VII-VIII asrlarga oid turkiy obidalardan yosh jihatidan qariyb I-II asrcha qadimiyroqdir.

VI-VII asrlardan to XV asrlargacha turkiylar va mo'g'ullar uyg'ur yozuvidan foydalanishgan. Bu yozuvda bitilgan yodgorliklarning eng qadimgisi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Vena kutubxonasiidagi nusxasidir. Ahmad Yugnakiyning "Hibat-ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar armug'oni"), Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Lutfiy va boshqa shoirlarning ayrim she'rlari **uyg'ur** yozuvida yozilgan. Uyg'ur yozuvi X-XV asrlarda mavjud bo'lib, arab yozuvi bilan ma'lum davrgacha baravar ishlatilgan.

720-yildan boshlab **arab** yozuvi tarqala boshlagan. Arab yozuvida bitilgan eng qadimgi turkiy yodgorliklar XI asrga taalluqlidir. Bular Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarining Namangan va Qohira nusxalaridir. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu-lug'otit-turk" nomli asari ham arab yozuvida yozilgan. Xalqlarimiz taxminan 1200 yildan ko'proq vaqt davomida arab alifbosidan foydalangan. 1929-yildan **lotin** alifbosi asosidagi yangi yozuvga o'tilgan edi. 1940- yildan boshlab esa **rus (kirill)** grafikasi asosidagi yangi o'zbek alifbosiga o'tildi.

Hozirgi yozuv va uni ifoda etuvchi vositalar

1996-yildan boshlab lotin alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi joriy etildi. Bu alifboda 29 ta shakl bo'lib, ular 30 ta tovushni ifodalash uchun xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek yozuvidagi undosh harflar bir tovushni ifoda etadi. (**Jj** harfi bundan mustasno). Ikkita tovushni ifodalash uchun **Jj** ishlatiladi: 1) qorishiq, portlovchi **j(d+j)** tovushini (*jo'ja, jayron, avj* kabi) va 2) sirg'aluvchi **j** tovushini (*jurnal, jirafa*) bildiradi.

Mazkur yozuvda uchta harf birikmasi mavjud: *ng, sh, ch*. Ular so'z tarkibida ajratilmaydi va bo'linmas bir tovushni ifoda etadi: **ng** sayoz til orqa, portlovchi-sirg'aluvchi, sonor undosh tovushini (*tong, ohang, chang. manglay*), **ch** til oldi, qorishiq portlovchi, jarangsiz undosh tovushni (*charos, tinch, sinch, choynak*), **sh** til

oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undoshni (*shabada, shar, shahar, toshqin, bosh*) ifodalaydi.

Tovushlar ikki turga bo'linadi: 1) unli tovushlar, 2) undosh tovushlar. Ular unli va undosh harflar bilan belgilanadi. Hozirgi o'zbek alifbosida 6 unli tovush va 6 ta unli harf bor (*a, o, u, i, o', e*). 24 ta undosh tovush 23 ta undosh harf bilan belgilab ko'rsatiladi (*b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, r, s, t, v, x, y, z, sh, ch, ng*). Har bir harfning bosh va kichik, bosma va yozma shakllari bor.

Harflarning alfavit taritibini bilish muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki turli lug'atlar, davlat idora organlarida, arxivlarda saqlanadigan hujjatlar, ro'yxatlar alfavit tartibida tuziladi.

Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilar: (.) (,) (?) (!) (:) (;) (...) («») (-) (') ham qo'llanadi. Urg'u (') belgisi so'z bo'g'inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq talaffuz qilish uchun unli harf ustiga qo'yiladi. Yozuvda harflar bilan birga tinish belgilarning ham roli katta. Tinish belgilari yordamida fikr yozuvda aniq, ravshan va tushunarli qilib beriladi. Og'zaki nutqning fikrini to'liq ifodalash uchun xizmat qiladigan ohang va pauzalari yozuvda tinish belgilari orqali ifoda etiladi.

Tutuq belgisi (') ham grafik vositalardan biri sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) so'zda unli tovushdan keyin kelib, uning cho'ziq aytilishini (*a'lo, e'tibor, iste'mol*); 2) so'zda undoshdan keyin kelib, oldingi bo'g'in bilan keyingi bo'g'inning ajratib aytilishini bildiradi; 3) so'z ma'nolarini farqlab beradi (*ta'na – malomat, tana – organism*); 4) s va h tovushlarini sh tovushidan farqlaydi: *Is'hoq*.

2-ilova

Bizning davrimizda jahondagi xalqlar 220 xil yozuvdan foydalanadilar. Shu yozuvlardan juda keng tarqalgani **lotin** yozuvi bo'lib, jahon xalqlarining 30 foizidan ziyodi shu yozuvni qo'llaydilar. 1993 yil 2-3 sentyabrda bo'lib o'tgan Oliy Kengash yig'ilishida o'zbek yozuvini lotin alifbosiga o'tkazish to'g'risida qonun qabul qilindi. 1995-yil 6-maydagi Oliy Majlis sessiyasida bu alifboga ayrim o'zgarishlar kiritildi va bu yozuvga to'liq o'tish muddati 2005-yil sentabr oyi deb belgilandi. 2004-yilda chiqarilgan qonunga ko'ra esa lotin yozuviga to'liq o'tish muddati 2010-yil sentabriga qadar cho'zildi⁶. Isloh qilingan yangi o'zbek alifbosida 29 ta harf bor. Shulardan 3 tasi harfiy birikma: sh, ch, ng:

**Aa(1) Bb(2) Dd(3) Ee(4) Ff(5) Gg(6) Hh(7) Ii(8) Jj(9) Kk(10) Ll(11) Mm(12)
Nn(13) Oo(14) Pp(15) Qq(16) Rr(17) Ss(18) Tt(19) Uu(20) Vv(21) Xx(22) Yy(23)
Zz(24) O'o' (25) G'g' (26) Sh sh(27) Ch ch(28) Ng ng(29).**

Muayyan tartibda joylashtirilgan shakllar yig'indisi **alfavit** deyiladi.

Kirill grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi

Kirill yozuviga asoslangan alfavitda 35 ta shakl bo'lib, bu shakllardan 33 tasi harf, 2 tasi belgidir. Har bir harfning bosh va kichik shakli (Aa), bosma va yozma shakllari bor. Har bir harf o'z nomiga ega. Harf nomini bilish va uni to'g'ri talaffuz qilish muhim amaliy orfoepik ahamiyat kasb etadi, chunki tildagi qisqartma so'zlarni to'g'ri o'qish uchun harf nomlarini bilish zarur. Masalan: *BMT* – *be – em – te*.

Kirill grafikasi asosidagi alifbo quyidagicha tartiblashtirilgan:

Aa,Bb,Vv,Gg, Dd, Yee,Yoyo,Jj,Zz,Ii, Yy,Kk,Ll,Mm,Nn,Oo,Pp, Rr,Ss,Tt,Uu,Ff, Xx, TSts, CHch, SHsh, ‘, G'g', Ee, Yuyu, Yaya, O'o', Qq, G'g', Hh.

Bu alifboda 10 ta unli harf (*a, o, i, u, o', e, e, yo, yu, ya*) bo'lib, ular 6 ta unli tovushni ifodalaydi. Bulardan to'rttasi (*e, yo, yu, ya*) yotlashgan (grafema) tovushlar bo'lib, ularning 2 holati farqlanadi:

1. Ba'zi so'zlarda undoshdan keyin kelib, u bilan birga bitta bo'g'inni hosil qiladigan va bir tovushni (*a, u, e, o*) ifoda etadigan holati: *ter-ter, syujet-sujet, sentyabr-sentabr, rejissyor-rejissor* kabi.

2. So'z boshida va bo'g'in boshida kelib, ikki tovushni (*ye, yu, ya, yo*) ifoda etadigan holati: *yostiq - yostiq, yurak - yurak, quyosh - quyosh, yanvar - yanvar* va hokazo.

Yuqoridagi alfavitga o'zbek tilining tovushlari tabiatidan kelib chiqib, 4 ta harf (*o', q, g', h.*) qo'shilgan. Kirill yozuvda 2 ta belgi (*' , g'*) bo'lib, ular tovush bildirmaydi. Ayirish belgisi (*'*) unidan keyin kelganda o'sha unlining cho'ziq aytilishi (*ma'no, e'lon* kabi), undoshdan keyin kelganda bo'g'inlarni ajratib aytilishini (*sur'at, jur'at* kabi); yumshatish (*g'*) belgisi esa ruscha-internatsional so'zlarda o'zidan oldingi undoshning yumshoq aytilishi uchun (*alg'bom, tsirkulg'*) xizmat qiladi.

Alfavitdagi *j* harfi 2 tovushni, portlovchi *j* (*jayron*) va sirg'aluvchi *j* (*jurnal*) tovushini ifodalaydi. Alfavitdagi *n* va *g* harflari alohida *n* va *g* tovushlarini yozuvda ifodalash bilan birga, birikma shaklida sayoz til orqa burun tovushini (*ng*) ifodalash uchun ham xizmat qiladi (*tong, bodring* kabi).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.

2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

8-Mavzu: Orfografiya.

Reja.

1. Grafikaning lingvistik asosi.
2. Grafikaning shakllari.

Yozuv tilga nisbatan ikkilamchi hodisadir. U til va nutqqa tobe bo`ladi, uni (til va nutqni) og`zaki shakldan yozma shaklga — fizik-akustik substratdan optik— grafik substratga ko`chirish uchun xizmat qiladi. Demak, til va nutq fonografik yozuvning lingvistik asosi (lisoniy poydevori) sanaladi. Fonografik yozuvning grafika, orfografiya va punktuatsiyadan iborat uchta komponenti bor.

1. Grafikaning lingvistik asosini muayyan tilning fonologik sistemasi va ma`lum darajada shu tilning leksik sathi tashkil qiladi. Grafik tizim tilning ana shu sathlariga mansub birliklar bilan grafemalar vositasida aloqaga kirishadi. (Bu haqda „Grafema bilateral` birlik sifatida” mavzusiga qarang) [1].

2. Orfografiyaning lingvistik asosini ham til va nutq tashkil etadi, ammo bu asos zahirida til va nutqning grafika yoxud grafemika tomonidan boshqarilmaydigan jihatlari yotadi. Masalan, kuchli pozitsiyada „b” fonemasining tipik ottenkasi (*bozor, abror, lobar* so`zlaridagi jarangli „b” ko`rinishi), kuchsiz pozitsiyada esa shu fonemaning notipik ottenkasi (*obkash>opkash, ketib>ketip* so`zlaridagi „b” ning jarangsizlashgan „p” ko`rinishi) qatnashadi. Birinchi holatning yozuvdagi ifodasi grafika tomonidan boshqariladi (**b** grafemasining jarangli „b” fonemasini ifodalashi grafikada kodlashtirib qo`yilganligi uchun), ikkinchi holatning yozuvdagi ifodasi esa grafika tomonidan boshqarilmaydi, chunki „b” fonemasining kuchsiz pozitsiyadagi ko`rinishlarini yozuvda ifodalash usullari — orfografiya printsiplari grafikada nazarda tutilmagan.

Bunday usullarni (orfografiya printsiplarini) tanlash va qo`llash orfografiyaning vazifalari doirasiga kiradi. Bulardan tashqari, so`z qismlarini satrdan-satrga ko`chirish, bosh va kichik harflarni qo`llash, allomorflardan qaysilarini orfogramma uchun asos (referent) qilib tanlash, qo`shma so`z komponentlarini qo`shib yoki ajratib yozish, juft va takroriy so`zlar imlosini me`yorlashtirish kabi qator masalalar ham borki, ularni boshqarish orfografiya zimmasiga yuklanadi.

3. Punktuatsiyaning lingvistik asosini tilning grammatik sistemasi va, ayniqsa, gap qurilishining ritmik—intonatsion xususiyatlari tashkil etadi. Shu sohaning etakchi mutaxassisi K.Nazarovning ta'kidlashicha, hozirgi o'zbek punktuatsiyasining yana bir asosi — rus punktuatsiya sistemasi ham bor [2]. Buning dalili sifatida muallif ko'pchilik tinish belgilarining (so'roq, undov, qo'shtirnoq, ko'p nuqta kabilarning) rus tilidan o'zlashtirilganligini, shuningdek, rus punktuatsiyasi ilmiy—nazariy jihatdan ancha ishlangan va sistemalashgan bo'lganligi uchun o'zbek tilidagi punktuatsiya qoidalarining ayrimlari ham rus punktuatsiyasi qoidalariga asoslanib tuzilganligini aytadi.

Punktualsiya asoslari zaminida punktuatsiya printsiplari va qoidalari ishlab chiqiladi. Ular (printsiplar va qoidalar) og'zaki nutqning mazmunini, strukturasi va intonatsion xususiyatlarini yozma nutqqa ko'chirish imkonini beradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, tinish belgilarining grafemalar yoxud prosodemografemalar sifatidagi tavsifi (bilateral birlik ekanligi, optik—grafik tasviri, referenti va h.k.) punktuatsiyaning emas, grafika yoki grafemika fanlarining predmeti sanaladi, binobarin, tilshunoslikning grafika bo'limida ko'riladi, punktuatsiyada esa tinish belgilarining (prosodemografemalarning) qo'llanishini me'yorlashtiruvchi qoidalar tizimi, shu qoidalarning yaratilishiga asos bo'lgan tamoyillar (punktuatsiya printsiplari) ishlab chiqiladi.

4. Yozuv tizimining (grafika, orfografiya, punktuatsiyaning) **ekstralingvistik asoslari** ham bor. Bunday asoslar zaminida grafemalar va imlo qoidalarining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishini osonlashtirish usullari (pedagogik—metodik priyomlar) ishlab chiqiladi, harf yoki grafemalarning texnik vositalar (yozuv mashinkalari, linotiplar, komp'yuterlar) uchun qulay shakllari (allograflari), estetik didga mos ko'rinishlari yaratilishi nazarda tutiladi.

Yozuvning ijtimoiy—madaniy va ma'rifiy hayotdagi rolini mustahkamlashda bunday asoslarning hisobga olinishi muhim ahamiyatga egadir. Shu o'rinda **Abdurauf Fitratning** 1921 yilda birinchi O'lka o'zek tili va imlosi qurultoyida o'qigan ma'ruzasida aytgan quyidagi gap i'tiborga loyiqdir: „Butun millatlar yozuni o'qimog'och ma'noni onglay olmaylar.

Ma'noni onglamoq uchun yozuni o'qiylar. Biz esak ma'noni onglayolmasaq yozuni o'qiyolmaymiz...” , - degan edi u o'z ma'ruzasida. Bunda u arab alifbosidagi harflarning ko'p shaklliligi, ularni qo'llash qoidalaridagi noizchiliklar (qisqa unlilarning yozuvda ifodalanmasligi, bir harf bilan turli tovushlarning ifodalanishi) tez va ravon o'qish ko'nikmalarining shakllantirilishiga to'siqlik qilayotganini nazarda tutgan edi.

Yuqoridagi kabi fikrlar o'z vaqtida Elbek (Mashriq Yunusov) va R. In'omovlar tomonidan ham bildirilgan. **Elbek** bu haqda shunday degan edi: "...Eski imlo atag'on imlomiz burun choqlardan beri bir yo'sunsiz, negizsiz yozilib kelmoqda

bo`lg`on bir imlodurkim, buning bilan bir narsani ochiq onglov juda qiyindir, chunki bir so`zni bir necha turli o`qimoq mumkin bo`lg`onlikdan kishi ko`b yanglishadir ... Demak, eski imlo yo`lsizligi uchun tashlanmoqdan boshqa chora yo`qdir., [3].

R.In`omov esa e`tiborni ko`proq yozuv mashinkalari, telegraf va bosmaxona texnikasi bilan alifbo o`rtasidagi mutanosiblik buzilganiga qaratadi. Xususan, „Maorif va o`qitg`uchi” jurnalida chop etilgan bir maqolasida u shunday deydi: „Nima uchun arabdan lotinga o`tish kerak?”

Shu so`roqqa qisqa qilib javob beramiz:

1. Arab alifbosi turk tilidagi tovushlarning shaklini tamomila bera olmaydir.
2. Arab alifbosi texnika tomonidan lotindan quyida turadir. Arabda nuqtalar, alomatlar, bosh, o`rta va so`nggi harflar bordir. Lotin esa bulardan uzoqdir...
3. Arab alifbosi o`qitish, o`rganish ishida lotindan ortda turgani, texnika tomonidan buzuqligi ustiga erlilashtirish ishida ham to`sqinlik qiladir. Masalan: yozu mashinalari, stenografiya, telegraf va shunga o`xshashlar”.

A.K. Borovkov turkiy tillar alifbolarini uyg`unlashtirish (unifikatsiya qilish) masalasi haqida gapirar ekan, bunday unifikatsiya ishlari murakkab bosmaxona texnikasining imkoniyatlariga mos ravishda olib borilishi lozimligini ham alohida uqtiradi. Yuqoridagi fikrlardan ko`rinib turibdiki, alifbo va imloni shakllantirishda faqat lingvistik omillarni hisobga olishning o`zi etarli emas. Buning uchun yozuv tizimining pedagogik—psixologik, texnikaviy, estetik omillar bilan bog`liq jihatlari ham hisobga olingan bo`lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // o`quv qo`llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po`latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

9-Mavzu: Leksikologiya va uning obyeyekti, turlari, vazifalari. O`zbek imo-ishora tili lug`at tarkibining ma`no jihatdan tavsiflanishi.

Reja:

1. *Leksikologiya o`rganish predmeti, vazifalari.*
2. *Leksik sath. Leksik ma`no va uning lison, nutqqa munosabati.*

3. *Leksema lisoniy tizimdagi o'rne.*

4. *So'z va uning nutqiy birlik yekanligi.*

Leksikologiya (ot. grek. *lexikos* co'zga oid va *logos* - ta'limot) tilning lug'at tarkibini, leksikasini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limidir. Leksikologiyaning o'rganish manbai til bo'lsa, uning o'rganish predmeti til lug'at tarkibining quyidagi aspektlaridir:

a) tilning asosiy birligi sifatidagi so'z muammosi, leksik birliklar tiplari:

b) til lug'at tarkibi strukturasi:

v) lug'aviy birliklarning qo'llanilishi:

g) lug'at tarkibining boyishi va taraqqiyoti:

d)leksik birliklarning tildan tashqaridagi borliq bilan o'zaro munosabati:

Co'z umumlingvistik muammo bo'lib, shu boisdan umumiy so'z nazariyasi doirasida ham o'rganiladi. Leksik birliklar doirasiga nafaqat alohida so'zlar (tugal shakllangan birliklar), balki so'zga teng barqaror birliklar, murakkab, tarkibli so'zlar ham kiritiladi. Lekin so'zlar asosiy lug'aviy birliklar sanaladi.

SHakl va mazmun birligidan iborat so'zlar lisoniy birlik sifatida uch yo'nalishida o'rganiladi:

a)struktur jihatdan (so'zning qurilish xususiyatlari);

b)semantik jihatdan (so'zning lug'aviy ma'nosi);

v)funksional jihatdan (so'zning lison va nutq strukturasi tutgan o'rni).

Struktur yondashuvda so'z leksikologik nazariyasining asosiy vazifasi uning alohidaligi va o'ziga xosligi mezonlarini tiklashdir. Birinchi holatda so'z so'z birikmasi bilan qiyoslanib, uning tugal shakllanganlik va alohidalik belgilari ochiladi. So'z nutqdagi analitik shaklining lisoniy asoslari yoritiladi. Ikkinchi holatda so'zning turli grammatik shakllaridan hosil qilingan lisoniy invariantini tiklash xususida so'z boradi. Shu munosabat bilan grammatik shakl olgan leksema - so'zshakl tushunchasi muayyanlashtiriladi. Shuningdek, leksemaning turli nutqiy variantlari - fonetik, morfologik, leksik-semantik variantlari tadqiq qilinadi. Lug'aviy birliklarning semantik tahlilida, ular (lug'aviy birliklar) leksik semantika - semasiologiya tadqiq manbaiga aylanadi. Bunda so'zning tushuncha (signifikat) va borliqdagi atalmish (denotot)ga munosabati o'rganiladi. Semasiologiya so'zlarning semantik tiplarini bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik, umumiy va xususiy, mavhum va muayyan, keng va tor (giperonim va giponim), bosh va hosila, to'g'ri va ko'chma ma'nolari tadqiq qilinadi. Bunda asosiy e'tibor ko'p ma'noli so'zlarning semantik strukturasi, so'z ma'nolari tiplari va ularni ajratish mezonlariga, so'z ma'nolarining o'zgarishi va taraqqiyoti, so'zning ma'nosini

yo'qotishi va grammatik formantga aylanishi-desemantizatsiya hodisasiga qaratiladi.

Funksional yondashuvda so'z lisonning nutqda reallashuvi jarayonidagi roli, shuningdek, boshqa lisoniy sathlar birliklari voqelanishiga, ular umumiy ma'nolarining parchalanishiga qo'shgan «hissasi» tekshiriladi. Masalan, odamcha so'zshaklida odam leksemasi -cha qo'shimchasining «kichraytirish-kamsitish» ma'nosini qizcha so'zidagi «kichraytirish-erkalash» ma'nosidan farqlagan, morfologik sath birligi bo'lgan -ga morfemasining «kichraytirish» UGMsini parchalab, uning bir parchasini ikkinchi parchasidan ajratgan.

Leksikologiya leksikani til tizimidagi ichki tizim (sistema) sifatida qaraydi.

Shuningdek, o'zaro ma'noviy umumiylikka ega bo'lgan lug'aviy birliklar yanada kichik, ichki tizimcha sifatida qaraladi. SHu asosda katta va kichik, ichki tizimlarning pog'onali, bir-birini tashkil etuvchilik munosabatlari ochiladi.

Masalan, olma o'rik, nok kabi ho'l meva nomlari bir tizimni tashkil etadi. Sabzavot nomlari boshqa bir tizimni tashkil qiladi. Ular yuqoriroqda yana birlashadi - kichik tizimchalardan tashkil topgan «meva-sabzavot nomlari» tizimini tashkil qiladi va umumlashtirish yuqoriga qarab, bo'lish quyiga qarab davom etaveradi. Uni chizmada quyidagicha berish mumkin: Buni A.Tsalkalamanidze o'z tadqiqotida quyidagicha umumlashtirgan. (89-betdagi chizma)

So'zlarning guruhlari (tizimi) hajm ko'lam jihatidan farqlanishi mumkin. Eng kichik lug'aviy guruhlar so'zlarning shakliga (omonim), mazmuniy zidligicha (antonimlar), teng ma'nolilikka (sinonimlar) asoslanadi.

Leksikologiya nisbatan yirikroq tizim bo'lgan leksik-semantik maydonlarni ham o'rganadi. Masalan, «shaxs» leksik-semantik maydoni shaxsni atovchi barcha lug'aviy birliklarni qamrab oladi.

Tilning lug'aviy tarkibi bir xil emas. So'zlar turli asoslarga ko'ra ko'plab kategoriyalarga ajratiladi. Masalan, qo'llanish darajasiga ko'ra umumiy iste'mol va chegaralangan (yoki xususiy) leksika, qo'llanish davriga ko'ra eskirgan so'zlar, zamonaviy so'zlar va neologizmlar, qo'llanish doirasiga ko'ra dialektizmlar, professionalizmlar, jargonlar kabi turlarga bo'linadi.

Leksikologiya til lug'at tarkibining boyishini o'rganganda uning 3 tipini ajratadi. Bulardan 2 tasi (yangi so'z yasash, so'zni yangi ma'noda qo'llash) ichki boyish imkoniyati bo'lsa, bittasi tashqi (so'z o'zlashtirish)imkoniyatdir.

Lug'aviy birliklarning borliqqa munosabatini o'rganish leksikologiyaning muhim aspektlaridan biri sanaladi. Bunda ularning kishilar hayotiga, amal qilayotgan davrga munosabati ochiladi. Masalan, Sobiq sho'ro tuzumi davrida savdogar so'zida salbiy ottenka bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ijobiy bo'yoqli so'z sifatida keng iste'mollidir.

Leksikologiyaning umumiy, xususiy, tarixiy, qiyosiy, nazariy, amaliy leksikologiya kabi turlari ajratiladi.

Umumiy leksikologiya leksikaning qurilish, amal qilish va taraqqiy etishining umumiy qonuniyatlarini ochsa, xususiy leksikologiya ma'lum bir tilning lug'at tarkibini o'rganadi.

Tarixiy leksikologiya so'zlarning tarixiy shakliy va ma'noviy holatini, ularning taraqqiyotini tekshiradi.

Qiyosiy leksikologiya qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarning leksik birliklarini taqqoslash bilan shug'ullanadi. Masalan, qalqimoq so'zi o'zbek tilida narsalarning yuzaga chiqishini ifodalaydi va uning turk tilidagi varianti ma'nosi («kishining o'rnidan turishi») farqlanadi (Saat kachda kalkiyursunuz? - Qachon uyqudan turasiz?) Yoki qarindosh bo'lmagan o'zbek va rus tillaridagi yabloko (meva) va olma (meva va daraxt) leksemalarining lisoniy qiymatlari har xildir. Amaliy leksikologiya leksikografiya (lug'atchilik), tarjima, lingvo-pedagogika va nutq madaniyatini o'z ichiga oladi. Ularning har biri leksikologik nazariyani boyitadi. Masalan, tarjima qiyosiy leksikologiya uchun qimmatli materiallar beradi.

Nazariy leksikologiya leksikada lisoniy va nutqiy jihatlarni farqlab, ularning tizimiy munosabatlarini tadqiq qiladi.

Leksikologiya o'z o'rganish predmeti tadqiqida umumlingvistik tadqiq usullari - distributiv (so'zning chegarasini belgilash, morfologik strukturasi aniqlash), substitutsiya (so'zlar ma'noviy xususiyatlarini tahlil etish), komponent tahlil (leksema va so'zlar ma'noviy tarkibini aniqlash), transformatsion va statistik metodlaridan foydalanadi.

LYeKSYeMA VA SO'Z. Sistem yondashuvda leksik sath birligi tilshunoslikda emik sath-lisoniy sath birliklaridan biri bo'lmish leksema atamasi bilan nomlanadi. Leksema tilshunoslikning eng muhim va markaziy tushunchalaridan biri bo'lsa ham, uning mazmun va chegarasi hozirgacha aniq belgilangan, deb bo'lmaydi. Bunda nazariy tilshunoslikda hukm surib kelayotgan qator munozarali masalalardan tashqari, o'zbek tilshunosligida leksema va so'z atamasining hozirgacha yonma-yon qo'llanayotganligi va leksemani lisoniy sath birligi atamasi, so'zni nutqiy sath birligi sifatida qarashga intilish kabi ziddiyatli nuqtai nazarlar yashab kelayotganligini alohida ta'kidlash lozim.

Nazariy tilshunoslikda leksema va uning lisoniy tizimda tutgan o'rni masalasidagi murakkab va chigal muammolardan biri leksemaning til struktur birligi bo'la olish-olmasligidir. Ko'plab tilshunoslar tilning struktur birliklarini sanar ekanlar, fonema, morfema va konstruktsiya bilan cheklanib, leksemani tilning alohida qurilish birligi sifatida tan olmaydilar va uni morfemaning bir ko'rinishi sifatida qaraydilar. O'zbek tilshunosligida leksikani tizim sifatida tadqiq etish natijalarini umumlashtiruvchi o'quv qo'llanmasida (H.Ne'matov, R.Rasulov. O'zbek tilining sistem leksikologiyasi asoslari) ham leksema «jamiyat a'zolari uchun tayyor, umumiy, majburiy bo'lgan, shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, nutq

va lug'atda grammatik morfemalarni o'ziga biriktira oladigan morfema turi» tarzida morfemaning bir ko'rinishi sifatida ta'riflanadi. Leksemani morfema orqali ta'riflash, o'z-o'zidan, lisoniy qurilishda uning alohida, mustaqil o'rni yo'qligiga ishora qiladi. Holbuki, leksema ko'p hollarda, jumladan, V.V. Vinogradov tomonidan ta'kidlanganidek, leksika va grammatikaning asosiy birligi sifatida qaraladi. Agar leksemaga shunday yondashilsa, tilning asosiy yarusi-leksik sath ham o'z mustaqilligidan mahrum bo'lib, morfologik sathning tarkibiy qismi mavqeida bo'la oladi, xolos. Biroq leksik sathning morfologik sathdan farq qilishini nazariy jihatdan asoslash birmuncha murakkab bo'lsa-da, amaliyotda bu sathlarning nisbiy mustaqilligi va ular orasidagi farqlarni his etish qiyin emas. Har bir tilning izohli va tarjima alohidaligini asoslovchi dalil bo'la oladi. Shuningek, leksik sathni o'z tuzilishi va yashash qonuniyatlariga ega bo'lgan alohida sath sifatida qarash ham yetarli darajada aslanmagan -birligi mustaqil emas (resp. Morfemaning bir ko'rinishi), sathi esa (resp. tizimi) alohida, mustaqildir. Bu kabi holatlar tilshunoslar, xususan, tilni tizimiy hodisa sifatida o'rganuvchilar oldiga leksemaning til tizimida tutgan o'rnini belgilash va asoslash vazifasini qo'ymoqda. Tilshunoslar Arastu davridan boshlab leksemaga ta'rif berish ustida bosh qotirib kelmoqdalar. Ularning ishlarida unga bugungi kunda yuzlab ta'riflar berilganligi ta'kidlanadi va ularda ta'riflarning asosiylari batafsil sharhlanadi. Ularning barchasi so'zning alohida-alohida qirralariga berilgan ta'riflar bo'lib, leksemaning barcha jihatlarini qamrab olishga qodir emas. Zero, bu ta'riflarning barchasi leksemaning zohiriy alomatlariga tayanadilar. Hatto, A.I. Smirnitskiy tomonidan ilgari surilgan «tugal shakllanganlik» (tselnooformlennost) omili ham so'z (leksema)ning barqaror belgisi bo'la olmaydi- so'z chegarasini belgilab berish quvvatiga ega emas. Chunki bu sifatni frazemalarning kattagina guruhida ham kuzatish mumkin. So'zga umumiy ta'rif berish borasidagi mushkulotlar ba'zan tilshunoslarning umuman so'zga ta'rif berishdan voz kechishiga, har bir guruh yoki morfologik tipdagi tillarning so'zlarini alohida-alohida ta'riflash lozimligi haqidagi g'oyalarni ilgari surishga ham olib kelmoqda. Dialektikada hodisalarga mutlaq ta'rif berish mumkin emasligi, ta'rifda chekka hodisalar istisno sifatida qolishi haqidagi metodologik omillar mazkur qarash tarafdorlari fikriga ham loqayd qaramaslik lozimligini taqozo qiladi. Bugungi kunda sintaksis bo'yicha tilshunoslik nazariyasida yaratilgan kesim haqidagi yangi ta'limotga tayangan holda, o'zbek tilshunosligida o'zbekcha kesim tushunchasini ishlab chiqish muhim ekan, bunga bevosita metodologik omil sifatida tayanib, uni umumiy va xususiy leksema nazariyasiga ham tadbiiq qilish lozim. Bu bevosita o'zbekcha leksema tushunchasini yaratish, bunda o'zbek tilining ichki tabiatidan kelib chiqish zarurati mavjudligi bilan belgilanadi. Masalaning bu tarzda qo'yilishi, ehtimol, bundan 10-15 yil oldin noo'rin va «qaltis harakat» sifatida qaralishi mumkin edi. Biroq bugun o'zbek milliy madaniyati va ma'naviyatda yuz berayotgan tub, inqilobiy o'zgarishlar mazkur masalaning to'la ma'noda dolzarbligini belgilaydi. Shuning

uchun o'zbekcha (kengroq olganda, turkiy) leksema nazariy tilshunoslikka tayangan hind-evropa tillari leksemalari bilan qanday munosabatda, degan muammoning qo'yilishi va hal etilishi mazkur masalaga olib keluvchi asosiy omildir.

Ma'lumki, Yevropa tilshunosligida leksemaga morfema orqali ta'rif berilar ekan, uni «kornevaya morfema» (o'zak morfema) sifatida baholaydilar va morfema tushunchasiga tayanadilar. Agglyutinativ tillardagi, jumladan, o'zbek tilidagi va flektiv tillardagi, jumladan, rus va arab tillaridagi o'zaklarning keskin farqlanishi esa tilshunoslikka kirish kursiga doir barcha darslik va qo'llanmalarda, bu borada amalga oshirilgan ulkan tadqiqotlar majmuida mufassal sharhlangan. Ularda ta'kidlanishicha, rus va arab tillaridagi o'zaklar mustaqil qo'llanishiga ega emas. Shuning uchun mazkur tillarga o'zakni morfemalarning bir turi sifatida qarash va shu asosda faqat o'zakdan iborat, tarixiy yasamaligini yo'qotgan o'zak leksemalarni mustaqil qo'llanishga ega bo'lmagan morfemaning bir ko'rinishi sifatida baholash xosdir va shu xususiyat bilan qayd etilgan tillar agglyutinativ tillardan farqlanib turadi. Demak, o'zak va morfema turkiy tillar uchun bir-birini qoplovchi, ma'nodosh tushunchalar emas. To'g'ri, ularning ikkalasi ham tilning eng kichik ma'noli bo'laklaridir. Ular bu jihatdan fonemalar bilan ziddiyatda turadi. Shuningdek, o'zak ham, morfema ham, yaxlitlik (tselnooformlennost), umumiylik, tayyorlik, majburiylik va takrorlanuvchanlik xossalariga ega. Biroq ulardan biri kishi ongida aniq denotativ ma'noga ega bo'lib, borliqning biror bo'lagi bilan aloqador holda idrok qilinadi. Boshqasi esa mustaqil denotativ emas, nisbiy ma'noviy mustaqillikka ega bo'lib, bog'lanishlarsiz real ma'no kasb etmaydi. Bayon qilingan fikrlarni dalillash uchun quyidagi ruscha ch, pis, arabcha qr', ktb va o'zbekcha o'qi, yoz o'zaklarini qo'llanish va ma'no anglatish qobiliyatlariga ko'ra qiyoslash yetarli. Mustaqil va alohida ajratilgan holatda ch ning o'zak ekanligini mutlaqo anglab bo'lmaydi (chitat, ucheba, uchenie), biroq mulohaza yuritish natijasidagina pis ning pishu, pismo so'zlari bilan aloqadorligi seziladi. Arabcha ktb, qr' o'zaklari haqida esa bir qarashda ularning o'qish va u bilan aloqador til unsurlari ekanligi, biroq mustaqil qo'llana olmasligi xususiyatlarini aytish mumkin. O'zbekcha o'qi va yoz o'zaklarini sharhlashda bu til egasi qiyinchilik sezmaydi. Bunda mulohaza o'qi va yoz so'zlarining qanday ma'no tashiyotganligi (o'qi – read, o'qi - study, yoz - write, yoz - summer) doirasida bo'lib, omonimik bog'lanishlarni oydinlashtirish masalasiga yo'naltiriladi. Ko'rinadiki, o'zbek tilida lisoniy sath birligi sifatida eng kichik ma'noli birlikning ikki alohida turi - leksema va morfemani qat'iy chegaralash uchun yetarli ilmiy asos mavjud. Demak, turkiy tillarda leksemani morfema orqali emas, balki lisoniy sathning morfemadan yuqoriroqda turgan va til egasi ongida borliqdagi ma'lum bir voqelik bilan bevosita aloqada bo'lgan lisoniy birlik sifatida qarash lozim. Bu o'rinda o'zakning qo'shimchadan farqli jihatlari ustida batafsil fikr yuritishga esa zarurat yo'q.

Tahlillardan ko'rinadiki, o'zbek tili uchun tilning qurilish birliklari sifatida fonema-morfema-leksema-qolip tizmasi namoyon bo'ladi. Bular da ierarxik bog'lanish ham mavjud bo'lib, eng kichik morfema bir fonemaga, eng katta morfema bir leksemaga va eng kichik leksema bir morfemaga, eng katta leksema konstruktsiya mahsuliga teng keladi. Shunday qilib, o'zbek tili leksemalarini morfemalar va boshqa tillar leksemalari bilan munosabatlari tahlili asosida «o'zida tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik xususiyatlarini mujassamlashtirgan, shakl va denotativ ma'no birligidan iborat, mustaqil anglanish va qo'llanish tabiatiga ega bo'lgan lisoniy birlik» deb ta'riflash mumkin. Ayni paytda, ma'lum bir ta'rif ta'riflanayotgan tizimning barcha birliklari uchun mutlaq, birday amal qila olmasligi qonuniyatini yana bir bor ta'kidlash o'rinli.

Leksema lisoniy birlik bo'lsa, so'z uning nutqiy voqelanishi, nutqiy birlikdir. Shuning uchun leksema barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan tayyorlik, umumiylik, majburiylik kabi xossalarga, so'z esa nutqiy birliklarning tayyor emaslik, individuallik, ixtiyoriylik belgilariga ega.

Leksemaning tayyorligi va so'zning tayyor emasligini dalillovchi asosiy belgilardan biri ularning nutqda namoyon bo'lishi uchun har doim tayyor turishi, so'zlovchi uni faqat ishga solishidir. Ko'rinadiki, leksemalar ma'lum bir tilda so'zlashuvchilar ongida shakl va mazmunning yaxlitligi sifatida nutqqa chiqishga shay bo'lib turadi, ular ma'lum bir qonuniyat asosida, so'z yasash qoliplari asosida nutq jarayonida hosil qilinmaydi. Masalan, bizning, ya'ni o'zbek tilida so'zlashuvchilarning, ongida, deylik [stol], [ona], [ruchka], [bormoq], [qizil], [o'n] leksemalari borliqdagi biror narsa, predmet, harakat, miqdor belgi kabilarni ifodalovchi ongdagi tushunchalarning in'ikosi sifatidagi ma'nolari bilan taxt holda, so'zlovchining «komanda»sini kutgan holda turadi. So'zlovchilarga u ajdodlar tomonidan shakliy va mazmuniy yaxlitlik sifatida meros qilib qoldirilgan.

So'zlovchi uning na shakl, na ma'no tomonini hamma uchun umumiy qilib o'zgartira oladi. Ularni nutq jarayonida boshqa bir ma'nolarda qo'llashi mumkin. Lekin til jamiyati ongida mazkur shakl bu ma'nolarni ifodalashga xoslanmaganligi uchun u umumiylik va barqarorlik xossalari ga ega bo'la oladi. Masalan, so'zlovchi [haykal] leksemasini «asar» ma'nosida qo'llashi mumkin: Mening haykalim bitdi kabi. Ammo mazkur shaklga «asar» ma'nosi vaqtincha birikib turadi va bu birikish o'ta omonat bo'lganligi tufayli yashovchanlik kasb eta olmaydi. Demak, leksemalarning na shakliy tomonini na mazmuniy tomonini so'zlovchi o'zgartira oladi.

So'zlar esa til jamiyati a'zolari ongidagi leksemalarning so'zlovchi tomonidan nutq sharoitiga mos ravishda voqelantirilishidir. Leksema so'z sifatida voqelanganda, o'zining bir qirrasinigina olib chiqadi. So'zlovchi leksemani so'z sifatida nutqqa chiqarganda, unga morfologik, sintaktik, uslubiy jihatlardan ishlov beradi. So'z so'zlovchi tomonidan leksema asosida uning nutq maqsadiga mos ravishda tayyorlanadi. Masalan, Men qiziq, sarguzasht kitoblarni sevaman gapidagi

kitoblarni so'zini olaylik. Undagi nutqiy lug'aviy ma'no uchun [kitob] leksemasi asos bo'lgan. Biroq leksemaning fonetik qiyofa (ya'ni tovushlar), morfologik belgilar (ko'plik, tushum kelishigi), sintaktik vazifa (so'z kengaytiruvchisi, tobe a'zo, to'ldiruvchi ekanligi) kabilar so'zlovchining individual say'-harakatlari asosida yuzagacha keltirildi. [kitob] leksemasi ongimizda «varaqlardan tashkil topgan, muqovalangan, bosma yoki qo'lyozma holdagi, davriy bo'lmagan o'quv quroli» va «yirik hajmli asarning qismi» kabi ikkita sememasi bilan tayyor va barqaror holatda turadi. Yuqoridagi gapda (nutqda) uning bir sememasi yuzaga chiqqan. Yuzaga chiqqanda ham to'liq yuzaga chiqmagan. Ushbu leksemaning ongimizda birikuv imkoniyatlari juda kengdir. Bu gapda u torgina - qiziq, sarguzasht birikuvchilarinigina biriktirgan. Boshqa valentlik o'rinlari bo'sh qolgan. Shuningdek, sememadagi «bosma» semasigina yuzaga chiqqan bo'lib, «qo'lyozma holdagi» semasi voqelanmagan. Leksemaning semantik imkoniyatida kitobning qandayligi - badiiyligi yoki ilmiyligi belgilanmaydi. Demak, u badiiy yoki ilmiy bo'lishi mumkin. So'zlovchi esa so'zda uning badiiyligini bo'rttirgan. Demak, leksema keng ma'noli bo'lib, so'zlovchi so'zda uning ma'lum bir qirrasinigina yuzaga chiqaradi. Lekin so'z boshqa tomondan so'zlovchi tomonidan boyitiladi. Ya'ni, aytilganidek, u fonetik, morfemik, sintaktik, uslubiy tomondan «to'yintiriladi».

Leksemalar so'zshakl sifatida, yasama so'z sifatida nutqda yuzaga chiqadi. Leksemani grammatik shakllantirish uni so'zshakl qiyofasiga kiritish (so'z va so'zshakl sinonim atamalardir, chunki nutqda grammatik shakllanmagan, so'zshaklga aylanmagan so'z yo'q) va undan nutqiy maqsad uchun ma'lum qoliplar asosida yasama so'zlar hosil qilish so'zlovchining «so'z tayyorlashi»dir. Ma'lumki, yasama so'zlarning ayrimlari nutq jarayonida yasaladi, ayrimlari esa bir vaqtlar yasalgan bo'lib, bugungi kunda ular hammamiz uchun tayyor holga kelib, tub leksemalar qatoriga chiqib olgan. Quyidagi uchta birlikni qiyoslang:

kitob

kitobxon

kitobchi

Bu birlikdan ikkitasi [kitob] va [kitobxon] ongimizda tayyordir. [kitobxon] leksemasi aslida yasama, ammo bugungi kunda u ongimizda shu holda, ya'ni yasama holda mavjud. Ammo kitobchi so'zi qandaydir g'ayrioddiylikka ega. Chunki u nutqiy yasama so'z bo'lib, leksemalar sirasiga o'tmagan. kitobchi so'zi ham, [ishchi] (worker, rabochiy) so'zi ham aslida [otQ chiqshu ot anglatmishi bilan shug'ullanuvchi shaxs oti] qolipi hosilalaridir. Ammo [ishchi] leksemasi bu qolipdan uzoqlashib, undagi o'zak va qo'shimcha qotgan holga kelgan, ya'ni bu leksema hozir yuz berayotgan nutqiy jarayonda yasalmagan. kitobchi so'zi esa mazkur qolip asosidagi, undan nutq jarayonida hosil bo'lgan nutqiy hosiladir. Demak, ayrim yasama so'zlar qolipdan chiqib, davr o'tishi bilan leksemalashib, tayyor holga kelib qoladi.

Leksemaning ongda paradigmatic va sintagmatik munosabatlar asosida yashashi. Leksemalar til jamiyati a'zolari ongida boshqa leksemalar bilan o'xshashlik qatorlari (paradigmalar) hosil qilgan holda mavjud bo'ladi. Masalan, [o'g'il] leksemasi bir tomondan [ota], [ona], leksemalari bilan, ikkinchi tomondan [qiz] leksemasi bilan paradigmalar hosil qilib yashaydi. Paradigmadagi bir a'zoning mohiyati unga paradigmadosh boshqa a'zoning mohiyatiga qiyosan olinadi, unga munosabatda bo'ladi. Masalan, [aka] leksemasi [uka], [singil], [opa] leksemalari bilan paradigma hosil qilar ekan, bunda ularning umumiy belgisi bu leksemalarni bir paradigmaga solsa, farqli belgilari ularning mustaqilliklarini ta'minlaydi. Lisoniy birliklar orasidagi bunday bir-biriga ishora qilib, eslatib turuvchi belgilar, munosabatlar assotsiativ munosabatlar ham deyiladi. [aka] leksemasining mohiyati [uka] leksemasining mohiyatiga qiyosan belgilanadi. Qiyos esa eslatish, eslash, yonma-yon qo'yish munosabatidir.

Leksemalar mohiyatida sintagmatik munosabatlar ham mujassamdir. Masalan, [daftar] leksemasi nutqda [yirtmoq], [yozmoq] leksemalari bilan bir tomondan, morfologik shakllar va so'z yasovchi qo'shimchalar bilan ikkinchi tomondan birikuvlar hosil qiladi. Bu voqelanish leksemada imkoniyat sifatida mavjud. Aytilgan birliklar bilan yuz bergan aloqalar leksemalar mohiyatida imkoniyat sifatida yashirindir.

So'zlovchi nutq jarayonida zarur bo'lgan birlikni o'xshash va farqli belgilari asosida paradigmadan tanlab, sintagmatik imkoniyatlari doirasida nutqda turli-tuman kombinatsiyalar hosil qiladi. Nutqda leksemalarning mohiyati to'la-to'kis hech qachon voqelanmaganligi kabi sintagmatik imkoniyatlarning ham faqat zaruri voqelikka aylanadi. Zero, dialektika uqtirganidek, mohiyat bir hodisada bus-butun yuzaga chiqmaydi, imkoniyat to'la voqelanmaydi. Nutqiy voqelanish ularning bir zarrasidir, xolos.

Leksema so'zdan boyroq va kengroqdir. Biroq so'z nutqda turli begona hodisalar – bevosita leksemaga aloqador bo'lgan lisoniy va aloqador bo'lmagan kontekstual hodisalar bilan «boyitilgan», nutqda voqelanish uchun shakllantirilgan bo'ladi. Leksemaning «boy»ligi «o'ziniki»dir. So'z esa, aytilganidek, o'ziga, o'z asosidagi leksemaga tegishli bo'lmagan boshqa nolug'aviy omillar - fonetik, morfologik, sintaktik uslubiy zotlar zarralarini o'ziga biriktirib, o'ziga tegishli bo'lmagan zarralar hisobiga «boyiydi».

Aytilganlar asosida leksema va so'zga ta'rif beramiz. Leksema ma'lum bir til jamiyati a'zolari ongida tayyor, umumiy va majburiy, shakl va ma'no birligidan iborat, yaxlitlangan, borliqdagi harakat, narsa-predmet, belgi, miqdor kabilarni bildiruvchi tushunchalar va munosabatlarni ifodalaydigan, nutqda so'zlarni va grammatik morfemalarni biriktiradigan lisoniy birlikdir. Leksemalarning va so'z yasash qoliplarining nutqda reallashgan aniq shakl va ma'noga ega bo'lgan muayyan ko'rinishi so'z deyiladi.

Leksikografiya. Tilshunoslikning lug'at tuzish masalalarini ilmiy tadqiq qiluvchi

va lug'at tuzish bilan shug'ullanuvchi sohasi leksikografiya (gr.lexikos-co'z, so'zga oid va grapho-yozaman) yoki lug'atchilik deyiladi. Maqsad va vazifalariga ko'ra leksikografiya ikkiga bo'linadi:

- a) ilmiy leksikografiya lug'atchilikning nazariy masalalari bilan shug'ullansa;
- b) amaliy leksikografiya bevosita lug'at tuzish ishlari bilan mashg'ul bo'ladi.

Leksikografiya muhim ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Bular quyidagilarda ko'zga tashlanadi:

ona tilini va boshqa tillarni o'rgatishga xizmat qiladi;

2) ona tilini tasvirlash va me'yorlashtirish vazifasini o'taydi;

3) tillararo munosabatlarni ta'minlaydi;

til leksikasini ilmiy tekshiradi va talqin qiladi;

Lug'atlar, avvalo, maqsadi va mo'ljaliga ko'ra ikkiga bo'linadi:

umumiy lug'atlar;

maxsus lug'atlar.

Umumiy lug'atlar keng o'quvchilar ommasiga, maxsus lug'atlar esa tor doiradagi kishilar-alohida soha mutaxassislariga mo'ljallangan bo'ladi.

Har ikkala tur lug'atlar ham o'z o'rnida yana ikkiga bo'linadi:

entsiklopedik lug'atlar;

filologik lug'atlar.

Demak, lug'atlarni umumiy entsiklopedik lug'atlar va maxsus entsiklopedik lug'atlar, umumiy filologik lug'atlar va maxsus filologik lug'atlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq va o'ng'aydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

10-Mavzu: O'zbek imo-ishora tilida lug'at tarkibining shakl va ma'no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi.

Reja:

1. Omonim va uning turlari.
2. Omoformalar va ularning turlari.
3. Sinonimlar va ularning turlari.
4. Paronimlar, antonimlar va ularning turlari.

Tildagi soʻzlarning maʼlum qismi shakl yoki maʼnosiga koʻra oʻzaro aloqador butunliklarni tashkil etadi. Bunday butunliklardagi soʻzlar ana shu xususiyatlariga koʻra ikki guruhni tashkil qiladi: 1) omonimlar, omoshakllar, omofonlar, omograflar va paronimlar shakliga koʻra; 2) sinonimlar, antonimlar esa oʻzaro mazmun uzviyligi yoki zidligiga koʻra alohida guruhga mansub boʻladi.

1. Omonimlar yunoncha “homos-bir xil, onoma-nom” soʻzlaridan olingan boʻlib, talaffuzi va yozilishi bir xil, ammo alohida maʼnolarga ega boʻlgan soʻzlardir. Bunday soʻzlar leksik omonimlar deyiladi. Masalan: kuya – hasharot, kuya – qozonning kuyasi. Omonimlar bir va bir necha turkumga mansub boʻlishi mumkin. Masalan: chang – gard va cholgʻu asbobi maʼnolari bilan ot turkumiga mansub; oʻt-olov, koʻkat kabi maʼnolari bilan ot soʻz turkumiga mansub, oʻt - feʼlining buyruq-istak mayli ekanligi kabilar shular jumlasidandir. Bir xil soʻz turkumiga mansub omonimlar turli grammatik qoʻshimchalar bilan shakllanganda ham ularda omonimlik saqlanib qoladi. Masalan: ot – ism va uy hayvoni maʼnolaridagi omonim soʻzlarga egalik, kelishik, koʻplik qoʻshimchalarini qoʻshish bilan omonimlikning saqlanib qolganini koʻrish mumkin: otlar, otning, otlarim. Bunday omonimlarni mutlaq omonim soʻzlar deb atash mumkin. Omonimlarni vujudga keltiruvchi hodisalar turlicha boʻlib, ularning asosiylari qoʻyidagilardir:

1. Oʻz qatlamga mansub boʻlgan baʼzi soʻzlar tarixan fonetik tuzilishi har xil boʻlsa ham talaffuzda shakldoshlik kasb etishi asosida omonimlarga aylanadi: ot (ism) - ot (hayvon) - ot (harakat); oʻt (oʻt-oʻlan) - oʻt (olov) - oʻt (harakat) kabi omonim soʻzlardagi **o** va **oʻ** unlilari tarixan oʻzining til oldi va til orqa shakllariga (allafonlariga) ega boʻlgan. Biroq, hozirgi adabiy tilda ular farqlanmaydi.

2. Koʻp maʼnoli soʻzlar oʻrtasidagi maʼno bogʻlanishning uzilishi, zaiflashishi asosida ham omonimlar shakllanadi. Masalan, koʻk soʻzi, dastlab, koʻk rang (sifat) tushunchasiga ega boʻlgan. Keyinchalik bu soʻz metafora (oʻxshashlik) asosida osmon tushunchasiga nisbatan ham ishlatila boshlagan. Hozir ular oʻrtasidagi bunday maʼno bogʻlanish yoʻqolib, omonim soʻz hosil boʻlgan. Xuddi shunday holatni dam soʻzining nafas, hordiq, harorat, bosqon maʼnolarida ishlatilishi misolida ham kuzatish mumkin.

3. Umumturkiy yoki asl oʻzbekcha soʻzlar oʻzga tillardan soʻz oʻzlashtirish asosida ham shakldoshlikka ega boʻlib qolishi mumkin. Masalan, **bogʻ** (*mevazor*) va **bogʻ** (*bogʻlangan narsa, beda bogʻi*); **tok** (*uzum novdasi*) va **tok** (*elektor toki*), **tom** (*uy tomi*) va **tom** (*kitob jildi*) soʻzlari oʻzbekcha-tojikcha hamda oʻzbekcha-rus va yevropa tillaridan oʻzlashgan soʻzlarning oʻxshash fonetik qiyofasi asosida yuzaga kelgan omonim soʻzlardir.

4. Maʼlum bir soʻzning oʻzak-negizidan qoʻshimchalar orqali yangi soʻzlar yasalishi natijasida shakldosh soʻzlar hosil boʻladi. Masalan: **oylik olmoq**, **oylik** reja birikmalaridagi oylik soʻziga qoʻshilgan **-lik** qoʻshimchasi asosida shakldosh soʻz

hosil bo'lgan. Ba'zan shakldoshlik nisbiy bo'lib, so'zlarning ma'nolari har xil bo'lgani holda aytilishi bir xil, ammo yozilishida bir oz farq bo'lishi yoki ba'zan ma'noli qismlarigina shakldosh bo'lsa ham, grammatik ma'nosi o'zgacha bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra shakldosh so'zlarning uch xil turi farqlanadi: 1) omoshakllar; 2) omofonlar; 3) omograflar.

8. Omofomalar ma'nolari har xil bo'lib, ba'zi grammatik shakllariga ko'ra bir xillikka ega bo'ladigan shakldosh so'zdir. Omofomalar ayni bir so'z turkumiga ham, boshqa-boshqa so'z turkumlariga ham mansub bo'lishi mumkin. Masalan, *oqar (oq tusga kir) - buyruq fe'li, II shaxs birlik; oqar ("oqadigan")* fe'lining kelasi zamon sifatdosh shakli; *yoz - ot*, bosh kelishik shaklida, *yoz - II shaxs birlikdagi buyruq fe'li* va boshqalar. Bu so'zlarga boshqa grammatik qo'shimchalar qo'shilganda bir-birlaridan tamomila ajralib, omonimlik yo'qoladi. Masalan: *oqaray, oqarsin - oqaradi, oqarsan; yozning, yozni, yozga, yozda, yozdan - yozay, yozgin, yozsin* kabi holatlarda omonimlik mavjud emas.

3. Omofonlar fonetik tarkibi ma'lum tovush bilan farqlanadigan, lekin talaffuzda shakldosh bo'lib qoladigan so'zlardir. Omofonlardagi o'zaro farq ular tarkibidagi bitta fonemada bo'ladi va ular, asosan, jarangli va jarangsiz juftliklar va hosil bo'lish o'rniga ko'ra yaqin bo'lgan tovushlarning talaffuzda bir xillik kasb etishida ko'zga tashlanadi. Masalan, *sud - sut, tanbur - tambur, tub-tup, yetdi - yetti* kabi so'zlar talaffuzi omofonlarni yuzaga keltiradi.

4. Omograflar yozilishi bir xil bo'lgan shakldosh so'zlardir. Omograflar ma'nosi va fonetik tarkibi, talaffuzi jihatidan boshqa -boshqa, faqat yozilish shakli jihatdan bir xil bo'lgan so'zlardir. Masalan, *tol - daraxt, qurilish jihozi, tok - elektr quvvati, uzum novdasi, to'r-xonaning yuqori qismi, parda* kabi ma'nolarga ega bo'lgan so'zlardagi o, o' tovushlari talaffuzda qattiq va yumshoqligi bilan farqlanadi, biroq yozilishiga ko'ra shakldoshlikka ega bo'ladi. Xullas, talaffuzi va yozilishi bir xil bo'lgan bunday shakldosh so'zlarni o'zak va grammatik qo'shimchalarining bir xilligi, bir turkumga mansubligi e'tibori bilan omograflar qatoriga qo'shish mumkin. Tildagi bu kabi shakldoshliklar so'z o'yini sifatida **tuyuq, askiya** san'atlarida asosiy o'rin tutadi.

5. Paronimlar. Paronimlar so'zlar yunoncha para-juft va onoma-nom so'zlaridan olingan bo'lib, fonetik tarkibi va ma'nosi boshqa-boshqa biroq talaffuz jarayonida o'xshash, yaqin bo'lgan so'zlardir. Demak, paronimlar birdan ortiq so'zning shakliy o'xshashligiga asoslanadi va bu hodisa ko'pincha so'zlarni adabiy normada to'g'ri talaffuz etmaslik, adabiy normaning buzilishiga ham olib keladi. Masalan, *fakt-pakt, afzal-abzal* so'zlari f undoshining p, b tarzda talaffuzi asosida yuzaga kelgan paronimlar bo'lib, ular aslida fonetik tarkibi va ma'no jihatdan farqlanuvchi so'zlardir: *fakt-dalil, isbot, pakt-davlatlar o'rtasidagi shartnoma, kelishuv hujjati* ma'nosidagi so'z; *afzal-qulay, ma'qul abzal* esa ot va boshqa ulov anjomi, to'qim va boshqa jihozlarning umumiy nomidir. Xuddi shuningdek, paronimlik holatni amr-

amir, zirak-ziyrak, jayron-jiyron, yondosh-yondash, quyilmoq-quyulmoq soʻzlari misolida koʻrish mumkin. Paronimlar tub yoki yasama soʻzlardan tarkib topgan boʻlishi mumkin. Masalan, fakt-pakt, burj-burch kabilar tub soʻzlar asosida shakllangan paronimlardir. Yasama soʻzdan esa bir oʻzaklardan bir xil qoʻshimchaning fonetik variantlarini qoʻshish asosida hosil boʻladi: yoriq-yorugʻ, qurit-qurut, oqlik-oqliq, otalik-otaliq. Paronim soʻzlar oʻz va oʻzlashma soʻzlar asosida vujudga kelishi mumkin: aro-oro (oʻzbek va fors-tojik), burch-burj (oʻzb. va arab). Paronimlar ham antonimlar singari har doim juft soʻz shaklida tuziladi, biroq ular bir xil va har xil soʻz turkumlariga mansub boʻlishi mumkin. Paronimiya baʼzi til hodisalariga yaqin boʻlib, ulardan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

1. Paronimlar soʻz variantlari (leksik dubletlar) bilan yondosh hodisadir. Ular ham ayrim tovush orqaligina farqlanib, talaffuz oʻxshashligiga ega boʻladi. Shu bois baʼzan paronimlar mazkur hodisa bilan chalkashtirilishi mumkin. Masalan, adabiy tildagi *tomosha* soʻzining baʼzan *tomosho*, *tamosho* tarzda ikki xil variantda fonetik jihatdan buzib ishlatilishi orqali uning talaffuz dubleti hosil boʻladi. Shuningdek, ayrim soʻzlarning turlicha variantlarda ishlatilishi adabiy meʼyor sifatida qabul qilingan: *gado-gadoy*, *demak-demoq*, *obroʻ-obroʻy*, *nogoh-nogah*, *yiqilabermoq-yiqilavermoq* kabi juftliklar, shular jumlasidandir. Xullas, tilshunoslikda variantlilik, soʻz variantlari va leksik dubletlar kabi turlicha terminlar asosida nomlangan bu hodisa, paronimlardan farqli ravishda, bitta soʻzning ogʻzaki va yozma nutqda turlicha shakllarda qoʻllanishidir.
2. Paronimlar bilan yondosh hodisalardan yana biri omofonlardir. Bu ikki hodisaning asosiy oʻxshash va farqli tomonlari quyidagilarda koʻzga tashlanadi: a) monosillabik (bir boʻgʻinli) oʻzlashma soʻzlardan tarkib topgan baʼzi paronimlardagi undoshlarning talaffuz oʻrni va usuliga koʻra bir xilligi ularni omofonlarga yaqinlashtiradi. Masalan: burch-burj, dars-darz, qars-qarz. Biroq aksariyat paronimlarda bunday undoshlar jarangli-jarangsiz juftlik boʻlmay, hosil boʻlishi oʻrniga koʻra oʻxshashlikka asoslanadi. Masalan fakt-pakt, abzal-afzal. Omofonlarda esa artikulyatsiya oʻrni va usuliga koʻra bir xil boʻlgan undoshlar har doim soʻz oxirida uchraydi va talaffuzda aynan ana shu juftliklar omofonlikni yuzaga keltiradi. Masalan: top-tob tub-tup, mard-mart, yod-yot kabilar shular jumlasidandir; b) koʻp boʻgʻinli soʻzlardan tarkib topgan paronimlarda esa paronim juftliklar oʻzaro nooʻxshash fonema vositasida ajralib turadi va shu jihatiga koʻra omofonlardan farqlanadi: ahil-ahl, otalik-otaliq, yoriq-yorugʻ, qurut-qurit kabilar shular jumlasidandir.
6. Sinonimlar (yunoncha synonimon-bir xil nomli soʻzidan olingan) fonetik tarkibi har xil, maʼnolari bir xil yoki bir-biriga yaqin boʻlgan soʻzlardir. Maʼnodoshlikning soʻzlar asosida yuzaga kelgan turi leksik (lugʻaviy) sinonimlar deyiladi. Masalan, nomus - vijdon, dangasa - yalqov - ishyoqmas – tanbal soʻzlari leksik sinonimlardir. Bunday soʻzlar, odatda, bir xil soʻz turkumiga mansub boʻladi. Ularning bir umumiy maʼno doirasida bogʻlanishi esa, sinonimik qator deb yuritiladi. Masalan, vaqt-payt-

zamon-fursat-mahal-chog'-kez-mavrid-palla- muddat-dam so'zlari o'zaro sinonimik qator hosil qilgan. Sinonim qator tuzishda asos qilib olingan so'z dominanta (bosh so'z) deb yuritiladi. Dominanta odatda uslubiy jihatdan betaraf va umumiste'mol so'zlaridan bo'lib, sinonim so'zlar lug'atida birinchi o'rinda beriladi. Masalan, yuz - bet - aft - bashara - turq - chehra - oraz - ruxsor sinonimik qatoridagi yuz so'zi betaraf - dominanta bo'lib, aft, bashara turq salbiy, oraz, chehra, ruxsor esa ijobiy munosabat ifodalash uchun xizmat qiladi. Sinonimlarni yuzaga kelishida **polisemantik** so'zlarning ishtiroki ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, polisemantik so'z o'zining har bir ma'nosi bilan boshqa-boshqa sinonim qatorida ishtirok etib, uni boyitadi. Masalan: **balo-falokat-ofat; balo-uddaburon-bilog'on-ishbilarmon** kabi ma'nodoshlik qatorida balo so'zi o'z va ko'chma ma'nosi bilan ishtirok etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

11-Mavzu: O'zbek imo-ishora tili leksikasida o'zlashgan qatlam.

Reja.

1. O'zbek imo-ishora tili leksikasida o'zlashgan qatlam haqida tushuncha.
2. O'zbek imo-ishora tili leksikasida o'zlashgan qatlam turlari.

Hozirgi o'zbek tili leksikasi tarixiy jihatdan ikki qatlamga ajratiladi: 1. O'z qatlam. 2. O'zlashgan qatlam. O'z qatlam. O'z qatlamga umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar kiradi. 1. Umumturkiy so'zlar. Ko'pchilik turkum xalqlar tilida qo'llanadigan, barcha turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar umumturkiy so'zlar deyiladi. Bu so'zlar turkiy qabilalarning goh qo'shilishi, goh ajralishi natijasida yuzaga kelgan, hozirda turkiy xalqlar deb nomlanadigan kishilar tiliga mansub so'zlardir. Oltoy tillar oilasining turkiy guruhida (turkumida) 24 ta til: o'zbek, qozoq, uyg'ur, boshqird, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, ozarbayjon, no'g'oy, tatar, chuvash, yoqut, tuva, shor, qoraim, qo'miq, gagauz, xakas, balqar, oyrot,

karagas, turk, qorachoy, oltoy turklari tillari mavjud. Umumturkiy soʻzlar hozirgi oʻzbek tili leksikasining asosiy qismini, deyarli yarmini tashkil qiladi. Umumturkiy soʻzlar turli sohalarga oid boʻlib, ularga narsa-shaxs, belgi, miqdor, harakat, his-tuygʻu bildiradigan soʻzlar kiradi: kishi, oyoq, qoʻl, bosh, koʻz, qosh, qizil, koʻk, yashil, oq, bir, ikki, uch, toʻrt, oʻn, kel, tur, yot, oʻtir, ol, ur, yaxshi, yomon, sen, u, biz, siz, ular, asta, sekin, tez kabi.

2. Oʻzbekcha soʻzlar. Oʻzbek tili sharoitida oʻzbek tili va boshqa til elementlari asosida yaratilgan soʻzlar oʻzbekcha soʻzlar deyiladi. Oʻzbekcha soʻzlar oʻzbek tilining oʻz ichki imkoniyatlari asosida, oʻz qonuniyatlari asosida yaratiladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1. Asli oʻzbekcha soʻzlarga shu tildagi soʻz yasovchi qoʻshimchalar yordamida hosil qilingan soʻzlar: ter+im+chi, bir+lash+ma, qoʻl+lan+ma, oʻt+kaz+gich, tur+gʻun, bola+larcha.
2. Boshqa tildan oʻzlashgan soʻzlarga oʻzbek tilidagi yasovchi qoʻshimchalarni qoʻshish bilan yasalgan soʻzlar:
 - a) tojikcha soʻzlardan yasalgan soʻzlar: mard+lik, jang+chi, doʻst+lik, pul+siz;
 - b) arabcha soʻzlardan yasalgan soʻzlar: rahbar+lik, qimmat+li, shifo+la+moq, nifoq+chi, nomus+li;
 - v) ruscha-internotsional soʻzlardan yasalgan soʻzlar: sport+chi, razvedka+chi, beton+la+moq, ekskavator+chi.
3. Boshqa tillardan kirgan yasovchi qoʻshimchalar yordamida oʻz va oʻzlashma soʻzlardan hosil qilingan soʻzlar: til+shunos, mehnat+kash, chizma+kash, kitob+xon, ilm+iy, vagon+soz va boshqalar. Oʻzlashgan qatlam. Hozirgi oʻzbek tilining lugʻat tarkibiga tarixiy sabablarga koʻra boshqa tillardan koʻplab soʻzlar kirib kelgan. Oʻzbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlar oʻzlashgan soʻzlar (olinma soʻzlar) deb yuritiladi. Oʻzlashgan soʻzlar uygʻur, tojik, arab, rus, nemis, frantsuz, ispan, ingliz va boshqa tillarga oid. Oʻzbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlarni quyidagi qatlamlarga boʻlish mumkin:

1. Tojikcha soʻzlar: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, mirob, dasta, bemor, gʻisht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, mard, kam, chala, balki, agar, ham kabi.
2. Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar. Arabcha soʻzlar oʻzbek tiliga VII-VIII asrlardan boshlab kirgan. Bu hol arablarning Markaziy Osiyoni bosib olishi bilan bogʻliq. Kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, maʼno, ilhom, kasb, qassob, sanʼat, asbob, bino, imorat, ovqat, gʻalla, fil, parranda, hasharot, inson, odam, oila, amma, xolla, dimogʻ, idora kabi.
3. Ruscha-internotsional soʻzlar. XIX asrning 2-yarmidan Markaziy Osiyo, jumladan, Oʻzbekiston chor Rossiyasining mustamlaka mamlakatiga aylandi. Rus tilining oʻzbek tiliga taʼsiri shu davrdan boshlandi. Rus tilidan, rus tili orqali boshqa tillardan koʻplab soʻzlar oʻzlashdi. Oʻzbek tiliga rus tilidan va rus tili orqali Evropa xalqlari tillaridan (frantsuz, italyan, nemis, ingliz, ispan) soʻz kirishi ikki tarixiy davrni oʻz ichiga oladi:
 1. XIX asrning 2-yarmidan XX asrning boshlarigacha boʻlgan davr.
 2. 1917 yildan keyingi davr. Rus tilidan soʻzlar ikki yoʻl bilan oʻzlashdi:
 1. Rus ishchilari, ustalari, rus askarlari, chinovniklarining mahalliy aholi bilan turli xildagi aloqalari bilan ogʻzaki nutq orqali: chilon (chlen), adbakat (advokat), apisor (ofitser), iskalat (sklad), axran (oxrana), choynay (choynak) kabi.
 2. Matbuot orqali: ayrapilan (aeroplan), pabrik (fabrika), poʻshta (pochta), zovut (zavod), uez (uezd),

kredit (kredit), banka (bank), veksil (veksil) kabi. Rus tili orqali kirgan soʻzlarning baʼzilari dunyodagi koʻpgina xalqlarning tilida tovush tomoni deyarli oʻzgartirilmay ishlatiladigan xalqaro soʻzlardir. Ular, odatda, internotsional (baynalminal) soʻzlar deb yuritiladi. Oʻzbek tiliga oʻzlashgan internotsional soʻzlar tarixiy jihatdan quyidagi tillarga mansub: 1. Rus tiliga: судья, samolyot, stol, stul, tok, ruchka kabi. 2. Lotin tiliga: reviziya, nota, metall, refleks, rezina, general, kapital, kanal, plan, direktor, radio kabi. 3. Grek tiliga: grammatika, pedagog, talant, tezis, kafedra, poeziya, poema, metr, neft, taktika, parallel kabi. 4. Nemis tiliga: raketa, kran, shaxta, rolik, politsiya kabi. 5. Ingliz tiliga: chempion, futbol, dollar kabi. 6. Frantsuz tiliga: roman, palto, serjant, ministr, bank kabi. Rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan soʻzlar ijtimoiy-siyosiy hayotga, sanoat, qishloq xoʻjaligi, fan-texnika, madaniy-oqartuv, sanʼat, savdo, sport, harbiy sohaga doir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // оʻquv qoʻllanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Poʻlatova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

12-Mavzu: Oʻzbek imo-ishora tilida qoʻllanishi chegaralanmagan va chegaralangan leksika.

Reja.

1. Oʻzbek imo-ishora tilida qoʻllanishi chegaralanmagan va chegaralangan leksika turlari.
2. Oʻzbek imo-ishora tilida qoʻllanishi chegaralanmagan va chegaralangan leksika uning hususiyatlari.

Oʻzbek tili leksikasi shu tilda gaplashuvchi kishilar tomonidan bir xilda qoʻllanmaydi. Ayrim soʻz keng jamoatchilik tilida qoʻllansa, baʼzilari esa maʼlum territoriyada yashovchi yoki maʼlum kasb-hunar bilan shugʻullanuvchi kishilar nutqida ishlatiladi. SHunga koʻra oʻzbek tilidagi soʻzlar ikki guruhga ajratiladi: 1. Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika. 2. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika. Oʻzbek tili lugʻat tarkibining asosiy qismini ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika tashkil etadi. Oʻzbek tilida gaplashuvchi barcha kishilar tilida qoʻllanadigan soʻzlar ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksika deyiladi.

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksikadan yashash joyi, kasbi, hunari, jinsi, madaniy saviyasidan qat'iy nazar barcha o'zbek millatiga mansub kishilar foydalanadi, shunga ko'ra ular umumiste'moldagi so'zlar deb ham yuritiladi. Umumiste'moldagi so'zlarning ma'nosi hammaga tushunarli bo'ladi. Bu so'zlar ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, barcha so'z turkumlariga oid bo'ladi. Umumiste'moldagi so'zlarning ko'p qismini umumturkiy so'zlar va o'zbekcha so'zlar tashkil etadi. Boshqa tillardan kirgan so'zlar ham o'zbek xalqining barchasiga tushunarli bo'lsa, ular ishlatilish doirasiga ko'ra chegaralanmaydi. Masalan, arab tilidan o'zlashgan shamol, soat, inoq, dohiy, mag'rur, hafa, maqol, hayot, millat, hikoya so'zlari; tojik tilidan o'zlashgan go'sht, non, sozanda, suhbat, sabzavot, ombur kabi so'zlar; rus tili va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan traktor, kino, teatr, tsirk, kartoshka, fabrika, zavod kabi so'zlar umumxalq tilida qo'llanadi. Demak, ishlatilish doirasi chegaralanmagan so'zlar o'z qatlamga ham, o'zlashgan qatlamga ham oid bo'lishi mumkin. Ishlatilish doirasi chegaralangan leksika. Tildagi so'zlarning umumxalq tomonidan ishlatilmaydigan qismi ishlatilish doirasi chegaralangan leksika deyiladi. Bunday so'zlarning ishlatilishi ma'lum sabablarga ko'ra chegaralangan bo'ladi. Ishlatilish darajasi chegaralangan leksikaga dialektal so'zlar, atamalar, jargon va argolar kiradi. Dialektal leksika ishlatilish territoriyaga ko'ra chegaralangan so'zlar bo'lib, ular adabiy tilga kirmaydi. Ma'lum bir xududdagi kishilar nutqida qo'llanib, ulargagina tushunarli bo'lgan so'zlar sheva so'zlari deyiladi. Sheva so'zlari yig'indisi dialektizm deb yuritiladi. Dialektizm – grekcha so'z bo'lib, dialektos – «tilning mahalliy ko'rinishi» demakdir. SHuning uchun dialektizm umumtilning mahalliy ko'rinishi bo'lgan dialektlarga xosdir. Misollar: qorinja (chumoli), g'o'z (yong'oq), karvich (g'isht) – Xorazm; norbon (narvon), bodrak (varrak), poku (ustara) – Buxoro; mishiq (mushuk) - Farg'ona; inak (sigir), mo'rcha (chumoli), pishak (mushuk) - Samarqand shevasida. Shevadagi ba'zi so'zlar adabiy tilda ham bo'lishi mumkin. Lekin ular boshqaboshqa ma'nolarni bildiradi. Masalan: kosa so'zi Xorazm shevasida «piyola» ma'nosini, adabiy tilda «suyuq ovqat soladigan idish», lagan so'zi Xorazm shevasida kir yuvadigan tog'ora, adabiy tilda «quyuq ovqatlarni soladigan idish» ma'nosini bildiradi. Yozuvchilar badiiy asarda mahalliy koloritni berish, qahramonning nutqini individuallashtirish, uning qaeerlik ekanini, tilidagi xususiyatlarni ko'rsatish maqsadida sheva so'zlardan foydalanadi. Kasb-hunar leksikasi. O'zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunar bilan shug'ullanib keladi. SHuning uchun O'zbekistonda kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etgan. Jumladan, kulochilik, qashshoqlik, kashtachilik, duradgorlik, terimchilik, ovchilik, chorvachilik, kosibchilik va hokazolar shular sirasiga kiradi. Turli kasb-hunarga doir so'zlar kasb-hunar leksikasi deyiladi. Hozirgi o'zbek tili leksik tarkibida kasbhunarga doir so'zlarga boy. Masalan: kulolchilikda dog'chil (xum yasashda ishlatiladigan asbob), aspak yoki ob yog'och, bandak, bog'ich (idish chetini tekislash uchun ishlatiladigan latta, charm yoki kigiz parchasi) kabi so'zlar, suvoqchilik sohasida bozi (tokcha yoki), andava (asbob), loykash (kishi), mola

gazcho`p (asbob) kabi maxsus so`zlar bor. Ular shu hunar egalari tilida qo`llanadi va ular uchun tushunarlidir. Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning mehnat faoliyatini ko`rsatishda kasb-hunarga doir so`zlardan foydalanadilar. Atamalar. Fantexnika, xalq xo`jaligi, qishloq xo`jaligiga doir ilmiy tushunchalarni aniq ifodalaydigan so`zlar atamalar deyiladi. Fan-texnika va ishlab chiqarish sohasida qo`llanadigan terminlarning jami terminologiya (terminologik leksika) deb yuritiladi. Masalan: fonetika, leksika, morfologiya, morfemika, sintaksis – tilshunoslikka oid; kvadrat, ildiz, teorema – matematikaga doir; sifatlash, o`xshatish, jonlantirish – adabiyotshunoslikka doir atamalardir. Hozirgi kunda dunyoda fanning 500 dan ortiq tarmoqlari bor, ular har tomonlama taraqqiy etmoqda. Bu tilda atamalarning boyib borishiga olib keladi. Atamalar ilmiy nutqda qo`llanadi va ular bir ma`noli bo`ladi. Ba`zi atamalar o`zbek tilida so`zlashuvchi barcha kishilar nutqda qo`llanib ommalashib ketishi mumkin. Bunda ular ishlatilish doirasi chegaralanmagan umumxulq so`ziga aylanadi. Masalan, o`qituvchi, kitob, daftar, dars kabi. Jargon va argolar. O`tmishda xalqni ekspluatatsiya qiladigan sinf vakillari, saroy ahllari, mansabdor shaxslar, savdogarlar, qalandar, maddohlar, xalqni aldab yuruvchi gadoylar, o`g`rilar, firibgarlar o`z niyatlarini xalqdan yashirish uchun o`zlariga tushunarli so`z va iboralardan foydalanganlar. Tilda sinfiy ayirmalikni ko`rsatib turadigan bunday so`zlar «sinfiy dialektning so`zlari» - jargonlar deb yuritiladi. Ayrim ijtimoiy guruhlar tomonidan yaratilib, umumxalq tilidan farq qiladigan dabdabali so`z va iboralar jargonlar deyiladi. Masalan, oftobi olam (podsho), husni mutlak (xudo), nishoni oliy mon, shoe` qiling (bildiring), mal huz emas (mulohaza qilingan emas), ne`mati jannat (yor, mahbuba), shavaqqu` aylang (umid bilan kuting), tanzil (foйда). O`g`rilar, qimorbozlar orasida qo`llanadigan so`zlar argolar deb yuritiladi; loy (pul), xit (militsoner), bedana (to`pponcha), xitola (o`g`irla), zamri (jim tur), atamri (gapir), atanda (qoch) kabi. Qadimda savdogarlarning, otarchilarning ham argolari bo`lgan: yakan (pul), joyi (yo`q), xasut (non), dax (yaxshi, durust) – otarchilar argosi; sar yoki sari piyoz (ming so`m), saru nimsar (bir ming besh yuz so`m), kapara (olti ming so`m).

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о`quv qo`llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po`latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайсева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

13-Mavzu: Ifodaviylik va uslubiy xoslanganlik nuqtayi nazaridan O'zbek imo- ishora tili leksikasi.

Reja.

1. Hissiylik bo'yoqdorlik jihatidan o'zbek tili leksikasi.
2. Uslubiy xoslanganlik jihatidan o'zbek tili leksikasi.

Tayanch so'z va iboralar: hissiy bo'yoqsiz so'zlar, hissiy bo'yoqdor so'zlar, uslubiy betaraf so'zlar, uslubiy xoslangan so'zlar.

Til nafaqat axborot uzatish vazifasini, balki shu bilan birgalikda, axborot uzatuvchining axborotga hissiy munosabatini ham ifodalaydi. Lisoniy tizimda bu hissiy munosabatni tashuvchi turli vosita mavjud. Ulardan biri leksemdir. Ana shu jihatidan o'zbek tili leksemalari bo'yoqsiz va bo'yoqdor qatlamga bo'linadi. Bo'yoqsiz leksika. O'zbek tili lug'at tarkibidagi leksemaning ko'pchiligi so'zlovchining hissiy munosabatini ifodalovchi bo'yoqdan xoli bo'ladi. Bunday birlik bo'yoqsiz leksema. Masalan, [bor], [yo'q], [katta], [mazali], [daryo], [urmoq], [chiroyli], [tez], [husn] kabi leksemalar borliq hodisalarini boricha aks ettiradi va unga so'zlovchining munosabatini ifodalamaydi. Boshqacha aytganda, bo'yoqsiz leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semalari nol' darajada bo'ladi. Biroq bu leksemaning bo'yoqsizligi nisbiy, ya'ni faqat lisonda. Nutqda har qanday bo'yoqsiz leksema ham bo'yoq kasb etishi mumkin. Masalan, [katta] leksemasining lisoniy mohiyati - sememasi bo'yoqsiz. Biroq u nutqda boshqa nolug'aviy tajallilar bilan qorishib, bo'yoq kasb etadi. Dengiz k-a-tta edi gapida fonetik tajalli ta'sirida [katta] leksemasi bo'yoqdor nutqiy birlikka aylangan. Bo'yoqdor leksika. Bunday leksemaning kishi hissiy munosabatini ifodalovchi ifoda semasi bo'rtib turadi: [ulkan], [badnafs], [qiltiriq], [oniy], [tashrif], [oraz], [yovqur], [mahliqo], [badbashara] va h. Bo'yoqdor leksemaning ifodaviyligi ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. SHunga ko'ra bo'yoqdor leksemalar ijobiy bo'yoqdor leksema va salbiy bo'yoqdor leksemaga bo'linadi. Ijobiy bo'yoqdor leksema so'zlovchining borliq hodisasiga ijobiy munosabatini ifodalaydi va ular sememalarida tegishli ifoda semalari ijobiy bo'ladi. Misollar: 1. Onam deganimda, oqsoch, jafokash munis va mehribon 154 chehrang bo'lar namoyon (G'.G'ul.). 2. U hamisha kulib, jilmayib turadigan mehribon chehrani ko'rmadi (M.Ism.). 3. Orazin yopqoch, ko'zimdan sochilur har lahza yosh (Nav.) Salbiy bo'yoqdor leksema borliq hodisasiga so'zlovchining salbiy munosabatini ifodalaydi va ular sememasida salbiy munosabatni ifodalovchi sema bo'rtib turadi. Misollar: 1. So'ngra yakkam-dukkan iflos tishlarini yashirgan og'zini katta ochib esnadi, go'yo uning butun badburush yuzini og'iz qopladi (Oyb.) 2. U bir ko'ngli borib, muttahaq qozining tumshug'iga tushirgisi, yo iflos basharasiga tupurgisi keldi. (M.Ism.) Ijobiy bo'yoqdor leksema nutqda salbiy bo'yoqdor leksema o'rnida voqelanishi mumkin. 1. Jamolingizni ("basharangizni" ma'nosida) boshqa ko'rmay! 2. Rosa xursand qildingiz ("xafa

qildingiz” ma’nosida). Leksemaning ijobiy va salbiy bo‘yog‘ini ijobiy va salbiy ma’nodan farqlash kerak. Masalan, [yaxshi] leksemasi ijobiy ma’noga ega, ammo uning ifoda semasi bo‘yoqdorlikni ko‘rsatmaydi, ya’ni u bo‘yoqsizdir. [xunuk] salbiy ma’noga ega bo‘yoqsiz leksema. Uslubiy xoslanganlik jihatidan o‘zbek tili leksikasi Leksema nutq uslubiga munosabatiga ko‘ra uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan turlarga ajraladi. Uslubiy betaraf leksika. Uslubiy betaraf leksema barcha uslublarda birdek va bab-baravar ishlatilaveradi va uning ifoda semalarida uslubga munosabat «uslubiy betaraf» deb beriladi: [kel], [bor], [o‘t], [ket], [kitob], [qalam], [stol], [mashina], [oq], [qora], [tez], [sovuq], [faqat], [lekin] va h. Lekin nutqda ko‘chma ma’noda ishlatilganda, bu ma’nosi bilan ayrim uslubga xoslanib qoladi. Masalan, [sovuq] leksemasi «xunuk» ma’nosida (sovuq rangli) faqat so‘zlashuv yoki badiiy uslubga xos. Uslubiy xoslangan leksika. Uslubiy xoslangan leksikani uchga bo‘lish mumkin: a) kitobiy leksika; b) badiiy leksika; v) so‘zlashuv leksikasi. Ilmiy, rasmiy va publitsistik leksikaga mansub birliklar umumlashtirilib, kitobiy leksika deb yuritiladi: ilmiy leksikaga oid birlik: [integral], [meridian], [tangens], [olmosh], [bo‘lish], [ko‘paytirish]; rasmiy leksikaga oid birlik: [bayonnoma], [buyruq], [farmon], [qo‘mita], [sessiya], [tashkilot]; publitsistik leksikaga oid birlik: [jangovar], [mafkura], [ilg‘or], [ittifoq], [jahon], [afkor]. Bunday leksemaning uslubga xoslikni ko‘rsatuvchi ifoda semasi «ilmiy nutqqa xos», «rasmiy nutqqa xos», «publitsistik nutqqa xos» deb belgilanadi. Badiiy leksikaga ifoda semalari sirasida «badiiy nutqqa xos» semasi mavjud, badiiylik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan leksik birliklar kiradi: Mehnat bilan topadi iqbol (YO.Mirz.). Uning odobida, uning xulqida, insoniy kamolot mavjud, barqaror (Uyg‘.). Tabiatan serzavq va har narsaga qiziquvchi bo‘lgan Sodiq uchun har hunar zavq baxsh etar, ko‘nglini ko‘tarar, sog‘lig‘ini saqlardi (SHuhr.). Kundan kunga 155 yashnamoqda ko‘rking, jamoling. (/ayr.) Bahorning fikri bulut bosgan osmonday qorong‘ilashdi-yu, ko‘z oldini tuman chulg‘adi (SH.Rash.). YAxshi qoling, sevgan yurtu diyorum (Hamz.). Badiiy nutqda ilmiy, rasmiy, publitsistik va so‘zlashuv uslubiga xos birlik ham bemalol ishlatilaveradi. So‘zlashuv leksikasiga oddiy so‘zlashuv nutqiga xos, erkin muomalada qo‘llaniladigan, adabiy til uchun me’yor bo‘lmagan leksema kiradi: [ketvorgan], [po‘rim], [qitday], [mullajiring] kabi. Misollar: O‘ylab ko‘rsam, sarkotib odamga shundan bop sovg‘a yo‘q ekan. Ruchkaning poshshaxoni, perosi oltindan (N.Saf.). SHomahdievning qilig‘i ma’lum: jahli chiqib bir sannab ketsa, uning chakagini bosish asov tuyani cho‘ktirishdek mashaqqat (A.Muhid.). Qizlaringizni jerkiysiz, so‘kasiz... Xo‘sh, nima uchun To‘lani yumshoq paxtaga o‘rab papalaysiz?! (M.Ism.) Jillaqursa juvoldiz bilan qarashay dedim (Oyb.). enang besh-o‘n tanga pul so‘rab yubordi. Bo‘lsa, chiqarib ber, boyoqishlar chaynab tursin. (Oyb.) Maza qilib kartoshkani tushirib tursang... (Say.) So‘zlashuv leksikasiga kiradigan leksemaning tegishli ifoda semasi «so‘zlashuv nutqiga xos» deb yuritiladi. Leksemaning uslubiy xoslanganligi ularning boshqa bir uslubda qo‘llanmasligidan dalolat bermaydi. Masalan, so‘zlashuv uslubi erkin uslub sanaladi va unda boshqa

uslub unsurini bema'lol ishlatish mumkin. Ammo leksemani ma'lum bir uslubda qo'llash nutq me'yoriga muvofiq bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

14-Mavzu: Frazeologiya.

Reja.

1. Ibora haqida tushuncha.
2. Iboraning semantik tarkibi.
3. Iboralarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari.

Ibora haqida tushuncha Frazeologiya (gr. phrasis-ifoda va logos-ta'limot) atamasi ikki ma'noda ishlatiladi: 1) til frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi; 2) shu tilning frazeologizmi majmui. Frazeologiyaning o'rganish predmeti frazeologizmning tabiati va substantsional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: [tepa sochi tikka bo'ldi], [sirkasi suv ko'tarmaydi], [o'takasi yorildi], [do'ppisi yarimta], [ikki gapning birida], [boshga ko'tarmoq] va boshqa. Frazeologizm ibora, frazeologik birlik, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamaları bilan ham yuritiladi. Frazeologiya leksikologiya bo'limining tarkibiy qismidir. Frazeologizm tashkil etuvchisiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi. Biroq ular ko'proq qo'shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologizm lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi. Frazeologizm lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi - bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: 1. Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi. (P.Tur.) 2. Stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi. (S.Zun.) 3. Qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan bunday hodisalar hali ham onda-sonda ro'y berib turibdi. 4. Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak. (As.Mux.) 1- va 2- gaplarda

frazeologizmlar gap markazi – kesim mavqeida, 3- gapda so‘z kengaytiruvchisi aniqlovchi va 4- gapda butun bir egasiz gap vazifasida kelgan. Frazeologizm tashqi ko‘rinishi jihatidan so‘z birikmasi yoki gap ko‘rinishida bo‘ladi. So‘z birikmasi ko‘rinishidagi frazeologizm: [ko‘ngli bo‘sh], [enkatinkasini chiqarmoq], [jig‘iga tegmoq], [bel bog‘lamoq], [kir izlamoq], [terisiga sig‘may ketmoq] va h. Gap tipidagi frazeologizm «gap kengaytiruvchisi+kesim» qolipi mahsuli: [istarasi issiq], [ichi qora], [labi-labiga tegmaydi], [ko‘ngli ochiq], [tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq], [kapalagi uchib ketdi], [po‘konidan el o‘tmagan], [tepa sochi tikka bo‘lmoq] va h. Ayrim leksik birliklar frazeologizmning tadrijiy taraqqiyoti mahsulidir: [dardisar], [toshbag‘ir], [boshog‘riq]. Demak, leksema hosil bo‘lish manbalaridan biri – frazeologizm. Frazeologizm, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so‘z turkumiga mansub. 157 Fe‘l turkumiga mansub frazeologizmlar: [me‘dasiga tegmoq], [yaxshi ko‘rmoq], [holdan toymoq], [sabr kosasi to‘lmoq], [tepa sochi tikka bo‘lmoq], [og‘ziga talqon solmoq], [podadan oldin chang chiqarmoq]. Sifat turkumiga mansub frazeologizm: [ko‘ngli bo‘sh], [rangi sovuq], [yuragi toza], [avzoyi bejo], [dili siyoh], [kayfi buzuq]. Ravish turkumiga mansub frazeologizm: [ipidan-ignasigacha], [ikki dunyoda ham], [miridan-sirigacha], [ha-hu deguncha]. So‘z - gaplarga mansub frazeologizm: [turgan gap], [shunga qaramay], [katta gap]. Frazeologizmlar tilshunosligimizda muayyan so‘z turkumi bo‘yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyati etarli darajada o‘rganilmagan. Frazeologizm leksik birlik kabi qo‘llanish darajasi nuqtai nazaridan ham tasnif qilinadi. Bunga ko‘ra umumiste‘mol frazeologizmi ([holdan toymoq], [shunga qaramay], [ro‘yobga chiqmoq]) va qo‘llanilishi chegaralangan frazeologizm farqlanadi. Qo‘llanilishi chegaralangan frazeologizm qo‘llanilish davri (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy, badiiy so‘zlashuv) bilan ham ma‘lum bir tafovutlarga ega: - eskirgan frazeologizm: [alifni kaltak demoq], [aliflayloni bir cho‘qishda qochiradigan], [dastin aliflom qilib, kallasini ham qilib], [eng silkitmoq]; - dialektal frazeologizm: [alag‘da bo‘lmoq] (xavotir olmoq), [ko‘ngli tob tashladi] (ezildi), [halak bo‘lmoq] (ovora bo‘lmoq), [qumortqisi quridi] (intiq bo‘lmoq); - ilmiy frazeologizm: [nazar tashlamoq], [ko‘zga tashlanmoq], [chambarchas bog‘lanmoq], [to‘g‘ri kelmoq], [imkoniyatlar doirasi], [qulay qurshov]; - badiiy frazeologizm: [sabr-kosasi to‘lmoq], [og‘zining tanobi qochmoq], [og‘zidan bodi kirib, shodi chiqmoq], [qildan qiyiq axtarmoq], [six ham kuymasin, kabob ham], [boshida yong‘oq chaqmoq]; - co‘zlashuv nutqi frazeologizmi: [arpasini xom o‘rmoq], [erga urmoq], [yuragi qon], [ko‘zi tor], [ko‘zi och], [boshi ochiq]. Frazeologizmning aksariyati badiiy va so‘zlashuv nutqiga xos. Iboraning semantik tarkibi Frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik bo‘lib, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmning shakliy tomonini so‘z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma‘nodir. Frazeologik ma‘no o‘ta murakkab tabiatli, leksemada bo‘lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo‘lsa, boshqalari grammatik ma‘noga ega, xolos. Masalan, mustaqil so‘z

turkumiga kiruvchi frazeologizm: (burgaga achchiq qilib, ko'rpaga o't qo'ymoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq; ko'ngli bo'sh; hash-pash deguncha) denotativ ma'noga ega bo'lsa, turgan gap, shunga qaramay kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi. Odatda, frazeologizmning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol sifatida [yoqasini ushlamoq] frazeologizmi bilan [hayron bo'lmoq] leksemasining ma'nolarini 158 qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajjublanmoq» bo'lsa, [hayron bo'lmoq] leksemasi «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq» sememasiga ega. Har ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holati (denotat) aks etgan. Biroq frazeologizm ma'nosida «o'ta darajada» va «so'zlashuv uslubiga xos», «bo'yoqdor» semalariga egaligi bilan «hayron bo'lmoq» leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmning ko'pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Umuman olganda, frazeologik ma'no torroq va muayyanroq, leksema ma'nosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo'ladi. Masalan, [hayron bo'lmoq] leksemasi umumuslubiy va bo'yoqsiz. SHuning o'ziyoq barcha uslubda qo'llanish imkoniga egaligini va turli «bo'yoqlar» bilan ishlatish mumkinligini ko'rsatadi. Ko'rinadiki, frazeologizm va leksema bir narsa yoki hodisani atasa-da (atash semelari bir xil bo'lsa-da), ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi (ya'ni ifoda semalari turlichadir). Frazeologizm birdan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topadi. Biroq uning ma'nosi tashkil etuvchi ma'nolarining oddiy yig'indisi emas. Masalan, [qo'yniga qo'l solmoq] frazeologizmining ma'nosi [qo'yin], [qo'l], [solmoq] leksemalari ma'nolari sintezi yoki qo'shiluvchi emas. Frazeologizmning ma'nosi tashkil etuvchi so'z to'la yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, birovning fikrini bilishga urinish harakati uning qo'ynini titkilab, nimasi borligini bilishga intilish harakatiga o'xshaydi. Natijada, qo'yniga qo'l solmoq erkin birikmasi o'zidan anglashilgan mazmunga o'xshash bo'lgan boshqa bir mazmunni ifodalashga ixtisoslashadi va qurilma frazeologizmga aylanadi. YOki kishi qo'ltiqlab ketayotgan tarvuzini tushirib yuborsa, qanday ahvolga tushadi? Biror narsadan ruhiy tushkunlikka tushgan odamning holati shunga monand va erkin birikma frazeologizm mohiyatiga ega bo'lgan. Bu esa frazeologik ma'noning mantiqiyligidan dalolat beradi. Frazeologizm tarkibidagi ayrim so'zning ko'chma ma'noda, boshqalarining o'z ma'nosida qo'llanilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, [aqlini emoq], [ko'zini bo'yamoq], [ko'zi ko'ziga tushdi], [og'zi qulog'ida] frazeologizmlarida (aql), (ko'z), (og'iz) so'zlari o'z ma'nosida, (emoq), (bo'yamoq), (tushmoq), (qulog'ida) so'zlari ko'chma ma'noda. Ba'zan harakat-holatning natijasini ifodalovchi qurilma frazeologizmga aylanadi. Masalan, kishi afsuslanishi natijasida barmog'ini tishlab qolishi mumkin. SHuning uchun barmog'ini tishlab qolmoq qurilmasi frazeologik qiymat kasb etgan. Tishni-tishga qo'ymoq, tepa sochi

tikka bo‘lmoq, labiga uchuq toshmoq iboralari ham shular jumlasidandir. Ayrim frazeologizm turli diniy aqida, tushuncha, rivoyat asosida ham shakllanadi: 1. Uning eriga mening ko‘zim tekkan emish. (I. Rahim) 2. Hammani qo‘yib, sizning soldat o‘g‘lingizga tegaman deb ko‘zim uchib turibdimi? (M. Muham.) 3. «Jabrdiyda»ning ham, guvohlarning ham dumi xurjunda gaplari shunday savollar berilishini talab etardi. (M. Ism.) Frazeologizm, asosan, bir ma‘nolidir. Ammo polisemantiklik frazeologizmida ham uchray turadi. Masalan, [aqli etadi] frazeologizmi «idrok qilmoq», «ishonch hosil qilmoq» ma‘nosiga, [bo‘yniga qo‘ymoq] iborasi 3 ta - «aybni birovga to‘nkamoq», «isbotlab e‘tirof qildirmoq», «biror ishni bajarishni birovning zimmasiga yuklamoq» ma‘nolariga, [qo‘lga olmoq] iborasi esa 4 ta - «o‘z ixtiyoriga o‘tkazmoq», «qo‘qqisdan hujum qilib bosib olmoq», «qamash maqsadida tutmoq», «biror yo‘l bilan o‘z xohishiga bo‘ysunadigan qilmoq» ma‘nolariga ega. Frazeologik polisemiya barcha ma‘no ko‘chma bo‘lganligi bois, ularni bosh va hosila ma‘nolarga ajratish qiyin. Iboralarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari Leksikada bo‘lgani kabi frazeologiyada ham lisoniy-semantik munosabat amal qiladi. Frazeologik sinonimiya. Ma‘nodoshlik hodisasi frazeologizmlarda ham mavjud. Frazeologizmning ma‘nodoshlik paradigmasida birliklar ifoda semalari darajasiga ko‘ra farqlanadi: [yaxshi ko‘rmoq] – [ko‘ngil bermoq], [er bilan yakson qilmoq] – [kulini ko‘kka sovurmoq], [ipidan ignasigacha] – [miridan sirigacha], [qilidan quyrug‘igacha] va h. Ma‘nodosh frazeologizmlarning atash semasi bir xil bo‘ladi. Masalan, [ipidan ignasiga] – [miridan sirigacha], [qilidan quyrug‘igacha] kabi iboralarida «butun tafsiloti bilan» atash semasi umumiy. Ammo ular uslubiy xoslanganlik va bo‘yoqdorlik darajasini ifodalovchi semalari bilan farqlanadi. Sinonim frazeologizmlarni frazeologik variantdan farqlash lozim. Sinonim iboralarda ayni bir so‘z bir xil bo‘lishi mumkin. Lekin qolgan so‘zlar sinonim leksemaning ko‘rinishlari bo‘lmasligi lozim. [Jonini hovuchlab] va [yuragini hovuchlab] iboralarida bir xil so‘z mavjud. Ammo [jon] va [yurak] so‘zlari sinonim leksema ko‘rinishi emas. [Ko‘ngliga tugmoq] va [yuragiga tugmoq] iboralari frazeologik variant. Frazeologik antonimiya. Zid ma‘noli antonimlar bir-biriga teskari tushunchani ifodalaydi. Misollar: [ko‘ngli joyiga tushdi] – [yuragiga g‘ulg‘ula tushdi], [qoni qaynadi] – [og‘zi qulog‘iga etdi]. Frazeologik omonimiya. Frazeologizmlar omonimik munosabatda ham bo‘lishi mumkin. Misollar: [so‘z bermoq I] (“va’da bermoq”), [so‘z bermoq II] (“gapirishga ruxsat bermoq”), [boshga ko‘tarmoq I] (“ardoqlamoq”), [boshga ko‘tarmoq II] (“to‘polon qilmoq”), [qo‘l ko‘tarmoq I] (“ovoz bermoq”), [qo‘l ko‘tarmoq II] (“urmoq”). Frazeologizmdagi darajalanish, giponimiya, funkcionimiya, ierarxionimiya kabi semantik munosabatlar o‘z tadqiqotini kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о‘quv qo‘llanma.- Академия, 2004.

2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

15-Mavzu: O'zbek imo-ishora tilida leksikografiya (lug'atshunoslik).

Reja.

1.Leksikografiya haqida.

2.Lug'at va uning turlari.

Tayanch so'z va iboralar: leksikografiya, lug'at, ensiklopedik lug'at, lingvistik lug'at.

Tilshunoslikning lug'at tuzish masalalarini ilmiy tadqiq qiluvchi va lug'at tuzish bilan shug'ullanuvchi sohasi leksikografiya (gr.lexikos-co'z, so'zga oid va grapho-yozaman) yoki lug'atchilik deyiladi. Maqsad va vazifasiga ko'ra leksikografiya ikkiga bo'linadi: a) ilmiy leksikografiya lug'atchilikning nazariy masalasi bilan shug'ullanadi; b) amaliy leksikografiya bevosita lug'at tuzish ishi bilan mashg'ul bo'ladi. Leksikografiya muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Bular quyidagilarda ko'zga tashlanadi: 1) ona tilini va boshqa tillarni o'rgatish; 2) ona tilini tasvirlash va me'yorlashtirish; 3) tillararo munosabatlarni ta'minlash; 1) til leksikasini ilmiy tekshirish va talqin qilish. Lug'at maqsadi va mo'ljaliga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1) umumiy lug'at; 2) maxsus lug'at. Umumiy lug'at keng o'quvchilar ommasiga, maxsus lug'at esa tor doiradagi kishilar-alohida soha mutaxassisiga mo'ljallangan bo'ladi. Har ikkala tur lug'at ham o'z o'rnida yana ikkiga bo'linadi: 1) ensiklopedik lug'at; 2) filologik lug'at. Demak, lug'atni umumiy ensiklopedik lug'at va maxsus ensiklopedik lug'at, umumiy filologik lug'at va maxsus filologik lug'atga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq va qulay. Umumiy ensiklopedik lug'at (UEL). Ma'lumki, UEL alfavit tartibida bo'lib, ularda so'z emas, balki shu so'zdan anglashilgan tushunchalar uchun asos bo'lgan narsa, tarixiy voqea, tabiiy va ijtimoiy hodisalar, shaxslar, geografik nomlar haqida ma'lumot beriladi va lug'at maqolasi lug'at yozilgan tilni tushunuvchi keng 161 o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan bo'ladi. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» ana shunday lug'atlardan biri. Unda shunday deyiladi: «O'zME (O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi) universal ensiklopediya bo'lganligi uchun fan-texnika va madaniyatning barcha sohalariga oid ma'lumotlar muxtasar tarzda ifodalanib, u insoniyat sivilizasiyasining muhim yutuqlari haqidagi bilimlar majmuidan iboratdir». Prezident I.Karimov O'zME ga yozgan so'zboshisida «Ensiklopediyamiz o'zining ilmiy jihatdan chuqur, ayni vaqtda ommabopligi bilan keng kitobxonlar orasida obro'-e'tibor topib, jahonning

nufuzli qomuslari qatoridan munosib o‘rin olishiga ishonchim komil» deb, uning funksiyasini alohida ta'kidlaydi. Maxsus ensiklopedik lug‘at (MEL). Fan-texnika, san‘at va madaniyatning ma'lum bir sohasiga oid tushunchalarni shu soha qiziquvchilari va mutaxassislari uchun mo‘ljallab tavsiflaydi. Bunday lug‘at sifatida soha ensiklopedik lug‘atlari - «Medisina ensiklopediyasi», «Fizicheskiy ensiklopedicheskiy slovar», «Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar» kabilarni misol qilib keltirish mumkin. UELdan farqli ravishda MEL tor sohaga doir tushunchani keng va batafsil sharhlaydi. Masalan, rus tilida yaratilgan «Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar»da shunday deyiladi: «Bu lug‘at turli ixtisosliklardagi filolog-tilshunoslar va ilmiy xodimlarning keng doirasiga, shuningdek, tilshunoslik bilan yaqin bo‘lgan soha vakillari psixologlar, mantiqshunoslar, filosoflar, etnograf va adabiyotshunoslarga mo‘ljallangan». Quyida «Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar»dan namuna keltiramiz (Bunday lug‘at o‘zbek tilida yaratilmagani uchun olingan maqolaning tarjimasini berildi). «AKKOMODASIYA (lat. Accomodatio – moslashish) tovushning kombinator o‘zgarishidan biri: qo‘shni undosh va unlining qisman moslashuvi. Akkomodasiya shunday hodisaki, keyingi tovushning ekskursiyasi (artikulyasiyasining boshlanishi) oldingi tovushning rekursiya (artikulyasiyasining tugashi)ga moslashadi (progressiv akkomodasiya) yoki oldingi tovushning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasiga moslashadi. Ayrim tillarga unlining undoshga moslashishi xosdir, masalan, rus tilida [a], [o], [u] unlilari yumshoq undoshdan keyin til oldi unlilariga aylanadi (ularning artikulyasiyasi ekskursiyaga intilgan). Qiyoslang: «mat»-«myat», «mol»- «myol», «luk»-«lyuk». Boshqa tillarda esa undoshning unliga akkomodasiyasi kuzatiladi, masalan, fors tilida til oldi unlisidan oldin kelgan undosh tanglaylashadi». (22-bet) Ko‘rinadiki, maxsus ensiklopedik lug‘at soha mutaxassislari uchungina zarur bo‘lgan tushunchani ana shu soha ilmiy uslubiga xos ifoda bilan tasvirlaydi. Umumiy filologik lug‘at barcha soha kishilari, keng foydalanuvchilar ommasiga mo‘ljallangan izohli, imlo, orfoepik, tarjima lug‘atidir. «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» (O‘TIL), «Ruscha-o‘zbekcha lug‘at» (RO‘L) ana shunday lug‘atlar sirasiga kiradi. Shu boisdan O‘TIL da shunday deyiladi: «Lug‘at keng o‘quvchilar ommasiga – tilshunoslar, o‘rta va oliy maktab o‘quvchilari va o‘qituvchilari, yozuvchilar, jurnalistlar, gazeta va nashriyot xodimlari va o‘zbek tiliga qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan.» (1-tom, 5-bet) Izohli lug‘at so‘zning ma'nosini shu tilda sharhlaydi, izohlaydi va shu ma'nosi bilan nutq tarkibida beradi. Misollar: 162 BAQIRLAMOQ Baqir-buqur ovoz chiqarib qattiq qaynamoq. [Hamrobibi] dasturxon yozdi, baqirlab qaynayotgan samovarni keltirib, qopqoqlab qo‘ydi. R.Fayziy. El mehri. YOZ 1 Yilning bahor bilan kuz orasidagi eng issiq fasli. Laylak keldi - yoz bo‘ldi. Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas. 2 ko‘chma Umrning eng gullagan yaxshi davri. YOzim o‘tdi, chiroyingizga to‘q bu quvnoq ko‘ngil. G‘ayratiy. Ko‘ngli yoz bo‘ldi. Ortiq sevinib, bahri dili ochildi. Negadir otashin

ko'ngli yoz bo'lib ketdi. O'.Umarbekov. CHaros. Umumiy izohli lug'atda lug'aviy birlikning barcha - grammatik, uslubiy, frazeologik birlik tarkibida qatnashishi, omonimligi, qaysi tildan o'zlashganlik belgilari ko'rsatiladi. O'zbek tilining bu tipdagi lug'ati birinchi marta 1981 yilda Moskvada nashr etildi. «Boy leksikografik an'analarning davomi sifatida o'tgan asrning 50-80 - yillari mobaynida o'zbek tilshunosligida erishilgan va o'zbek leksikografiyasini tilshunoslikning tez rivojlanib borayotgan mustaqil sohasiga aylantirgan ulkan muvaffaqiyati tufayli yuzaga kelgan» (1-tom, 5-bet) «O'zbek tilining izohli lug'ati» o'zbek xalqi tarixi va ma'naviyati taraqqiyotida ulkan hodisa bo'ldi. «Lug'atning asosiy vazifasi o'zbek tilining so'z boyligini to'plash va tavsiflash bilan birga, uning me'yorini belgilab berish va mustahkamlashdan ham iboratki, unda tilning imlo, talaffuz, so'z yasash va ishlatish me'yorlari tavsiya etildi» (1- tom, 5-bet). Demak, o'zbek tilining ilk izohli lug'ati o'z oldiga qo'yilgan o'zbek tilining so'z boyligini to'plash va tavsiflash hamda uning me'yorini belgilashdan iborat tarixiy vazifasini bajardi. Biroq tilshunoslik fanining rivoji, o'rganish manbaiga yondashuv omillari va metodologiyasining taraqqiyoti, jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy fanlarga qo'yiladigan yangicha talablarning yuzaga kelishi ijtimoiy ong shakllaridan bo'lgan tilning ilmiy talqinida ham yangicha qarashlar shakllanishiga olib keladi . Leksemalarning lug'aviy ma'nosi talqinida lison va nutqni izchil farqlash talabi har bir so'zga xos barqaror lisoniy va o'tkinchi nutqiy jihatni ajratishni taqozo qiladi. Nutqiy hodisa cheksizlik va rang-baranglik tabiatiga ega bo'lganligi bois leksikografik talqinning obyekt bo'la olmaydi. Lug'at so'zga xos barqaror jihatnigina qamrab olish imkoniga ega. Demak, semasiologiya sohasida amalga oshirilgan izchil substansial tadqiqotlar lug'atni tartiblashtirishda muhim tayanch omil bo'lib, leksikografni cheksiz nutqiy ma'nolarni tartibga keltirish, lug'atga kiritish hamda izohlash tashvishidan xalos etadi. Bunda har bir voqelangan nutqiy lug'aviy ma'noda qorishgan o'zga hodisalar tajallilarini e'tibordan soqit qilish, ushbu birlik (leksema)ning mohiyatiga daxldor bo'lgan unurni ajratish va tavsiflash leksikografik talqinda muhim ahamiyatga ega. Imlo lug'ati so'zlarni amaldagi imlo qoidalariga muvofiq ravishda qanday yozish kerakligini o'rgatadi. Demak, bunday lug'at hammabop va amaliy tabiatga ega bo'ladi va unga S.Ibrohimov va M.Rahmonovlarning 1956, 1964 yillarda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan» nashr etilgan, S.Ibrohimov, E.Begmatov va 163 A.Ahmedovlarning 1976 yilda «Fan» nashriyoti tomonidan chop etilgan kirill yozuviga doir imlo lug'atlarini kiritish mumkin. 1995 yilda Sh. Rahmatullayev va A.Hojiyev tuzgan lotin imlosidagi imlo lug'ati «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan chop etildi. Orfoepik lug'atda so'zning to'g'ri adabiy talaffuzi ko'rsatiladi. Bunday lug'at birinchi marta kichik hajmda M. Sodiqova va O'. Usmonova tomonidan «O'zbek tilining orfoepik lug'ati» nomi bilan 1977- yilda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan bosib chiqarildi. Maxsus filologik lug'at tor o'quvchilar ommasi – tilshunoslik bilan shug'ullanuvchilar va boshqa ilmiy tadqiqotchilarga mo'ljallangan bo'ladi. O'zbek

tilining morfem, chastotali, ters, o'zlashma so'zlar, frazeologizm, sinonimlar, antonimlar, omonimlar, dialektizm, terminologik, etimologik lug'atlar shular jumlasidan. Morfem lug'atda leksik birlikning tarkibi-morfemik strukturasi ko'rsatiladi. Bunday lug'at birinchi marta A.G'ulomov, A.N.Tixonov, R.Q.Qo'ng'urov tomonidan tuzilib, 1977-yilda «O'qituvchi» nashriyoti tomonidan chop etilgan. CHastotali lug'atda so'zning qo'llanish darajasi haqida ma'lumot beriladi. I.A.Kissen muallifligida chop etilgan «Slovar naiboleye upotrebitelnix slov sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika» (Tashkent, 1970) lug'ati chastotali lug'at bo'lib, unda ma'lum bir tanlangan matnlarda so'zlarning qo'llanilish chastotasi (takrorlanganlik miqdori) ko'rsatiladi. Bunday lug'at S.Rizayev, Z.Hamidov, N.Axmatov, N.Mamadaliyeva, R.Zohidov tomonidan alohida asarlar bo'yicha tuzilgan. Ters lug'atda so'z teskari tomondan oxiridan alfavit tartibida joylashtiriladi. Bu ham lingvistik lug'at bo'lib, R.Qo'ng'urov va A.Tixonov tomonidan «Obratniy slovar uzbekskogo yazika» nomi bilan 1969 yilda Samarqandda chop etilgan. Undan namuna keltiramiz: serharajat hujjat xat-hujjat behujjat murojaat Hojat muhofazat ijizat O'zlashma so'zlar lug'atida o'zbek tiliga boshqa tildan kirib kelgan so'z izohlanadi. Bu tipdagi lug'at izohli lug'atning bir ko'rinishi. Ular qaysi tildan o'zlashgan so'zlarni izohlashiga ko'ra turlicha nomlanadi. Masalan, O.Usmon va R.Doniyorovlar tomonidan 1965 yilda nashr etilgan «Ruscha-internasional so'zlar izohli lug'ati»da rus va boshqa yevropa tillaridan kirib kelgan so'zlar izohlangan. Frazeologik lug'at ham maxsus lingvistik lug'atning bir turi bo'lib, Sh.Rahmatullayev tomonidan tuzilgan «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati» (Toshkent, 1978) bunday lug'atning mukammal namunasidir. Undan misollar keltiramiz. 164 «Qulog'(i)ga chalinmoq nima kimning? Biror gapni yoki tovushni noaniq tarzda eshitmoq. O'xshashi: qulog'(i)ga kirmoq. Erkaklar orasidagi gap Asalbibining qulog'iga chalingan edi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. Uzoqdan traktorning guvillagan ovozi quloqqa chalindi. R.Fayziy. Cho'lga bahor keldi». (294-bet) «Qurimoq - yostig'ini quritmoq: yostig'i quridi: tinka-madori quridi: tinkasini quritmoq: esim qursin» (375-bet) Onomastik lug'at o'zbek leksikografiyasining alohida sohasiga aylandi. Bunday lug'atda atoqli ot (onomosionim), toponim yoki antroponim izohlanadi va ular etimologik lug'atning o'ziga xos ko'rinishi. Bunga T.Nafasov tomonidan tuzilgan «Janubiy O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati»ni, S.Qorayevning «Joy nomlarining izohli lug'ati»ni misol qilib keltirish mumkin. Dialektal lug'at o'zbek tilining dialekt va shevalariga xos bo'lgan leksik birliklarni qayd qiladi. Bunday lug'at, umuman, o'zbek tilining barcha shevalariga xos yoki ma'lum bir sheva so'zini izohlashga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. 1971 yilda mualliflar jamoasi tomonidan «Fan» nashriyotida chop etilgan «O'zbek xalq shevalari lug'ati»ni bunga misol qilib keltirish mumkin. Lug'atdan misol keltiramiz: Govara (Buxoro) beshik Gavdo'sha (Buxoro) xurmo Gajdim (Nayman) chayon (62- bet) Terminologik lug'atlar ma'lum bir sohaga tegishli so'zni izohlaydi. Terminologik lug'at izohli yoki tarjima

ko‘rinishiga ega bo‘ladi. Demak, terminologik lug‘atni bir tilli va ko‘p tilli lug‘atga bo‘lish mumkin. Quyida A.Hojiyevning «Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati» (Toshkent, «O‘qituvchi», 1985) dan namuna keltiramiz: «Kriptologiya. Maxfiy tillar, ularni tuzish qonuniyatlarini, rasshifrovka qilish usullarini o‘rganuvchi fan. Ko‘makchili aloqa. So‘zlar o‘rtasida ko‘makchilar vositasida yuzaga keladigan aloqa: qalam bilan yozmoq, uyga qadar yugurmoq kabi.» Tarjima lug‘atlar bir tildagi so‘z ma‘nosining boshqa tilda ifodalanishi, berilishini ko‘rsatadi. Ruscha-o‘zbekcha lug‘atdan misol: RAZBOGATET’ sov, (nesov, bogatet) boyimoq, boyib ketmoq, davlat orttirmoq. SAREVNA j. r. mn.-ven. malika, shohbekach (podshohning qizi) Tarjima lug‘ati ikki tilli yoki ko‘ptilli bo‘lib, lug‘atlarda so‘z ikkitadan ortiq tilda beriladi. Bunday lug‘atlar juda kam. Tarjima lug‘atlari qanday birliklarni ifodalashiga ko‘ra turlicha bo‘ladi: 1) leksik birliklar lug‘ati; 2) frazeologizmlar lug‘ati; 3) har ikkala birliklar lug‘ati; 4) maqollar lug‘ati. 1984 yilda Toshkentda nashr etilgan ikki tomli «Ruscha-o‘zbekcha lug‘at» leksik birliklar lug‘atidir. 165 frazeologik birliklar tarjima lug‘atiga M.Sodiqovanning «Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘ati» (Toshkent, 1972) namuna bo‘ladi. Undan ayrim misollar keltiramiz: Axnut ne uspel - ko‘z ochib-yumguncha, bir zumda: og‘iz ochib bir narsa deguncha ham bo‘ladi: bir og‘iz ham gap aytolmay qoldi.(14-bet). Bez zadnix nog - s.t. juda charchab holdan toygan, sulayib qolish (82-bet). O‘zbek lug‘atchiligi axborot texnologiyalari asosida rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ymoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о‘quv qo‘llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po‘latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайсева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

16-Mavzu: O‘zbek imo-ishora tilida morfemika va morfema haqida umumiy ma‘lumot.

Reja.

1. Morfemika haqida ma‘lumot.
2. So‘z tarkibi:o‘zak, negiz, asos, qo‘shimcha.
3. Qo‘shimchanning vazifasiga ko‘ra turlari.
4. Qo‘shimchalar ma‘nodoshligi.

Tayanch soʻz va iboralar: morfema, soʻz tarkibi, qoʻshimcha, qoʻshimchaning vazifasiga koʻra turlari, qoʻshimchala maʼnodoshligi, qoʻshimchalar zid maʼnoligi, qoʻshimchalar shakldoshligi, qoʻshimchalar koʻpmaʼnoligi.

Morfemika tilshunoslikning bir qismi boʻlib, tildagi maʼnoli qismlar haqida taʼlimot beradi. Tildagi boʻlinmas, eng kichik maʼnoli qism morfema deyiladi. Aqlli soʻzi ikki morfemadan tashkil topgan: aql+li. Aql oʻzak morfema boʻlib, soʻzning asosiy leksik maʼnosini ifodalaydi. -li morfemasi esa oʻzak morfema orqali ifodalangan belgi yoki predmetga egalik maʼnosini bildiradi. Koʻrinadiki, morfemalar ikki koʻrinishga ega: 1. Oʻzak morfema. 2. Qoʻshimcha morfema (qoʻshimcha). Soʻzda, albatta, ishtirok etadigan, leksik maʼno ifodalaydigan morfema oʻzak morfema deyiladi. Oʻzak morfema soʻz yasash uchun qam, forma yasash uchun ham asos boʻla oladi. Chogʻishtiring: ish+chi, paxta+zor, ish+ga, paxta+da. Mustaqil leksik maʼno ifodalay olmaydigan, soʻzning leksik yoki grammatik maʼnolarining shakllanishida xizmat qiladigan morfemalar qoʻshimcha morfema deyiladi: kuch+li, ish+la (soʻz yasayapti), uy+lar, uy+ga (shakl yasayapti). Soʻzlarni oʻzak va qoʻshimcha morfemalarga ajratishda bu morfemalarning maʼno ifodalay olishiga eʼtibor berish kerak boʻladi: quloqchin soʻzida -chin elementi maʼno ifodalaydi; tiril, tirik soʻzlarida esa "tir" qismi maʼnoga ega emas. Shuningdek -xona, -noma, -xoʻr, -boy kabilar aniq oʻzak morfema maʼnosidan uzoqlashib, qoʻshimcha morfemaga aylangan. Morflar turli koʻrinishlarga ega boʻladi. Masalan: ishla soʻzidagi -la elementi hayda soʻzida -da shaklida kelgan (lekin hay-hayla feʼlida yana -la tusida qoʻllangan), hozir ajralmaydigan unda soʻzida ham aslida shu -da qoʻshimchasi bor (un ovoz). Bu -la va -da koʻrinishlari umumiy tarzda morfema deyiladi. Buning har bir koʻrinishi esa morf (allomorf) sanaladi. Bu turli koʻrinishdagi qismlar, morflar bir-biriga nisbatan allomorf sanaladi. Bu hol oʻzak morfemalarda ham koʻrinadi: tashqi soʻzidagi tash elementi tish tusida koʻp uchraydi. Yana: kuchuk uvladi - boʻri ulidi (uv va u). Morfemalar vazifasiga koʻra soʻz yasalishiga ham, shakl yasalishiga ham aloqador. Masalan, temirchi (qoʻshimcha orqali soʻz yasash), temirni (qoʻshimcha orqali shakl yasash). Soʻz va morfema Soʻzning tarkibini grammatik jihatdan tekshirganimizda, unda maʼlum maʼno anglatadigan qismlarni, bu qismlarning oʻzaro bogʻlanganligini koʻramiz. Soʻzning boʻlinmas, eng kichik maʼnoli qismi morfema deb ataladi. Tovush va maʼnoning bir butunligidan iborat boʻlish, maʼno anglatish xususiyati soʻzda ham, morfemada ham bor, lekin bular bir qancha belgilariga koʻra bir-biridan farqlanadi. Yaʼni morfema va soʻz bir hodisa emas. Bular orasidagi farqlar quyidagilar: 1. Soʻz morfemalarga boʻlinadi. 2. Nutqda boshqa soʻzlar bilan munosabatga kirishadi. 3. Gap boʻlagi vazifasida kelish xususiyatiga ega. 167 4. Morfema nutqda mustaqil qoʻllanmaydi. 5. Morfema soʻz tarkibidagina yashaydi. 6. Maʼnoli qismlarga boʻlinmaydi. Soʻzning morfem tarkibi uni tashkil etuvchi morfemalar yigʻindisidir. Soʻz birgina morfemadan iborat boʻlishi mumkin: kuz, muz, oyoq, bir, sakkiz, gul. Bir morfemali soʻzlar faqat oʻzakkangina iborat boʻlib, odatda, tub soʻz sanaladi.

Eng sodda morfem tarkibli soʻzlar tub soʻzlardir: tosh, bosh, qosh. Hamma yasama soʻzlar kamida ikki morfemadan tashkil topadi: yoz+gi, jon+siz, sev+gi. Turli xil qoʻshimchalar vositasida hosil qilingan soʻzlar yasama soʻzlar deyiladi: bola+li, aql+li, ish+chi. Morfemalar vazifasiga koʻra soʻz yasalishiga ham, soʻz oʻzgarishiga ham aloqadordir. Qoʻshimchalarni soʻz yasovchi qoʻshimchalar (derivation) va soʻz oʻzgartiruvchi (relyatsion) affkslar tusidagi tasnifi shu holatga asoslandi. Soʻzning morfologik strukturasidagi shartlangan va erkin oʻzaklar atamasi faqat oʻzlashma soʻzlarga tegishlidir. Tilda faqat qoʻshimchalar bilan birgalikda ishlatiladigan oʻzaklar shartli (bogʻli) oʻzaklar deyiladi: fash+shizm, fash+ist, koʻr+k+li, ate+ist. Erkin oʻzaklar qoʻshimchalarsiz boshqa morfemalar bilan birlashmagan holda ham mustaqil ishlatiladi: mashina, vagon: mashina+li, vagon+cha, mashina+soz, vagon+chi, vagon+li. Rus tilidan oʻzbek tiliga qabul qilingan koʻpgina qoʻshma va qisqartma soʻzlar ham rus tilidagidek, morfemalarga ajratiladi: radio+sentr, ped+institut, mikro+rayon, avto+vokzal, avia+pochta. Soʻzlarning morfem tahlilida tarixiylik va hozirgi holat masalasini aniq chegaralay bilish kerak. Soʻzning morfematik tarkibi oʻzgarib turadigan hodisadir. Masalan, hozirgi oʻzbek tilidagi qovurgʻa, qachon, yaproq, boʻrsiq soʻzlari ilgari morfemalarga ajratilgan: yap+moq, qay+choq, qop+ur+gʻa (-gʻa ot yasovchi). Bu soʻzlar hozirgi oʻzbek tilida morfemalarga ajratilmaydi. Qismlarga ajraladigan, soʻzlaning davrlar oʻtishi bilan qismlarga ajratilmaydigan soʻzlarga aylanishi soddalanish deyiladi: ich+ak (kichraytish), yur+ak (ot yasovchi), boʻy+in (kichraytish), bugun, sakson. Soʻz morfematik tarkibining oʻzgarishidagi ikkinchi xil koʻrinish qayta boʻlinishidir. Uning mohiyati shundaki, maʼlum bir soʻz ilgari bir xil qismlarga boʻlingan boʻlsa, hozir undan farqli ravishda, qismlarga boshqacha boʻlinadi: insoniyat soʻzi birinchi davrda uch qismga boʻlinadi: inson-oʻzak, -iy va -at qoʻshimchalari mavjud boʻlgan boʻlsa ham, hozir "insoniy" holati ishlatilmaydi. Yana chogʻishtiring: ular: ul+ar, u+lar. Qoʻshimcha morfemalarning ayrim xususiyatlari Qoʻshimcha mustaqil qoʻllanmaydigan, ammo oʻzakka qoʻshilib uning leksik va grammatik xususiyatlari bilan bogʻliq boʻlgan har xil maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladigan morfemadir. Qoʻshimchalar tashqi tomonlari, maʼnolari, vazifasi va qoʻllanishi jihatidan bir qancha xususiyatga ega. Qoʻshimchalar tashqi tomondan fonetik strukturasiga koʻra bir unli (tinch+i), bir undosh (tila+k, tuga+l), unli va undosh (daftar+im), undosh va unli (xato+si), undosh - unli -undosh (yaxshi+lik) va boshqalarga boʻlinadi. 168 Qoʻshimchalarning kelib chiqishi. Bu hodisa soʻzlarning taraqqiyot yoʻli bilan bogʻliq. 1. Qoʻshimcha mustaqil soʻzdan kelib chiqqan (boradigan -borib turgan -turgan -digan; -dir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // оʻquv qoʻllanma.- Академия, 2004.

2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

17-Mavzu: O'zbek imo-ishora tilida so'z yasalishi.

Reja.

1. So'z yasalishi haqida umumiy ma'lumot.
2. o'zbek tilida so'z yasash usullari.
3. So'z turkumlarida so'z yasalishi.
4. Ot yasalishi.
5. Sifat yasalishi.
6. Fe'l yasalishi

Tayanch so'z va iboralar: so'z yasalishi, so'z yasash usullari, so'z yasalish asosi, yasovchi, so'z yasash qolipi, so'z turkumlarida so'z yasalishi.

So'z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohalaridan biri bo'lib, u yangi so'z yasalishi va so'z yasash usullarini o'rgatadi. So'z yasalishi morfologiya va leksikologiya bilan o'zaro bog'liq. "So'z yasalishi" atamasi ikki hodisani nomlash uchun ishlatiladi: 1. So'z yasalishi, ya'ni so'z hosil qilish. 2. Tilshunoslikning bir bo'limi nomi. 172 So'z yasash har qanday usul bilan bo'lsa-da, yangi so'z hosil qilish demakdir: ishchi, hozirjavob, besh yillik. Ma'lum so'z negizidan ma'no va grammatik jihatdan undan farq qiladigan yangi so'z hosil qilish so'z yasash deyiladi. So'z yasash leksik ma'noning o'zgarishini nazarda tutadi. Bunda avvalgi so'zning shakli ham o'zgaradi: yetak - yetakchi-yetakla. Turmushda predmetlar, hodisalarni nomlash uchun yangi so'zlar hosil qilinadi. Yangi so'z til birligi hisoblanadi. U til birligi sifatida lug'at tarkibini boyitadi. Har bir tilning yasama so'zlari shu tildagi so'z yasash modellari: o'zak+suffiks, prefiks+o'zak, so'z+so'z holatida yuzaga keladi: chopiq, besuv, qo'lqop. Demak, har bir yasalishda ikki elementning munosabati bor. Yasalmadagi ikki element semantik jihatdan ham, formal (tashqi) jihatdan ham aloqador: o'roqchi, ish-chi yasama so'zlarining ma'nosi yasovchi so'zning ma'nosiga asoslanadi: yasama o'zakning ma'nosini rivojlantiradi, o'shandan kelib chiqadi. Masalan: o'roq yasalmasining ma'nosi o'rish harakati bilan asoslaniladi (motivlovchi). Shunga ko'ra birinchi element asoslovchi (motivlovchi), ikkinchi element asoslanuvchi (motivlanuvchi), ikkala elementning orasidagi munosabat motivatsiya munosabati sanaladi. Demak, "motivlashgan" so'zi

"yasalgan" degan ma'noni ifodalaydi. So'z yasovchi o'zlashgan qo'shimchani baholashda uning o'zbek tilida ham yangi so'z yasash uchun xizmat qilishi yoki qilmasligini hisobga olish muhimdir. Binobarin, bunday qo'shimchalar yangi so'z yasab, o'zbek tili leksikasini boyitishi kerak. Aks holda bular o'zlashma so'z yasovchi qo'shimcha sanalmaydi (-ik, -ak, -izm, -ist) kabi. So'z yasash yo'llari Leksika doimiy harakatda bo'lib, uning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil. Leksika, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki imkoniyat asosida yangi so'z yasash bilan boyib boradi. Yangi so'z, odatda, tildagi bor materialdan yaratiladi. Eritma so'zining (eri+t+ma) materiali va modeli, vositasi avvaldan ma'lum, lekin hosil bo'lgan so'z yangidir. O'zbek tilida so'z yasashning bir necha usuli bor: 1. Semantik usul. 2. Fonetik usul. 3. Sintaktik usul. 4. Affiksatsiya usuli. 5. Kompozitsiya usuli. Semantik usul Tilda bor bo'lgan so'zning ma'nosi o'zgarishi natijasida yangi so'z hosil bo'lishi semantik usul bilan so'z yasash deyiladi: kun – quyosh – (planeta), kun - sutkaning yorug' qismi, kunduzi. Semantik usul bilan so'z yasashga so'z ma'nosining o'zgarishi, konversiya (ko'chish), polisemiya asosida omonimlarning vujudga kelishi kiradi. Kechasi -ot (vaqt nomi); kechasi - otdan yuzaga kelgan ravish so'z ma'nosining o'zgarishi), oldingilar (sifatdan otga ko'chirish: oldingi odamlar). Tosh – jism, ot yoki biror narsaning toshib ichidan sirtiga chiqishi -fe'l. Ich- (ichki qism) ot, ich (ichiga yutish) -fe'l (polisemiya asosida omonim vujudga kelgan). 173 Fonetik usul Tilda tovush o'zgarishi natijasida paydo bo'lgan yangi so'zlar fonetik usul bilan so'z yasash deyiladi: 1. So'z tarkibida fonetik o'zgarish orqali: tun-kun, aka-uka. 2. Urg'uning o'rnini o'zgartirish orqali: yangi-yangi. Prof. A.G'ulomov "Ichki o'zgarish yo'li bilan so'z yasash" (Nauchnaya sessiya AN UzSSR, Toshkent, 1947. 338-392-betlar) maqolasida fonetik usul bilan so'z yasashni juda qadimgi usul deb hisoblaydi. Uni affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan so'z yasashdan ilgarigi hodisa deb aytadi. A. G'ulomov ichki o'zgarish faqat tovushlarning o'zgarishi bilan emas, tovushlarning ikkilanishi, tovush tushib qolishi va tovushlarning o'rin almashtirishi usullari bo'lganligini aytadi va quyidagi misollarni keltiradi: ko'zko'r, tosh-tesh, aka-uka, siq-suq tovush almashish usuli; silamoq-siylamoq, o'ttrava, o'tjeloch tovushlarni cho'zish orqali so'z yasash; qatiq-qattiq tovushlarni ikkilantirish usuli bilan, sol-ol, tog'a-og'a, toshmoq-oshmoq tovushlarning birini tushirish bilan; siq-qis, cho'k-ko'ch tovushlarning o'rnini almashtirish va h.k. Prof. S.Usmonov "So'z yasash formasi" maqolasida (Nizomiy nomli pedinstituti asarlari, 42-tom, Toshkent, 1964, 349-b.) "Turkiy tillarda ichki fleksiya masalasi juda munozarali" deb fonetik usul bilan so'z yasalishiga shubha bildiradi. Sintaktik - leksik usul So'z birikmasining so'zga aylanishi yo'li bilan so'z yasash sintaktik - leksik usul deyiladi. Vaqtlar o'tishi bilan ma'lum tipdagi so'z birikmalari bir so'zga aylanib, bir leksik ma'no anglatadigan bo'lib qoladi: asalari, tokqaychi, jo'xoripoya, mingboshi. Affiksatsiya usuli So'zga qo'shimcha qo'shish orqali yangi so'z hosil qilish affiksatsiya usuli deyiladi: ishchi, o'rmonchi, o'yla, yopiq, ochiq. Bu usul eng faol usuldir. So'z yasovchi qo'shimchalar qo'shilish o'rniga ko'ra suffiks va prefiks

xarakteridadir: betinim, tinimsiz. Soʻz yasovchi qoʻshimcha birdan ortiq qoʻshilishi mumkin: bil+im+don+lik. Agar qoʻshimcha oʻzbek tili soʻzlariga ham, boshqa til soʻzlariga ham qoʻshilib yangi soʻz yasasa, u soʻz yasovchi hisoblanadi: oilaviy, texnikaviy, mafkuraviy, fizikaviy kabi. Faqat oʻzlashma soʻz tarkibidagina uchrasa, bu soʻz yasovchi hisoblanmaydi: -ist: kommunist; -yat: majburiyat. Soʻz yasovchi qoʻshimcha sodda yoki qoʻshma boʻlishi mumkin: -chi, -la, -k, -sodda; -chilik, -garchilik qoʻshma. Soʻz yasash darajasiga koʻra qoʻshimchalar uchga boʻlinadi: 1. Unumli. 2. Kam unum. 3. Unumsiz. Unumli qoʻshimchalar: -chi, -la, -lik, -li, -chi, -dor. Kam unum: -dosh, -ma, -ch, -don. Unumsiz: -kash, -gʻon, -gar, -vul; -xona, -noma kabi qoʻshimchaoidlar ham soʻz yasash uchun xizmat qiladi: choyxona, ishxona, tabriknoma. Etimologik jihatdan soʻz yasovchilarning asosiy qismi oʻzbekchadir. 174 Kompozitsiya usuli Birdan ortiq oʻzak morfemalarni qoʻshish orqali yangi soʻz hosil qilish kompozitsiya usuli deyiladi. Kompozitsiya usuli bilan qoʻshma soʻz hosil qilinadi: tuyaqush, oybolta, havorang, sotib ol, olib bor. Kompozita - qoʻshma soʻz demakdir. Sodda soʻzda mustaqil maʼnoli morfema bitta boʻlsa, qoʻshma soʻzda birdan ortiq boʻladi. Chogʻishtiring: temirchi, tortinchoq, boshla, belbogʻ, qoʻlqop, asalari. Agar qoʻshma soʻz tarkibidagi bir morfema oʻz maʼnosini yoʻqotgan boʻlsa, sodda soʻz sanalaveradi: kechqurun, quloqchin. Oʻzlashma qoʻshma soʻzlarning morfemalari oʻzbek tili uchun uqilmasa, sodda soʻz sanaladi: odamshavanda, dardisar, astoydil, santimetr. Ot yasalishi Yasama otlar: 1. Affiksatsiya. 2. Kompozitsiya. 3. Abbreviatura yoʻllari bilan yasaladi. Affiksatsiya usuli bilan ot yasash. Bu usul ot yasashdagi eng mahsuldor usuldir. Affiks qoʻshish yordami bilan yasalgan otlar tubandagi maʼno guruhlariga boʻlinadi: 1. Shaxs otlari. 2. Narsa, qurol otlari. 3. Oʻrin, joy otlari. 4. Abstrakt otlar. Shaxs oti yasovchi affikslar, asosan, ot negiziga qoʻshilib "shugʻullanuvchi" maʼnosini anglatuvchi shaxs otlarini yasaydi. Bunday otlar sof oʻzbekcha affikslar bilan ham, tojik tilidan qabul qilingan affikslar bilan ham yasaladi. Hozirgi oʻzbek tilida shaxs oti yasovchi affikslar quyidagilar: -chi: ishchi, qiziqchi, boʻyoqchi, tabelchi. -dosh: suhbatdosh, maktabdosh. -gar: zargar, sovungar. -kor: paxtakor, sholikor. -bon: saroybon, bogʻbon. -dor: muhrdor, chorvador. 175 -shunos: tilshunos, huquqshunos. -furus: nosfurus, doʻppifurus. -soz: soatsoz, kemasoz. -doʻz: mahsidoʻz, etikdoʻz. -paz: oshpaz, kabobpaz. -kash: chizmakash, aravakash. -boz: kaptarboz, qimorboz. -xon: kitobxon, gazetxon. Narsa, qurol oti yasovchi affikslar. Oʻzbek tilida ot va feʼl oʻzaklarga qoʻshiladi. Narsa, qurol oti yasovchi affikslar quyidagilar: -gich (gʻich, kich, -qich): oʻtkazgich, yelpigʻich, koʻrsatkich, ochqich. -ma: oʻsma, qatlama. -m (-im): toʻplam, boʻlim. -indi: yuvindi, qirindi. -in: ekin. -daq, -doq: kekirdak, qovurdoq. -chi: tomchi, duyunchi. -don: tuzdon, siyohdon, surmadon. Oʻrin, joy oti yasovchi affikslar: -zor: bodomzor, shaftolizor. -iston: Oʻzbekiston, Tojikiston. -goh: qarorgoh, sayrgoh. -xona: dorixona, ishxona. -loq: oʻtloq, qumloq. -obod: Hamzaobod, Murodobod. Mavhum maʼnoli ot yasovchilar: -lik: yaxshilik, goʻzallik. -chilik: pillachilik, paxtachilik. -garchilik: loygarchilik, odamgarchilik. -ch, -inch:

ishonch, sevinch. -sh, -ish: qurilish, yig'ilish. -lashtirish: radiolashtirish, elektrlashtirish. Kompozitsiya usuli bilan ot yasash. Bu usulda qo'shma otlar vujudga keladi: tuyaqush, ko'zoynak, belbog', yalangoyoq. qo'shma otlar material jihatidan: 1. Ot+ot: Mirzacho'l, bilakuzuk. 2. Sifat+ot: Kattaqo'rg'on, achchiqtosh. 3. Son+ot: uchburchak, beshariq. 4. Ot+fe'l: o'rinbosar, kungaboqar. 5. Ikki mustaqil fe'l: olibsotar, ishlab chiqarish. Sifat yasalishi Boshqa so'z turkumlari singari sifat turkumi xam to'xtovsiz ravishda yangi so'zlar bilan to'ldirilib, boyib turadi. Bu boyish, avvalo, yangi sifatlar yasalishida ko'rinsa, so'ngra, rus tilidan qabul qilingan tayyor sifatarni olish bilan amalga 176 oshadi. Bunga rus tili orqali o'zlashgan dokumental, dialektal, progressiv, revolyutsion, reaksion, effektiv kabilarni ko'rsatish mumkin. Sifatlar, asosan, ikki yo'l bilan yasaladi: 1) affiksatsiya; 2) kompozitsiya. Affiksatsiya yo'li bilan sodda sifatlar yasalsa, kompozitsiya yo'li bilan qo'shma sifatlar yasaladi. Affiksatsiya yo'li bilan sifat yasash Affiksatsiya yo'li bilan sifat yasash mahsuldir. Bu yo'l bilan boshqa so'z turkumlaridan turli ma'nodagi sifatlar hosil qilinadi. -li qo'shimchasi sifat yasovchilar ichida eng sermahsuli bo'lib, asosan, ot turkumidagi so'zlardan sifat yasaydi: sevimli, maslahatli, bilimli, suvli kabi. Bu qo'shimcha turli so'zlarga qo'shib shu o'zakdan anglashgan predmetga egalikni yoki predmetning biror ish uchun yaroqli ekanligini bildiradi: aqlli, uyli, mazali, minishli, yeyishli. -dor. Bu qo'shimcha ma'no va vazifasi jihatidan -li qo'shimchasiga yaqin turadi: jozibador, aybdor, aloqador, vafodor. ser- qo'shimchasi -li va -dor qo'shimchalari bilan yasalgan sifatlarga sinonim bo'la oladi: sershox, sersoqol, serunum, sergo'sht, sersuv. ba- qo'shimchasi arabcha va tojikcha o'zlashgan so'zlarga qo'shib sifat yasaydi: baquvvat, basavlat. -mand qo'shimchasi asosdan anglashilgan predmetga egalik ma'nosini ifodalaydi: davlatmand, kasalmand. -kor shakli asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiradi: zulmkor, ehtiyotkor, isyonkor. -siz, be-, no- qo'shimchalari asosdan anglashilgan narsa holatga ega emaslik belgisini ifodalovchi sifatlar yasaydi: kuchsiz, pulsiz, beor, bexosiyat, noo'rin. -chan shakli moyillik ma'nosidagi sifatlar yasaydi: uyatchan, xayolchan, talabchan. -choq, -chiq, -chak qo'shimchalari asosdan anglashilgan predmetga moyillikning kuchsizligini ifodalaydi: urinchoq, tortinchoq, sirg'anchiq, kuyunchak, erinchak. -qoq qo'shimchasi: tirishqoq, urishqoq. -gir (-kir, -g'ir) qo'shimchalari belgi xususiyat anglatadi sezgir, keskir, o'tkir, topqir, olg'ir. -ag'on, -mon: bilag'on, topag'on, bilarmon. -ki, -qi: jizzaki, shartaki, vaysaqi. -k (-k, -g'): chirik, o'lik, yaltiroq, yorug'. -kin, -kun, -gin, -g'in: tushkun, jo'shqin, ozg'in, -ma: ag'darma (etik), qovurma (sho'rva). -mas: bo'linmas, yengilmas. -ildoq: qaqildoq, chiyildoq. -ch: tinch, jirkanch. -gi, -ki, -qi: oxirgi, bahorgi, tushki, tashqi. -i: qishloqi, bahori. 177 -cha: o'zbekcha, erkakcha. -namo, -simon: majnunnamo, maymunsimon. -parvar: insonparvar, vatanparvar. -aki: zo'raki, qalbaki, yuzaki. bad-: badaxloq, badbashara, badqovoq. -chil, -don, -bop, xush-, -kash kabi qator sifat yasovchilar borki, ular turli ma'nodagi sifatlar yasay oladi. Kompozitsiya yo'li bilan sifat yasash Kompozitsiya usuli bilan qo'shma

sifatlar hosil qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega. qo'shma sifat hosil qilishda ikki va undan ortiq komponent semantik va grammatik jihatdan biriktiriladi. Tarkibiga ko'ra bunday sifatlar quyidagilarga bo'linadi: 1. Ikki sifatdan tarkib topgan bo'ladi: olachipor, och sariq, to'q qizil. 2. Sifat va otdan: ochko'z, qimmatbaho, sheryurak. 3. Ot yoki ravish va sifatdoshdan tashkil topgan: tinchliksevar, tezpishar. 4. Ot va aro so'zidan tarkib topadi: xalqaro, shaharlararo. qo'shma sifatlar bilan sifatlovchi birikmalarni farqlash lozim. Bunda sifatning predmet belgisini bildirishini asosga olish bilan birga, uning grammatik belgisini ham hisobga olish kerak. Masalan: ko'k muqovali kitob gapida «ko'k muqovali» qo'shma sifat emas. Chunki bu birikma komponentlari o'zaro aniqlovchi aniqlanmishlik munosabatini saqlagan. Ya'ni ko'k muqovali kitob deganda, ko'k va muqova so'zlari o'z mustaqil ma'nosini saqlaganligi ko'rinadi. qora telpakli yigit, oq soqolli kishi, o'rta ma'lumotli qiz, besh qavatli bino birikmalari tarkibidagi so'zlarni almashtirish mumkin. qo'shma sifatlarda bunday qilib bo'lmaydi. Ikkinchidan, qo'shma sifatlar sodda sifatlar singari darajalana oladi: kaltafahm, kaltafahmroq, eng kaltafahm. Umuman, -li qo'shimchasini olgan birikmalar qo'shma sifat emas. Ba'zan pauzani o'zgartirish orqali -li qo'shimchasini olgan birikmalarning o'zaro aloqasini o'zgartirish mo'mkin: uch bolali ayol, sakkizta fonarli uy. Fe'l yasalishi Fe'llar o'ziga xos yasash sistemasiga ega. Tilimizdagi fe'llar, asosan, affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi. Yasash asosiga qo'shib -la, -lan, -lash, -lashtir, -(a)y kabi affikslar mahsuldor bo'lib, juda ko'p miqdorda fe'l yasashga xizmat qiladi. 1.-la affiksi quyidagi qoliplarda yangi so'z hosil qiladi: ot+la-ishla, gulla, tuzla, bog'la; sifat+la-qorala, tekisla, tezla, tozala; ravish+la-qaytala, hozirla....; olmosh+la-sizla, senla; taqlid+la-gumburla, dukrula....; undov+la-dodla, voyvoyla, tufla.... 2. -lan, -lash, -lashtir kabi murakkab affikslarot, sifat, son+lan-zavqlan, ajablan, ikkilan....; ot, sifat, son+lash-salomlash, tezlash, birlash....: 178 ot+lashtir- rejalashtir(moq), gazlashtir(moq), ekranlashtir(moq)... -turli ma' - nolarga ega bo'lgan fe'llar yasaydi. Yuqorida ko'rsatilgan affikslar orqali yasalgan fe'llarni ma'no jihatidan guruhlash mushkul, chunki tilimizdagi ovqatlanmoq, kasallanmoq, foydalanmoq, to'lqinlanmoq, ahdlashmoq, qiyinlashmoq, oydinlashmoq kabi yuzlab fe'llarning har biri rang-barang ma'nolarni o'zida voqelantiradi. 3. -rar, -yay affikslari sifat+rar, ot, sifat+yay qolipida biror belgini qabul qilish ma'nosini ifodalovchi fe'llar yasaydi. Chunochi, qisqar(moq), pasay(moq), toray(moq), kuchay(moq).... 4. Fe'l yasovchi -a, -illa, -sira, -kik, -qiq, -ira, -i kabilar kamunum affikslar sanaladi va ot, sifat, taqlid+a-sana, o'yna, qiyna, ata, bo'sha, shildir, yiltira; taqlid+ illa-chirsilla, chirqilla, mo'ltilla, guvulla, likilla; ot, olmosh+sira-suvsira, gumonsira, hadiksira, sensira, manmansira, sizsira; ot, sifat, son+kik-ko'zik(moq), kechik(moq), birik(moq); sifat+qiq-zo'riq(moq), zoriq(moq); taqlid+ ira-yaltira, miltira, qaltira; ot, sifat+i-changi(moq), boyi(moq), tinchi(moq) qolipidagi fe'llarni yasashga xizmat qiladi. Kompozitsiya usuli bilan, ma'lumki, fe'l+fe'l-olib bermoq, aytib ketmoq, sotib bermoq, olib qochmoq, sakrab turmoq; ot+fe'l-ta`zim qilmoq, bashorat qilmoq, isbot

etmoq, kasal bo‘lmoq, fikr qilmoq, zikr etmoq; sifat+fe'l-xursand bo‘lmoq, shod etmoq, xafa qilmoq, obod qilmoq, juft bo‘lmoq, zada bo‘lmoq kabi qo‘shma fe'llar yasaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

18-Mavzu: O'zbek imo-ishora tilida grammatika haqida umumiy ma'lumot.

Reja.

- 1.Gramatika haqida umumiy tushuncha.
- 2.Gramatika va uning o'ziga hos hususiyatlari.

Grammatikada so'z shakli, grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik kategoriya haqidagi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi. Tilda o'zining doimiy ifodalovchisiga ega bo'lgan, so'z shakli va gapga xos umumlashgan ma'no grammatik ma'no hisoblanadi. Ma'lum grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan moddiy vosita grammatik shakl hisoblanadi. Grammatik shakllarni grammatik kategoriyani tashkil etgan unsurlar deyish mumkin. Aslida grammatik shakl deganda, ma'lum grammatik ma'noning moddiy tomoni tushuniladi. Grammatik shakl grammatik kategoriyani tashkil etgan qismlarning bir tomonini-shakliy tomonini ifodalaydi. Ohang-grammatik ma'no ifodalashning fonetik vositasi. Bu vosita yordamida gapning turi, gap bo'laklariga ajratish, farqlash mumkin. Affiksatsiya tizimida grammatik ma'noni ifodalashning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi. So'z tartibi-grammatik ma'no anglatishning yana

bir vositasi. So'zlarning gapda ma'lum tartibda oldinma- keyin joylashtirilishi ham grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Grammatik ma'no haqida umumiy tushuncha. Ma'lumki, grammatik ma'no ifodalashning turli vositasi mavjud. Grammatik ma'no deganda til (fonetik, leksik, morfologik va sintaktik) birliklarning nutqni shakllantiruvchi umumlashma abstract ma'nolari tushuniladi. Grammatik ma'no tarkibi murakkab. Uni ifodalashning quyidagi vositalari mavjud: 1) Affiksatsiya vosita; 2) Sof nomustaqil va nomustaqil vazifadagi so'z; 3) So'z tartibi; 4) Takror; 5) Ohang; 6) Sintaktik qolip; Affiksatsiya tilimizda grammatik ma'no ifodalashning eng keng tarqalgan turi, u orqali deyarli aksariyat grammatik ma'no ifodalanadi. a)

Soʻz yasovchi affiks; b) Shakl yasovchi affiks; Oʻzbek tilida sof koʻmakchi feʼllar yoʻq. Ayrim mustaqil feʼllar, masalan, boʻl, ol, qoʻy, bor, kel kabilar koʻmakchi feʼl vazifasida kelib turli-tuman maʼnolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, boʻl koʻmakchi feʼli tugallik, toʻla bajarilish maʼnosini ifodalaydi. Zulfiya topshiriqlarni bajarib boʻldi. Grammatik maʼno anglatishning yana bir vositasi soʻz tartibi dir. Soʻz tartibi xitoytibet tillari oilasiga kiruvchi tillarda va qurilishi shu tillarga oʻxshash boʻlgan boshqa tillarda juda muhimdir. -Masxaraboz masxarabozni masxaraboz deb atadi. Soʻz gapda uch xil vazifani bajarmoqda: ega, vositasiz toʻldiruvchi, vositali toʻldiruvchi. Sintaktik va analitik vositalar. Grammatik maʼnolarni ifodalovchi til vositalari turli-tumandir. Tilshunoslikda bu vositalar ikki katta gruppaga ajratilgan: sintetik vositalar, analitik vositalar. Sintetik vositalarga affiksatsiya (prefeks, suffekslar), ichki flektsiyaning hamma turlari (arab tiliga xos xususiyatlar), hind-evropa tillari soʻz oʻzagidagi unlining oʻzgarishi, suppletiv formalar kiradi. Analitik vositalar grammatik maʼno anglatuvchi yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi orqali grammatik maʼno anglatish, takror, intonatsiyalardan iborat. Grammatik maʼno ifodalovchi morfologik koʻrsatkich grammatik shakl yasovchi yoki qisqa qilib grammatik shakl deyiladi. Oʻtgan davr mobaynida oʻzbek tili grammatik koʻrsatkichlarining tasnifi yaratildi, ammo xulosa avval arab, keyinchalik rus tili grammatik meʼyoriga asoslangan holda berib kelindi. Grammatik koʻrsatkichlarning yangicha tasnifi: a) Lugʻaviy shakl hosil qiluvchi; b) Sintaktik shakl hosil qiluvchi; c) Lugʻaviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi; Grammatik kategoriya. Kategoriya atamasi tilshunoslikka falsafadan kirgan termin. U falsafada „obyektiv borliq va bilishdagi mohiyatdan koʻproq qonuniy aloqa va munosabatni aks ettiruvchi umumiy tushuncha” tarzida taʼriflanadi. Kategoriyalarning 9 ta turi mavjud. SHulardan egalik kategoriyasi haqida. Bu kategoriyaning koʻrsatkichlari quyidagilar: yaʼni egalik qoʻshimchalari hisoblanadi. Bu kategoriya shaxs va son maʼnosi bilan uzviy bogʻlangan. Shu boisdan egalik kategoriyasining barcha koʻrsatkichida bir vaqtning oʻzida shaxs maʼnosi ham, son maʼnosi ham ifodalanadi. Leksik maʼno individual maʼno hisoblanadi. Bir maʼno bir soʻz bilan bogʻlangan boʻladi. Grammatik maʼno leksik maʼnodan tubdan farq qiladi. U leksik maʼnoga oʻxshab tashqi dunyodagi narsa va voqealarni aks ettirmaydi va individual xususiyatga ega boʻlmaydi. Ular umumiy maʼnolardir. Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, grammatika bizga soʻz va gapning formalgrammatik tomoni-soʻz oʻzgarishi, sintaktik birliklar va ularning turli koʻrinishi, strukturasi va hosil qiluvchi vositalari, shuningdek, ifodalaydigan grammatik maʼnosini oʻrgatadi. Bundan tashqari grammatik kategoriyalarni doimo toʻgʻri qoʻllash lozim, agar kategoriyalar oʻz oʻrnida qoʻllanmasa, tuzilayotgan gapning grammatik jihatdan maʼnosi buziladi, gapdagi aniqlik va izchillik yoʻqoladi. Gap shaxs va sonda moslashmaydi. Shuning uchun ham grammatik kategoriyalarni oʻz oʻrnida qoʻllash zarur. Agar grammatika oʻz oʻrnida qoʻllanmasa maʼno jihatdan gʻalizlik paydo boʻladi. Shunday ekan

tilshunoslikning eng katta qismi bo'lgan grammatikani o'rganish biz uchun hamma sohalarda zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

19-Mavzu: O'zbek imo-ishora tilida morfologiya haqida umumiy ma'lumot.

Reja.

1. O'zbek imo-ishora tilida morfologiya.
2. Grammatik ma'no va grammatik shakil.

MORFOLOGIYA Morfologiya (yunoncha morphe – «shakl», logos – «ta'limot») so'z va uning grammatik xususiyatlari haqidagi ta'limotdir. Morfologiyada so'zning morfologik tuzilishi, yangi shakl va ma'nolar hosil qilishi bilan bog'liq qonun-qoidalar o'rganiladi. Morfologiyada so'zlar mushtarak yoki farqli belgilari umumlashtirilgan holda turkumlarga ajratib o'rganiladi. So'z leksikologiyada leksik birlik sifatida, morfologiyada esa grammatik birlik sifatida o'rganiladi. **GRAMMATIK MA'NO VA GRAMMATIK SHAKL** So'zning borliqdagi narsa, belgi harakat va voqea-hodisalar haqidagi tushunchalarni ifodalashi uning leksik ma'nosi hisoblanadi. Leksik ma'no so'zning lug'aviy (asosiy, o'zak negiz) qismi orqali anglashiladi. So'zning biror turkumga mansubligini ko'rsatuvchi umumiy kategorial ma'no va so'zning ma'lum bir grammatik shakli ifodalaydigan ma'no grammatik ma'no deyiladi. Demak, grammatik ma'no o'z xususiyatiga ko'ra ikki turlidir: 1. Ma'lum bir so'z turkumi uchun umumiy bo'lgan ma'no. Masalan: yomg'ir, bahor, shirinlik, qush, daraxt kabi so'zlar uchun mushtarak bo'lgan ma'no predmetlik tushunchasini anglatishidir. Xuddi shu umumiy grammatik ma'no ularning ot turkumiga mansubligini ko'rsatadi. 2. So'zlar asosiy leksik ma'nosidan tashqari qo'shimcha grammatik ma'noni ham ifodalaydi. Masalan: kitobim, kitobing, kitobi; uyga, uyda, uydan, bordik, yaqinlashyapti so'zlaridagi egalik, kelishik, zamon, va shaxsson qo'shimchalari yordamida ifodalanayotgan ma'no ham grammatik ma'no hisoblanadi. So'zning grammatik ma'nosi uning grammatik shakli orqali reallashadi. Masalan: kitoblar so'zidagi aniq bir predmet va uning ko'pligi ma'nosi

-lar affiksi yordamida, ishlayapmiz soʻzining grammatik maʼnosi (zamon va shaxs-son) -yap,-miz morfologik koʻrsatkichlari vositasida anglashilmoqda. Soʻz shakli quyidagicha hosil qilinadi: 1. Sintetik shakl. Soʻzning oʻzak-negiziga qoʻshimchalar qoʻshish orqali hosil qilinadi: kuldi, yigʻlayapti, qalamni, shahardan kabi. 2. Analitik shakl. Yordamchi soʻzlar ishtirokida hosil qilinadi: qalam bilan, maktab tomon. Nutqda sintetik va analitik shakllar aralash holda qoʻllanishi mumkin: soʻzla+b ber+dim, ona+m uchun; koʻr+ib tur+ib+man. 3. Juft va takroriy shakl. Bu tipdagi soʻz shakllari ham maʼlum bir grammatik maʼnoni ifodalashga xizmat qiladi. Juft shakl. Bir turkumga mansub ikki soʻzning juft holda qoʻllanishidan yuzaga keladi. Bir turkumga mansub har qanday soʻzni juft holda qoʻllab boʻlmaydi. Buning uchun ularning maʼno munosabati eʼtiborga 3 olinadi. Soʻzlar juft holda qoʻllanganda umumlashtirish, jamlik maʼnolari oʻrtaga chiqadi: qishin-yozin (doim), katta-kichik (barcha), mayda-chuyda (arzimas narsalar), aji-buji (tartibsiz), ora-sira (baʼzan). Nutqimizda juft soʻzlar qismlarining oʻrni asosan oʻzgartirilmay qoʻllanadi. Kalta-kulta, oʻlda-joʻlda, ota-bola. Baʼzi juft soʻzlar qismlarining oʻrnini almashtirib qoʻllash mumkin: eson-omon – omon-eson, asta-sekin – sekin-asta. Takroriy shakl. Leksik va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi, takror holda qoʻllangan soʻz shakli takroriy shakl hisoblanadi: kattakatta (binolar), chopa-chopa (charchamoq), joy-joyiga (oʻtirmoq), tez-tez (gapirmoq). Bir soʻzni ketma-ket qoʻllash bilan takroriy shakl hosil boʻlavermaydi. Takroriy shaklda soʻzning leksik maʼnosidan tashqari maʼlum bir grammatik maʼnolar ifodalanishi lozim. Masalan: Berganing bir yumurta, Oʻldirding turta-turta. (Maqol) Berganga -- qoʻsha-qoʻsha, Bermaganga oʻsha-oʻsha. (Maqol) Gul – dasta-dasta, Gul – bermagan nokasta. (Maqol) Ilib-ilib, yoz boʻlar, Sovib-sovib, qish boʻlar. (Maqol) Keltirilgan misollardagi qoʻsha-qoʻsha, dasta-dasta takroriy shakllari koʻplik maʼnosini, turta-turta, ilib-ilib, sovib-sovib harakatning takroriylikini ifodalaydi. Takroriy shaklni uslubiy takrordan farqlash kerak. Masalan: -- Iya, iya, biz turganda nega endi siz pol yuvarkansiz, opa? – Dod, dod! Omonatimdan ayrildim. – Obbo, - dedi Bozorboy uf tortib, - boʻpti, boʻpti, toʻrtta balon berib yuboraman. Qutuldimmi?! (S.Ahmad) Uslubiy takror tarkibidagi soʻzlar birgalikda boshqa bir maʼnoni ifodalamaydi, bir butunlikni hosil qilmaydi. Qaytarilayotgan soʻz asosan, taʼkidni kuchaytirish uchun ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // оʻquv qoʻllanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Poʻlatova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

20-Mavzu: O'zbek imo-ishora tilida ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ravish. Yordamchi so'zlar va alohida guruh so'zlar.

Reja.

1. So'z turkumlari va ularning hususiyatlari.
2. Yordamchi so'zlar va alohida guruh so'zlar.

So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (terminlar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi. "Ot" mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashtirilgan ma'nosi va grammatik belgilari aniqizchilikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi. Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o'rganish izchilligi belgilangan.

- "ot" haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;
- kim? so'rog'iga javob bo'lgan (shaxs bildirgan) otlardan nima? so'rog'iga javob bo'lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko'nikmasini hosil qilish;
- kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo'yilgan nomlarva geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish;
- otlarda son (otning birlik va ko'plikda qo'llanishi) bilan tanishtirish;
- haqida malaka hosil qilish;
- so'zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda hal etiladi. Shu bilan birga, "Ot" mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o'rganishva orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o'quvchilar lug'atini boyitishga, bog'lanishli nutq malakalari va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi. O'quvchilarda so'z

turkumlarini bilish ko'nikmasi ularning belgilari yig'indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, gul, guldor, gulladi so'zlarining qaysi so'z turkumiga kirishini bilish uchun II sinf o'quvchisi quyidagicha fikr yuritadi: nima? – gul, bu so'z narsani bildiriyapti, ko'plikda qo'llanadi – gullar, bu ot; guldor so'zi qanday? so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning belgisini bildiriyapti, bu – sifat; gulladi so'zi nima qildi? so'rog'iga O'quvchilar nimani o'rganganlariga qarab, har bir so'z turkumining grammatik belgilari haqidagi bilimlari asta kengaya, chuqurlasha boradi. Dasturga ko'ra, 1-2- sinflarda so'zlar javob bo'ladigan morfologik so'roqlarga qarab tasnif qilinadi. 3-sinfda “so'z turkumi” tushunchasi shakllantiriladi. O'quvchilar har bir so'z turkumiga xos ayrim belgilar (so'z turkumlarining umumlashtirilgan leksik ma'nolari, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanilishi, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, ot, sifat, son va fe'lning gapdagi vazifasi) bilan tanishtiriladi. 4-sinfda so'z turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari haqidagi bilim chuqurlashtiriladi: o'quvchilar otlaning egalik va kelishikla bilan o'zgarishini, sifat va sonning gapdagi vazifasi, kishilik olmoshlari va ularning kelishiklar bilan turlanishini, fe'llarda shaxs-son va zamanni o'rganadilar. O'quvchilarda so'z turkumlarini bilish ko'nikmasi ularning belgilari yig'indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, gul, guldor, gulladi so'zlarining qaysi so'z turkumiga kirishini bilish uchun: nima? –gul, bu so'z predmet bildiriyapti, ko'plikda qo'llanadi – gullar, bu ot; guldor so'zi qanday? So'rog'iga javob bo'layapti, predmet belgisini bildiriyapti, bu sifat; gulladi so'zi nima qildi? So'rog'iga javob bo'layapti, predmet holatini bildiriyapti, bo'lishsiz shaklda qo'llaniladi – gullamadi, bu fe'l. O'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsuslashtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. Masalan, o'quvchilar ot, sifat, son, olmosh, fe'l gap bo'lagi vazifasida kelishini, bog'lovchi gap bo'lagi bo'lmasligini biladilar. So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinli foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ularning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'limni o'quvchilarning shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.

2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

21-Mavzu: O'zbek imo-ishora tilida daktilologiyaning ahamiyati.


Reja.

1. Daktilologiya haqida umumiy tushunch.
2. Daktilologiyaning shakillanish bosqichlari.

"Daktilologiya" atamasi (yunonchadan. *dactilos* - barmoq, *logos* - so'z) ikkita asosiy ma'noda qo'llaniladi. Birinchidan, bu qo'l (lar)ning barmoqlari bilan takrorlanadigan alifboning nomi. Bu ma'noda bu so'z "o'zbek daktilologiyasi bir qo'l", "ingliz daktilologiyasi ikki qo'l" va hokazo gaplarda qo'llanadi... Lekin gapdagi atamaning ma'nosi nima: "Talaba daktilologiyani yaxshi o'zlashtirgan. va undan darsda mohirona foydalanadi"? Mutlaqo to'g'ri, aziz o'quvchi, bu erda biz alifbo haqida emas, balki qo'lda alifbodan foydalangan holda muloqot qilish, ya'ni daktil nutqi haqida gapiramiz.


Kelajakda biz "daktil nutqi", "daktil alifbosi", shuningdek, "daktil harfi yoki daktilem" atamalarini ishlatamiz - alifboning barmoq izi harfi.

Daktil alifbosini birinchi bo'lib kim ixtiro qilgani aniq ma'lum emas. Ma'lumki, barmoq harflarining tasvirlari 10-asrning Lotin Injilida allaqachon mavjud. Ehtimol, ba'zi qo'l belgilari, shu jumladan harflar, qadimgi davrlarda allaqachon ishlatilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, daktil alifbosi birinchi marta 1593 yilda ispan monaxi M. de Vebra tomonidan nashr etilgan (1-rasm). Faoliyati 16- asrga borib taqaladigan ispan rohib Pedro Ponse de Lion karlarni o'rgatishda daktil nutqdan foydalana boshladi . Karlarni o'rgatish uchun yaratilgan maxsus daktil alifbosi (2-rasm) 1629 yilda JP Bonet tomonidan nashr etilgan. 18- asrda Bonetning daktil alifbosi . Frantsiyadagi karlarning birinchi o'qituvchilari - R. Pereyra va Ch . M. De L'Epi tomonidan frantsuz daktil alifbosi uchun asos bo'lgan, shuningdek, 19- asr boshlarida ishlab chiqilgan Amerika daktil alifbosi. Gallaudet (T.N. Gallaudet) va Klerk (L. Klerk). Ammo birinchi nashri 1698 yilda boshlangan ingliz daktil alifbosi boshqacha asosda qurilgan. Ispan, frantsuz, amerikalik va boshqa ko'plab tillardan farqli o'laroq, bu alifbo ikki qo'lli . Uning zamonaviy modifikatsiyasi (3-rasm) Buyuk Britaniyadan tashqari, Avstraliya, Janubiy Afrika va boshqalarda ham keng qo'llaniladi.



Rasm. 1. Ispan daktil alifbosi de Webre (S. Karmel, 1982)

Rasm. 2. Ispan daktil alifbosi Bonet (S. Karmel, 1982)
































Rasm. 3. Britaniyaning ikki qo'l barmoq izi alifbosi

						
A	B	B	Г	Д	Е	Ж
						
З	И	Й	К	Л	М	Н
						
О	П	Р	С	Т	У	Ф
						
Х	Ц	Ч	Ш	Щ	Ъ	Ы
						
	Ь	Э	Ю	Я		

Rasm. 4. O'zbek daktil alifbosi



Rasm. 5. Xalqaro daktil alifbosi (S. Karmel, 1982)

 2 STROKES	 2 STROKES	 1 STROKE	 2 STROKES	 4 STROKES
 3 STROKES	 1 STROKE	 3 STROKES	 1 STROKE	 1 STROKE
 2 STROKES	 1 STROKE	 1 STROKE	 1 STROKE	 1 STROKE
 2 STROKES	 2 STROKES	 2 STROKES	 1 STROKE	 2 STROKES
 1 STROKE	 1 STROKE	 1 STROKE	 2 STROKES	 2 STROKES
 1 STROKE				

Rasm. 6. Kar-ko'rlar uchun xalqaro daktil alifbosi. Oklar harakat yo'nalishini ko'rsatadi,

raqamlarda - ularni bajarish tartibi

(S. Karmel, 1982)

1835 yilda V. I. Fleury tomonidan nashr etilgan - u o'sha paytda allaqachon pedagogik jarayonda ishlatilgan daktil alifbosini tasvirlab bergan . Ushbu daktil alifboda, shuningdek, kitobga kiritilgan daktil alifbosida Sankt-Peterburg kar va soqovlar maktabi direktori G.A. Gurtsevning "Entsiklopedik kurs" (1838) asarida Bonetdan kelgan an'ana aniq ko'rinadi: harfning grafik tasvirini barmoq bilan takrorlash. Kitobda keltirilgan daktilemlarning aksariyati G.A. Gurtsev, zamonaviy o'zbek daktil alifbosiga kiritilgan (4-rasm).

Hozirda milliy tillarning, jumladan, ukrain, belao'zbek, o'zbek, arman tillarining daktil alifbolari yaratilgan va keng qo'llanilmoqda (A.G.Gerankina, 1972; I.F.Geylman , 1981). 43 ta daktil alifbo tasvirlangan (S. Karmel, 1982) ¹, dunyoning 59 ta davlatida qo'llaniladi .

Xalqaro daktil alifbosi ishlab chiqildi, u 1963 yildan beri Jahon karlar federatsiyasi konferentsiyalarida qo'llaniladi (5-rasm).

E'tibor bering, ba'zi mamlakatlarda kar-ko'rlar uchun maxsus daktil alifbolari ham qo'llaniladi, ular milliy daktil alifbolariga asoslangan. Shuningdek, kar va ko'rlar uchun xalqaro daktil alifbosi mavjud (2-rasm). 6).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайсева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

22-Mavzu: O'zbek imo-ishora tilida daktil belgilarning ta`rifi.

Reja.































1.Daktil alifbosining qo'llanilishi.

2. Daktil belgilar tarifi.





















Birinchi daktil alifbolarning yaratuvchilari va ularning vorislari barmoq va qo'l(lar) konfiguratsiyasini shunday tanlashga intilishdiki, daktilmalar harflarga o'xshardi. Shu bois, milliy tillar alifbosini daktil alifboda ko'paytirish yo'llarini tahlil qilganda tadqiqotchilar o'z tavsiflarini "o'xshashlik tamoyili"ga asoslashga intilishlari tabiiy. Ammo boshqa mezonlar ham qo'llaniladi. Shunday qilib, I.F tomonidan taklif qilingan daktilarning tasnifi. Geilman (1981), uchta mezondan foydalanishga asoslangan: kompozitsiya (bir qo'lda, ikki qo'lda, birlashtirilgan), shakllanish usuli (nusxa ko'chirish, variant va boshqalar), belgilash printsiipi (harf, bo'g'in, birlashtirilgan). Ushbu tasnifga ko'ra, masalan, o'zbek, ispan va boshqa daktil alifbolari bir qo'lli, nusxa ko'chirish (ya'ni, daktilemaning harf bilan o'xshashligiga intilish) va alifbo, ingliz tili ikki qo'lli (C harfidan tashqari) , nusxa ko'chirish va alifbo . Ammo bu tasnifdagi xitoy daktil alifbosi birlashtirilgan, variant va birlashtirilgan deb ta'riflanadi. Gap shundaki, zamonaviy xitoy daktil alifbosi ikkita daktil to'plamidan iborat: birinchi to'plam boshlang'ich bo'g'inning undoshlari uchun (7-rasm), ikkinchi to'plam – oxirgi bo'g'inlar uchun barmoq belgilari (8-rasm).

Barmoqlar bilan so'zni takrorlashda ikkita qo'l bir vaqtning o'zida harakat qiladi - chap qo'l boshlang'ich bo'g'ini, o'ng qo'l esa oxirgi bo'g'ini takrorlaydi. Ko'rib turganimizdek, xitoylar, shuningdek, yaponlar va boshqa ba'zi daktil tizimlari daktilarning harflar bilan o'xshashligi asosida emas, balki milliy yozuvning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tamoyillar asosida qurilgan.

Daktil alifbolar tuzilishining qiziqarli tahlilini V.G. Xalatyan (1973). Sakkiz daktil alifboni (o'zbek, polyak, rumin, eston va boshqalar) o'rganib chiqib, u daktil alifbolarning qurilishida harf belgilariga o'xshashlik ustunlik qilishini aniqladi. Daktilemlar - aksariyat alifbolardagi odatiy belgilar faqat beshdan yoki oltinchi qismni tashkil qiladi. Shu bilan birga, ayrim alifbolarda harflarni emas, fonemalarni bildiruvchi daktilemalar mavjud. Masalan, polyak tilida 32 ta harf, daktilemalar esa 39 ta. Bu alifboda harflarni ifodalovchi daktilemalardan tashqari fonemalarning yettita barmoq belgisi ham mavjud bo'lib, ular yozma ravishda ikkita harf birikmasi yoki maxsus ustki belgilar bilan ifodalanadi (2-rasm). 9).

 A	 B	 C	 D	 E	 F
 G	 H	 I	 J	 K	 L
 M	 N	 O	 P	 Q	 R
 S	 T	 U	 V	 W	 X
 Y	 Z	 ZH	 CH	 SH	 NG

Rasm. 7. Xitoy alifbosi daktil alifbosi (S. Karmel, 1982).


 an	 ang	 in	 ing	 un
 ong	 ian	 iang	 uan	 uang
 ai	 uai	 ei	 uei	 ao
 iao	 ou	 iou	 ie	 üe

Rasm. 8. Xitoy bo'g'inli daktil alifbosi (S. Karmel, 1982).

To'g'ri, fanda hali buni aytish mumkin bo'lgan qat'iy mezonlar mavjud emas: bu daktilemlar harflarga mutlaqo o'xshash va ular faqat qisman o'xshash yoki umuman o'xshash emas. Masalan, siz aziz o'quvchi, o'zlashtirishingiz kerak bo'lgan o'zbek daktil alifbosini olaylik. O'zbek daktil alifbosida 33 ta daktilema mavjud (o'zbek alifbosidagi harflar soniga teng). V. G. Xalatyan ushbu alifboning tuzilishini sinchiklab tahlil qilgan holda, uning fikricha, harflarga mutlaqo o'xshash daktilemlarni aniqladi: G I Y L M O P S T U Ts Sh Shch E; taxminan o'xshash: A E Yo K N R F KH Y, umuman o'xshamaydi, ya'ni shartli belgilar: B J Z H ' ' UYa. Xuddi shunday tahlilni I.F. Geilman (1981). V.G. Xalatyan va I.F. Geilman 14

daktilning o'zbek harflariga mutlaqo o'xshashligiga rozi : G L M O P va boshqalar; Ikkalasi ham K F X ni qisman o'xshash deb hisoblaydi , ammo ikkala mutaxassis tomonidan berilgan ko'plab daktillarning xususiyatlari boshqacha. Sizningcha, o'quvchi, A va I daktilemlari mos keladigan o'zbek harflariga to'liq yoki qisman o'xshashmi? V. G. Xalatyanning fikricha, I daktilema butunlay o'xshash , A daktilem esa uning harfiga taxminan o'xshash. I.F. Geylman, aksincha, A daktilemada to'liq ko'radi, lekin I daktilemada faqat qisman harf bilan o'xshashlik va hokazo.


Shu o'rinda savol tug'iladi: umuman bunday tahlil nima uchun kerak? Lekin buning sababi. Birinchidan, mavjud daktil alifbolarda milliy tillar harflarini takrorlash usulini o'rganish bizga yangi daktil alifbolarni yaratish tamoyillarini ishlab chiqish imkonini beradi. Ikkinchidan, daktil alifbolarining tuzilishini aniqlash daktilologiyani o'qitishning eng oqilona metod va usullarini topish imkonini beradi. Bu erda, masalan, V.G.ning turli daktil alifbolarning tuzilishini tahlil qilish ma'lumotlaridan qanday foydalanganligi. Xalatyana - yaqinda tug'ilgan arman daktil alifbosining yaratuvchisi.



Rasm. 9. Polsha daktilemlari

V. G. Xalatyana arman tilining daktil alifbosini yaratishda dastlab o'zi aniqlagan an'anaga amal qildi: u imkon qadar harflarga o'xshash daktilemlar yasashga intildi. Shu tarzda tuzilgan alifboda ma'lum bo'ldiki, daktillarning 56 foizi mos keladigan arman harflariga butunlay o'xshash va 31 foizi qisman o'xshash edi. Biroq, eksperimental sinovlar davomida yaratilgan alifbo aloqada foydalanish uchun juda noqulay ekanligi ma'lum bo'ldi. Nega? Gap shundaki, arman alifbosining tarkibi va grafik tuzilishi juda o'ziga xosdir. Arman alifbosida 39 ta harf bor - bu boshqa tillarga qaraganda ko'proq (masalan, frantsuz va ingliz tillarida - 26, o'zbek tilida - 33). Arman harflarining grafik ko'rinishi juda murakkab, shu bilan birga ular boshqa alifbolarning harflariga qaraganda kamroq kontrastli, masalan, o'zbek yoki ingliz. Arman harflari konturining asosi kvadrat (boshqa tillarning aksariyat alifbolarida bo'lgani kabi yumaloq emas) shaklidir. Harflarga "maksimal o'xshashlik" tamoyili

bo'yicha daktilemalarning qurilishi muqarrar ravishda ko'plab daktilemalarning juda o'xshash bo'lishiga olib keldi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, ularni farqlash juda qiyin bo'lib chiqdi va bajarish mushaklarning sezilarli kuchlanishini talab qildi, bu esa barmoq izlarini olish texnikasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Qanday qilib bu erda bo'lishimiz mumkin? Va V.G. Xalatyan dadil qaror qabul qiladi: u arman tilining fonetik tizimiga asoslangan daktil alifbosining yangi versiyasini yaratadi (harflarning grafik tasvirining o'ziga xos xususiyatlariga emas!). O'zbek tilida o'xshash bo'lgan arman tovushlari uchun o'zbek alifbosining 25 ta mos keladigan daktillari kiritilgan. Boshqa o'zbek daktilemlari (I Sh 'dan tashqari) arman tilining ko'plab fonemalarini etkazish uchun ham ishlatilgan. O'zbek daktilemalariga murojaat qilish mantiqan to'g'ri keladi, chunki ular boshqa tillarda bir xil yoki o'xshash fonemalarni bildiradi, balki Armanistondagi maxsus maktablarda eshitish qobiliyati zaif ko'plab o'quvchilar arman tilidan tashqari o'zbek tilini ham o'rganadilar va shunga mos ravishda, o'zbek daktil alifbosi. Qolgan harflarni takrorlash uchun V.G. Xalatyan yangi daktilemlarni maxsus ishlab chiqdi. Arman daktil alifbosi shunday yaratilgan (10-rasm), tajriba sinovlari shuni ko'rsatdiki, aloqa uchun juda oddiy va qulay.



10-rasm. Arman daktil alifbosi

Pedagogika institutlari talabalari va tarjimonlarga daktil nutqni o'rgatishning turli yondashuvlari ham o'zbek daktil alifbosining tuzilishini tahlil qilishga asoslanadi. A.G. tomonidan taklif qilingan usul bo'yicha. Gerankina (1972), daktilologiyani o'rganishni eng oson daktilemlarni ko'paytirishdan boshlash tavsiya etiladi: G 3 L M O S. Bu daktilemlar ularning harflariga juda o'xshash va keskin qarama-qarshidir. Keyin qolgan daktilemlar - uch bosqichda - alifbo tartibida kiritiladi . Daktilem harfini ko'paytirish usuli I.F tomonidan tavsiya etilgan usulning asosidir. Geilman (1981). Muallif, daktil harflarni guruhlariga bo'lib daktillashni o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi, bu erda daktilemlar ularning shakllanishi va konfiguratsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda birlashtiriladi. Ish I guruh - beshta daktilni o'rganishdan boshlanadi , ularni bajarish jarayonida qo'lning barmoqlari asta-sekin va ko'proq ochiladi (10-rasmga qarang): A E E S V. Keyin II guruh o'rganiladi (barmoqlar navbat bilan bog'lanadi). : O R N Sh Shch.Keyin, daktilemlarni o'qitish tartibi quyidagicha: III guruh (K I Y N U) - qo'l ko'tariladi, tekis barmoqlar ochiladi; IV guruh (3 D C Y B) - qo'l ko'tariladi, tekis barmoqlar tegadi; V guruh (G P L M L T) - qo'l tushiriladi, barmoqlar tekis; VI guruh (Ch Zh F Yu) - qo'l ko'tariladi, barmoqlar sizdan uzoqda joylashgan uchlari bilan tekislanadi; VII guruh (X E b b) - qo'l ko'tariladi, bosh va ko'rsatkich barmoqlari navbat bilan tekislanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

23-Mavzu: Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'zbek imo-ishora tilida daktil nutqini egallashning psixologik xususiyatlari.

Reja.

- 1.Daktil nutqini egallashga qo'yilgan talablar.
- 2.Daktil nutqni egallashning psixologik xususiyatlari.

O'zbek daktil alifbosida (aslida, boshqa ko'plab daktil alifbolarda bo'lgani kabi) daktilemlar harflarni takrorlaydi. Shuning uchun, tabiiyki, daktil nutqdan foydalangan holda, ma'ruzachilar nutqning yozma shakli qoidalariga, boshqacha aytganda, o'zbek tilining imlo me'yorlariga rioya qilishadi. Shu bilan birga, barmoq izlari majburiy ravishda og'zaki nutq bilan birga keladi. Barmoq izlari bilan olingan so'z va iboralarning talaffuzi imlo me'yorlariga mos kelishi kerak.

Dastlab, o'zbek tiliga xos bo'lgan imlo va imlo me'yorlari o'rtasidagi nomuvofiqlik, daktil nutqidan foydalangan holda muloqot qilishni qiyinlashtiradi. Axir, masalan, p-o-d-o-sh-e-l so'zini barmoq izlari bilan olishda, ma'ruzachi bir vaqtning o'zida [p'dashol] ni talaffuz qiladi. Maxsus o'quv mashqlari paydo bo'lgan qiyinchiliklarni engishga imkon beradi.

F. Safarov, S. Safarovning “Boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun izohli lugʻati” (Toshkent, “Fan”, 2012) dan foydalaning.) Ajratib koʻrsatilgan soʻzlar ishtirokida gap tuzing.

Abjir, asov, alloma, anjuman, asqotmoq, ansambl, armugʻon, arzanda, ayama- jiz, ayron, agʻanamoq, ashyo, bargak, battol, bazm, bejirim, billur, beqasam, beysbol, biyday, burkanmoq, bodramoq, boʻz, bodroq, boldoq, buta, boʻyra, bo-

qiy, bujur, dizayn, doroyi, dumbul, egat, engil, ermak, gajak, gerbariy, garmsel, gijinglamoq, guvala, guvranmoq, hammol, harir, hovur, hoshiya, chuvrindi, chir-mashmoq, chilpimoq, chandimoq, oʻmrov, xazonchinak, ufq, uzangi, ufurmoq, tushov, tivit, tolqon, tarnov, targʻil, sopol, sovlıq.

3- mashq. Quyidagi lugʻaviy birliklarni leksema va nutqiy yasama soʻzlarga ajrating. Bunda lugʻaviy birlikning tayyorligi yoki nutqda hosil boʻlishiga asoslanib ish koʻring.

Shaftoli, dengiz, mavj, shaftolizor, kater, kosa, kulba, kumush, kurk, donolik, mayiz, ishsiz, kompyuterchi, radiosoz, koʻkatfurush, oʻsimlikshunos, anorzor, taroq, irodasiz, noilmiy, nodurust, betashvish, loqayd, toshbaqa, bodomqovoq, kislotali, tuzli, maʼnoli, tinch, ishchi, toʻgʻram, oʻrim, yigʻindi, tartibli, uzumzor, terakzor, nevarali, evarali, chevarali, navbatsiz, arzonchilik, qishloqchilik, najotsiz, boʻzfurush, nosfurush, sochma, koʻchma, istiqlol, izgʻimoq, tush, bekat, zimdan, maslahatchi, baliqshunos, baliq, toshkentlik.

Savollar:

1. Leksema nima?
2. Leksemaning nutqiy yasama soʻzdan farqi nimada?
3. Nima uchun izohli lugʻatda faqat leksemalar izohlanishi kerak?
4. Leksemaning shakl tomoni qanday ataladi?
5. Leksemaning mazmun tomoni qanday ataladi?

4- mashq. Berilgan misollardagi nutqiy lugʻaviy maʼnolar asosida oʻtmoq, koʻz, katta leksemalarning sememasini tavsiflang.

1. Qo‘shin daryodan o‘tdi. Ip ignaning teshigidan o‘tdi. Poyezd tuneldan o‘tdi.
2. Marraga yaqinlashganda, barcha poygachilardan o‘tib, marra chizig‘ini birinchi bo‘lib kesib o‘tdi. Goh afandi eshakdan, goh eshak afandidan o‘tib, uyga yetdilar. (“Latifalar”dan)
3. Bu xabarni eshitkuchi Kumushbibining qora ko‘zlari jiq yoshga to‘lib, kipriklari yosh bilan belandilar. (A. Qodiriy) Maston unga e‘tibor qilmay, otning tumshug‘idan ko‘tarib, uning ochiq qolgan ko‘zlariga qaradi. (A. Qahhor)
4. Yog‘ochning ko‘zi kattagina ekan. Buloqning ko‘zi ochildi. Xurjunning ikki ko‘zini to‘ldirib olma solib oldik.
5. Biram katta dalaki, u yog‘ini ko‘rib bo‘lmaydi. (Sh Sa‘dulla) O‘roz qayerdandir katta tarvuz keltirib, o‘rtaga qo‘ydi. (Oybek)
6. Toshkentga butun mamlakatdan katta geolog olimlar kelishgan. (S. Karomatov) Abdurahmonning amakilari Buxoroda katta mudarrislardan sanalar edilar. (A. Qodiriy)

Savollar:

1. Semema nima?
2. Semema va nutqiy lug‘aviy ma‘noning munosabatini izohlang.

105-mashq. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning atash (denotativ) va qo‘shimcha (konnotativ) ma‘nolarini tushuntiring.

1. Chorshanba – zo‘r yigit, ishni do‘ndiradi. (M. M. Do‘st)
2. Qiz Umidga qarab jilmaydi. (Mirmuhsin)
3. Oldimizdan bir ketvorgan qiz o‘tib ketdi.
4. O‘rtaga qiltiriq bir bola chiqadi va havoda chir aylanib, dumbaloq oshib sakrab hammaga

ta‘zim qiladi. (T. Obidov)

5. Bir payt toshbaqa kosaning narigi yog‘idan boshini chiqarib, uyqusiraganicha vaysab berdi. (A. Obidjon)
6. Ingliz ukki ko‘z, karnay burun, kampir dahan, qiltiriq bo‘yin, naynov edi. (Oybek)

7. Sahrolar gul ochar senda,

Samolar nur sochar senda. (M. Mirzo)

5-mashq. Yo‘l, so‘z, kichik, aylanmoq, ezmoq so‘zlarining ma‘nolarini kontekst asosida aniqlang.

- I. 1. Atrof biyday dala. Bir vaqt yo‘lning chap tomonida qandaydir sharpa sezganday bo‘ldim. (P. Qodirov)
2. Bundan buyon mototsikl yo‘lingizni yaqin qiladi. (S. Anorboyev)
3. Odamda nafas organlari havo o‘tkazuvchi yo‘llar (burun bo‘shlig‘i, hiqildoq, kekirdak va bronxlar) hamda o‘pkadan iborat. (“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”dan)
4. Haq yo‘li albatta bir o‘tilgusi. (Cho‘lpon)
5. Buxoro

– Samarqand beqasami arqoq ipi yo‘g‘on, mujassamoti markazi oddiy bir me‘yorda takrorlanuvchi aniq keng (pushti, sariq, zangori yoki pushti, binafsha,

sariq tusli) yo‘llardan, qirg‘og‘i esa hoshiya yo‘llardan iborat. (“O‘zbekiston milliy ensiklope-diyasi”dan) 6. Masalani yechishning ikki yo‘li bor.

II. 1. Mustaqil so‘zlar fonetik va semantik butunligi bilan boshqa til hodisalaridan aniq ajralib turadi. (“O‘zbek tili leksigologiyasi” kitobidan) 2. So‘z boshlaydi chol titrab, Halqumiga kelib jon. (A. Oripov) 3. Do‘st so‘zini tashlama, Tashlab boshing qashlama. (Maqol) 4. Yigit so‘zi bir bo‘lur. (Maqol) 5. Yusufjon qiziq so‘zga chechan odam bo‘lgan. 6. El bor yerda so‘z bor. (Maqol)

III. 1. Gohida kichik, hidli handalakchalar olib kelardi. (Sh. Sa‘dulla) 2. Bolalardan kichikroqlari chopqillashib, Saodatxondan o‘zib ketishdi. (S. Zunnunova) 3. Men o‘n yil davomoda shu idorada kichik bir lavozimda ishladim. (“Guldasta”dan) 4. Har bir oilada kichik janjallar bo‘lib turadi.

IV. 1. Yer Quyosh atrofida aylanadi. 2. G‘ulomjon shahar aylangani ketdi. (M. Ismoiliy) 3. Yozda harorat nol darajadan yuqori ko‘tarilganda muzlik ustidagi qor eriydi. Qor asta-sekin firnga – alohida erigan muz donachalariga aylanadi. (“Bolalar ensiklopediyasi”dan) 4. Yurtimizda Navro‘z kuni sumalak pishirish an‘anaga aylangan.

V. Ishlar bitsin, xotin!

Yangi qavigan ko‘rpangda oyoqni cho‘zi-i-b, Ko‘k choyni suzi-i-b,

Maza qilib yotaman... Haydarqul

Muzday suvda qoq nonni ezib, Ezib – kafti bilan tirish peshonasini Qirq yilki, har kuni shu gapni

Ezilgan xotiniga aytadi, ezib-ezib. (T. Jo‘ra)

Savollar:

1. Til lug‘at tarkibidagi so‘zlarga bir ma‘nolilik ko‘proq xosmi, ko‘pma‘nolilikmi?
2. Nima sababli so‘zlar birdan ortiq ma‘no kasb etadi?
3. So‘zdagi ko‘pma‘nolilik qanday usullar bilan hosil bo‘ladi?
4. Ko‘p ma‘noli so‘zning omonim so‘zdan farqi nimada?

9- mavzu: O‘zbek imo-ishora tili imlosi va uning asosiy tamoyil (printsip)lari.

Mashg‘ulot rejasi:

1. Tashkiliy qism.

2. Mavzuga oid talabalar bilimini savol-javob va mashqlar orqali tekshirish va mustahkamlash.
3. Test topshiriqlari asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash.
4. LTQ texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.
5. Mashg'ulotni yakunlash.

Adabiyotlar:

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

I. Savollarga yozma javob yozing! 1.So'zning o'z va ko'chma ma'nosi.
2.Metafora.

3.Metonimiya 4.Sinekdoxa

5. Vazifadoshlik

II. Mashqlar bajarish

1- mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'z va ko'chma ma'nosini izohlang.

1. Ona diyorumizga oltin kuz o'zining barakali sepini yoydi. ("Saxovatli fasl" matnidan) 2. Insonlarni zulmatdan nurga chqarish uchun Oллоh payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga ushbu Qur'onni nozil qildi.

3. Uyquga kirgan daraxtlar yana yashil to'n kiydi, oq, sariq, ko'k, qizil rangli harir yopinchiqlar bilan bezandi. (Yusuf Xos Hojib) 4. Men Baroq mushugimni yaxshi ko'raman. Uning chiroyli, uzun, qalin va momiq yunglari bor. (H. Nazir)

5. Olam kiysin oq libos,

Oq libosi qanday soz. (Shuhrat)

6. Yorib chiqdim tuxumni, Shunday shovvoz jo'jaman. Tanib oldim buvimni
Ko'zi charos jo'jaman. (A. Obidjon)

Savollar:

1. Soʻzning oʻz maʼnosi deganda nima tushuniladi?
2. Koʻchma maʼno deganda nimani tushunasiz?
3. Soʻz nima uchun koʻchma maʼnoda qoʻllanadi?

2- mashq. Gaplarni oʻqing. Maʼnosi metafora usuli bilan koʻchgan soʻzlarni aniqlab, qanday maʼno ifodalayotganini tushuntiring.

1. Ilm sahroda – doʻst, hayot chorrahalarida – tayanch, yolgʻiz damlarda – yoʻldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qaygʻuli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zeb-ziynat deganlar. (Hoji Abdurazzoq Yusuf) 2. Shoh qilib qoʻygan ishidan pushaymonligini soʻzlab, bu jarohat oʻlgunicha koʻksidan ketmasligini aytdi. („Lochinning oʻlimi“ ertagidan) 3. Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod. (A. Oripov) 4. Shu toʻgʻon filday uzala tushdiyu oʻjar daryoni xippa boʻgʻdi. (H. Nazir) 5. Balli, boʻtam, umringdan baraka top, – deb duo qildi. („Dehqonbo- bo“ertagidan) 6. Quturgan dushman askarlarining suroni quloqlarni qomatga kelti- radi. (M. Osim)

7. Ulugʻ xalq qudrati joʻsh urgan zamon Olamni mahliyo aylagan diyor. (A. Oripov)

8. Mir Alisher naʼrasiga Aks sado berdi jahon, Sheʼriyat mulkida boʻldi
Shoh-u sulton oʻzbekim. (E. Vohidov)

9. Kelajagi buyuk Vatanning
Vorislari – biz oʻgʻil-qizlar. (H. Imomberdiev)

10. Marddek tursin maydonda Yuragida qoʻr boʻlsin. (M. Aʼzam)

11. Aziz ota-onamizning qalqonimiz,
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga ishon. (A. Obidjon)

12. Har faslning oʻz xislati bor, Har faslning oʻz fazilati.

Kumush qishdan, zumrad bahordan Qolishmaydi kuzning ziynati. (P. Moʻmin)

13. Goh choʻqiyman dumbuldan, Kamchilik yoʻq ul-buldan. Qolishmayman
bulbuldan,

Shirin ovoz joʻjaman. (A. Obidjon)

Savollar:

1. Metafora nima?
2. Metafora usulida narsa va hodisalar asosidagi qanday o'xshashliklar asosida ma'no ko'chiriladi?
3. Metafora va o'xshatishning farqi nimada?
- 3- mashq. Berilgan so'zlarni o'z va ko'chma ma'noda qo'llab gap tuzing. Dum, kalit, cho'qqi, urug', asal, meva, yo'l, oltin; shirin, asov, mayin, achchiq, qalin; qaynamoq, gapirtirmoq, andavalamoq, achitmoq, gullamoq, botmoq, belamoq, burkanmoq.
- 4- mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosi qaysi usulda ko'chganini aniqlang. So'zlarning o'z va ko'chma ma'nosini tushuntiring.

1. Sidiqjon choyni kutmay, ishga ketdi. (A. Qahhor) 2. Dasturxonga qarang, mehmon. 3. Qishloq uyquda edi. 4. Zal gurullab kulib yubordi. 5. Qodiriyni qayta-qayta o'qiyman. 6. Besh qo'l barobar emas. 7. Ha, aytganday, kimdir telefon qilib, sizni so'ragan edi. (A. Qahhor) 8. Tanchaning olovini oching, taqsir, badanimda qaltiroq turdi. (H. G'ulom) 9. Hammasi sizning tegishingiz, hech kimga qaramang. Baliqni oling. (A. Qahhor) 10. Bugungi savdo yuz mingga yetdi. 11. Nodir olmosni olib, oynani kesa boshladi. 13. Chiy tutilgan ko'chma yaslida qarqunoq bolalarining qig'qig'lashiga o'xshab chaqaloqlar yig'isi eshitilmoqda. (H. Nazir) 13. O'choqda tezak miltillab yonar, qora chovgum biqir- biqir qaynardi. (S. Anorboyev) 14. Samolyotning kichkinagina zinapoyasiga bir oyog'imni qo'yib, eshigidan ushlagan edim, qo'llarim temirga chip etib yopishib qolsa bo'ladimi! (N. Fozilov) 15. Matematikani chqaringlar, – dedi o'qituvchi. 16. Tepadan oftob urib turibdi. (S. Ahmad) 15. Tanasi ikki katta qulochga sig'maydigan bir tup sada tevarakka tangaday oftob tushirmaydi. (Oybek) 16. Ayam meni bundaqa oftobda jizg'inak bo'lish uchun tug'gan emas. (Oybek) 17. Ertalab oshda ko'rinmadingiz. 18. Mansur hamon indamas, ko'zlarini bir nuqtadan uzmas edi. (O'. Hoshimov) 19. Salim akaning ko'zi xiralashib qolgan, shuning uchun kitobni ko'zoynaksiz o'qiyolmaydi. 20. Nizomiddinovning qulog'i o'tkir edi. Tevarak atrofni butun vu-judini quloq qilib eshitar edi. (N. Safarov)

10-mavzu: O'zbek imo-ishora tilida leksikologiya va uning obyeyekti, turlari, vazifalari.

Mashg‘ulot rejasi:

1. Tashkiliy qism.
2. Mavzuga oid talabalar bilimini savol-javob va mashqlar orqali tekshirish va mustahkamlash.
3. Test topshiriqlari asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash.
4. LTQ texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.
5. Mashg‘ulotni yakunlash.

Adabiyotlar:

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о‘quv qo‘llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po‘latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

I. Savollarga yozma javob yozing!

1. So‘zlararo ma’noviy munosabatlar haqida.
2. Sinonimiya
3. Antonimiya

II. Mashqlar bajarish

1-mashq. Berilgan so‘zlarni ma’no umumiylikiga ko‘ra sinonimik qatorlarga birlashtirib yozing. Sinonimik qatordagi dominantani aniqlang. Ma’nodosh so‘zlar-ning qo‘shimcha ma’nosidagi farqni ayting.

Shodlik, bajarmoq, husndor, baxt, oriq, quvonch, xursandlik, farah, sovg‘a, tortiq, hadya, gavnali, ado etmoq, surur, tole, go‘zal, ozg‘in, ko‘hlik, jussali, chiroyli, bitirmoq, barvasta, zebo, tuhfa, ko‘rkam, xursandlik, o‘rinlatmoq, norg‘ul, saodat, iqbol, qomatdor, barno, armug‘on, suluv, barzangi, qiltiriq, do‘ndirmoq, latofatli, o‘tamoq, ramaqijon, sohibjamol, bajo qilmoq, sevinch, xushro‘y.

Savollar:

1. Sinonim soʻzlar deganda nimani tushunasiz?
2. Sinonimik qator nima?
4. Sinonim soʻzlar bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Dominanta nima? Dominantaning belgilarini ayting.

2- mashq. Berilgan gaplardan sinonimlarni topib, yonma-yon yozing. Ularning farqini tushuntiring. Nima uchun berilgan misolda aynan shu soʻz qoʻllanilganini tushuntiring.

I. 1. Yaxshi soʻzlarning umri boqiy boʻladi. (O. Husanov) 2. Bugungi ishlar, qurilishlar siz – bolalarga abadiy mulk boʻlib qoladi. (S. Barnoyev) 3. Bu yerda ajdodlar mangu uyquga ketganlar. (“Sharafli burch” matnidan) 4. Maʼrifat-u obodlik chirogʻini yoqqan kishi toabad oʻlim bilmaydi. (Mirmuhsin) 5. Nigoraga boraman: oyogʻiga tiz choʻkib, umrbod yuragimni sizga bagʻishladim, deyman. (S. Anorboyev)

II. 1. Kelinlik liboslari muzga aylanib, badanini sovitib yuborgandek boʻldi. (S. Ahmad) 2. Tor koʻchaning yuqori burchagida otining tizginini ushlagan holda bir yigit kiyimiga oʻtirgan chang-toʻzonlarni qoqar edi. (A. Qodiriy) 3. Boburshoh bogʻbonga rahmatlar aytib, bosh-oyoq sarpo beribdi. (“Hidi, tilimi va mazasidan” rivoyatidan)

III. 1. Bir mahal Qosimjon oʻrnidan turib, yuzlarini sovuq suv bilan yuvdi, sochlarini yaxshilab taradi, sovgʻa uchun jildining ichki tomonidan sheʼr yozilgan albomini qoʻliga oldi. (X. Toʻxtaboyev) 3. Husayn Boyqaro shu shaharni kichik oʻgʻli Muzaffarga tuhfa qildi. (M. Osim) 4. Dehqonboy, sizning tortigʻingizni dasturxoniga qoʻyay desam, joy ham yoʻq. (N. Safarov) 5. Bugungi xirmon-xirmon paxtalar, meva-chevalar xalqimizning mehnati evaziga kelgan choʻl inʼomidir.

6. Boshim koʻkka yetur oʻquvchim

Manzur koʻrsa armugʻonimni. (E. Rahim)

IV. 1. – Boʻlmasa oʻgʻlingiz meni aldabdi-da, – dedim sir boy bermay. (X. Toʻxtaboyev) 2. Laylak meni yana laqillatibdi-da, – deb, xafa boʻlibdi. („Urtoʻqmoq“ ertagidan) 3. Nasim koʻzingizni loʻq qilib, firib beradi. (T. Murod) 4. Miyangni ishlat, hiyla bilan dushmanga pand ber. (Uygʻun) 5. Baqqol bu soʻzlarni eshitmaganday avrayverdi: – Men sizning foydangizni oʻylayman. (Oybek)

- V. 1. Abu Rayhon Beruniy so‘zi bilan aytganda, Quyosh va Oy falakning ikki ko‘zi bo‘lganidek, Navro‘z bilan Mehrjon ham zaminning ikki ko‘zidir. (M. Murodov) 2. Butun jonivorlar yer betiga o‘rmlayotgan payt, huv ana, osmonda turnalar arg‘imchog‘i tirov-tirov qilib uchib ketyapti. (N. Fozilov) 3. Ko‘k yuzida suzib yurgan bulut parchalari oftobni bir zumda yuz ko‘yga solyapti. (A. Qahhor)
4. Har vaqtdagidan ko‘rkamroq, tiniqroq ko‘ringan to‘lin oy samoning bir nuqtasida qotgan kabi. (Oybek)

3- mashq. Nuqtalar o‘rniga ma‘nodosh so‘zlardan mosini qo‘yib o‘qing.

Ma‘nodosh so‘zlarning farqini tushuntiring.

1. Insonning erkiga to‘sqinlik qilish ham, uning ... va intilishlarini poymol qilish ham vahshiylik. (P. Tursun) 2. Bu qizcha shu yoshgacha aravachasidan turmagan va bir og‘iz so‘z aytmagan ekan. Bugungi bayram uni davolabdi. Yurib ketishiga, tili chiqishiga sabab bo‘libdi. Bu uning ... emasmidi?! 3. U hol-ahvol so‘rab kelganlarni Hoji otaning ... bilangina ichkariga qo‘yardi. (“Yoshlik” jurnalidan) 4. Husayn Boyqaroning yoshlikdan she‘rga ... kuchli edi. (Oybek) 5. Yurtim, ado bo‘lmas ...laring bor. (M. Yusuf) 6. Mahfuzada chevarlikka bo‘lgan ... ustun chiqdi. (T. Avvalov) 7. Xayri ... bilan piyozni maydalab to‘g‘rardi. (Sh. Rashidov)

8. U qarddon do‘stlarini ko‘rish ... bilan yonar edi. (M. Ismoilijiy)

Foydalanish uchun so‘zlar: istak, xohish, mayl, orzu, havas, ishtiyoq, hafsala, armon.

11-mavzu. O‘zbek imo-ishora tilida bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar.

1-mashq. Berilgan so‘zlarga antonim topib, juft-juft qilib yozing.

Namuna: baland – past, issiq – sovuq.

Poygak, ho‘l, azob, abjir, boy, xasis, xushbo‘y, zolim, dali-g‘uli, gunoh, daro- mad, bo‘sh, mutlaq, mavhum, ajralmoq, aziz, halol, quruq, o‘jar, yovvoyi, oshkora, olqish, optimism, ozod, semirmoq, obod, tanish, nasiya, mo‘rt, sodda, muzlamoq, mudofaa, maqtamoq, maxraj, loyqa, ko‘karmoq, kechpishar, to‘ng‘ich, ijobiy, ich, ixtiyoriy, sun‘iy, tug‘ishgan.

Antonim deganda qanday so‘zlarni tushunasiz?

1- mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘yib o‘qing.

1. Azob ko‘rmay ... yo‘q. 2. Aqlli do‘st – rohat, ... do‘st – ofat.

3. Birlashgan daryo bo‘lur, ... irmoq bo‘lur. 4. Gapni ... so‘zla, ishni ... ko‘zla. 5. Buromad bo‘lmasa, ... bo‘lmas. 6. Sabr achchiq, mevasi 7. Saxiy xor

bo‘lmas, ... behishtga kirmas. 8. O‘rganish oson, o‘rgatish 9. Aytuvchi ahmoq bo‘lsa, tinglovchi ... kerak. 10. Jahl dushman, aql 11. Yomonning niyati buzuq, yaxshining niyati

12-mavzu: O‘zbek imo-ishora tilida lug‘at tarkibining shakl va ma‘no munosabatlari jihatidan tavsiflanishi.

Mashg‘ulot rejasi:

1. Tashkiliy qism.
2. Mavzuga oid talabalar bilimini savol-javob va mashqlar orqali tekshirish va mustahkamlash.
3. Test topshiriqlari asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash.
4. LTQ texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.
5. Mashg‘ulotni yakunlash.

Adabiyotlar:

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // o‘quv qo‘llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po‘latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайсева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

I.Savollarga yozma javob yozing!

1. Giponimiya.
2. Graduonimiya.
3. Partonimiya.

II. Mashqlar bajarish

1- mashq. Quyida berilgan jins nomini bildiruvchi soʻzlarga ularning turini bildiruvchi soʻzlar topib yozing.

1. Uzun. 2. Baliq. 3. Daraxt. 4. Metall. 5. Transport.

2- mashq. Quyida berilgan soʻzlarni umumiylikiga koʻra guruhlariga ajratib yozing. Har bir guruhni bitta soʻz bilan umumlashtirib nomlang.

Anor, bosvoldi, shakarpalak, buloq, olma, telpak, nok, daryo, amiri, olxoʻri, roʻmol, koʻkkalapoʻsh, oqurugʻ, shaftoli, dengiz, anjir, shlapa, okean, kampircho-pon, ariq, oʻrik, qalpoq, doʻppi, kumush, uzum, zovur, umbirvoqi, boʻrikalla, obinovvot, oltin, gilos, mis, platina.

Savollar:

1. Giponimiya nima?
2. Giperonim deganda nimani tushunasiz?
3. Giponim nima?

2- mashq. Quyidagi hayvonlarning bolasini bildiruvchi soʻzlarni toping va yonma-yon yozing. Namuna: Tuya – boʻtaloq.

Ot, qoʻy, sigir, tuya, it, kiyik, echki, eshak.

3- mashq. Quyidagi hayvonlarning yovvoyi turini bildiruvchi soʻzlarni toping va yonma-yon yozing.

Tovuq, eshak, mushuk, choʻchqa, hoʻkiz.

4- mashq. Quyida berilgan ot turini bildiruvchi soʻzlarni 5 guruhga boʻlib yozing: 1) otning jinsiga koʻra turini ifodalovchi soʻzlar; 2) otning asl turiga koʻra zotini ifodalovchi soʻzlar; 3) otning rang-tusiga koʻra turini ifodalovchi soʻzlar; 4) otning vazifasiga koʻra turini ifodalovchi soʻzlar; 5) otning vazifasiga koʻra turini ifodalovchi soʻzlar.

Arabi, aygʻir, qorabayir, bedov, baytal, chovkar, yoʻrgʻa, tarlon, burnoch, toʻriq, chil, jiyron, choʻbir, saman, salt, aravakash, uloqchi, qulun, doʻnan, qichangʻi, gʻoʻnan, qorabayir, qashqa, poygachi, qozoqi, moʻgʻuli.

5-mashq. Berilgan gaplardan ot turini bildiruvchi soʻzlarni topib, maʼnosini izohlang.

1. Bulutli qorongʻu kechada samanning koʻziga har bir oʻt, har bir jingul boʻri boʻlib koʻrinardi. (N. Fozilov) 2. Kunlar oʻtib, qulun – toy, toy – qunon, qunon esa doʻnon boʻlib yetishadi. (N. Fozilov) 3. Quadrat aka boʻz aygʻirning bekorga chopib ketmaganini sezib, uning izidan tushgan edi. (N. Fozilov)

4. – Hoy, sen, jiyron toychamdek Oʻynab-oʻynab oqqan suv,

Dalalarga bayramdek

Guldan bezak taqqan suv. (Z. Diyor)

5. Bel baravar barra oʻtlarni

Kurt-kurt yeydi qoʻy-qoʻzichoqlar.

– Biz ham shodmiz siz kabi, – deya

Qirda kishnar toy-qulunchoqlar. (I. Muslim)

6- mashq. Berilgan soʻzlarni daraxt va meva maʼnosida qoʻllab gap tuzing.

Namuna: Oʻrik oppoq boʻlib gulladi. Oʻrik juda shirin ekan.

Anor, oʻrik, nok, gilos, anjir, behi, olxoʻri, anor, tut, olma, jiyda.

Savollar:

1. O'zbek tilida mevali daraxtlar va ularning mevasi qanday nomlanadi? Daraxt va mevalar nomi ko'p ma'noli so'zmi yoki shakldoshmi?
2. Tilimizda qaysi mevaning daraxti boshqa so'z bilan ataladi?

13-mavzu. O'zbek imo-ishora tilida hissiy bo'yoqsiz va bo'yoqdor so'zlar.

Mashg'ulot rejasi:

1. Tashkiliy qism.
2. Mavzuga oid talabalar bilimini savol-javob va mashqlar orqali tekshirish va mustahkamlash.
3. Test topshiriqlari asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash.
4. LTQ texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.
5. Mashg'ulotni yakunlash.

Adabiyotlar:

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

I.Yozma javob yozing!

1. So'zlarning shakily o'xshashligi.
2. Omonimlar.
3. Paronimlar.

II. Mashqlar bajarish

1-mashq. Gaplardagi omonimlarni aniqlab, ma'nosini izohlang.

1. Tol kurtakchalri yorilib, undan bo'z momiq g'unchalar chiqadi. (M. Ala- viya)
2. Chit, satin, bo'z, doka va boshqa matolar paxta tolalaridan to'qiladi. ("Kiyim

nimadan tikiladi?” matnidan) 3. Jarning har ikkala yonboshini qip-qizil gilamlar qoplagan. (N. Fozilov)

4. Jar solib bozorga dallol shu zamon,

Maqtar erdi qari eshakni chunon. (Abdurahmon Jomiy)

5. Kurak suyaklarning qiyshiq o‘syapti. (E. Malik) 6. Uning imillab ishlashidan ensasi qotib, kurakni bu yoqqa ol, deydi. (N. Aminov) 7. O‘ktam katta ho‘kizni qo‘shga qo‘shib, yer haydayotgan ekan. („O‘ktam“ ertagidan) 8. Bir qalin og‘aynisidan qo‘sh ho‘kiz olib keldi. (“Halollik” ertagidan) 9. Qarindosh xotinlardan biri bizga zog‘ora yopib berardi. (S. Ayniy) 10. O‘rta Osiyoning daryo, ko‘l hamda suv omborlarida eng ko‘p tarqalgan baliqlardan biri zog‘ora baliqdir. (A. Omonov)

11. Lekin maxdum ba’zi narsalar bilan oshxonani yaxshigina mo‘liqdirar, masalan, sholg‘om, qovoq, lavlagi. (A. Qodiriy) 12. Tuzsiz ovqat yeb, qovoq-larimiz ham shishibdi. („Rustamxon“ dostonidan) 13. Ey farzand, umidim shuki, sen shu pandlarni qabul qilgaysan. (Kaykovus)

14. Maqtangan pand yeydi, Kamtarin qand yeydi. (Maqol)

15. Qolgan ikkisi mijoz bilan kayfiyatdir. (“Ibn Sinoning shogirdlari” matnidan)

16. Mijozingdan ayrilging kelmasa, nasiyaga mol ber. (Maqol) 17. Hech bir farzand otasining haqini to‘la o‘tay olmaydi. („Qirq hadis“dan) 18. Dehqon ekinni vaqtida o‘tabdi, sug‘oribdi, chopibdi. („Oltin tarvuz“ ertagidan)

19. Qopda yong‘oq, xumda shinni qish bo‘yiga

Ko‘zimiz toq, dimog‘lar chog‘ xush bo‘yiga. (T. Yo‘ldosh)

Savollar:

1. Omonim so‘zlar deganda nimani tushunasiz?
2. Omonimning ko‘p ma’noli so‘zdan farqi nimada?

Paronimlar

2-mashq. Gaplarni qavs ichidagi mazmunanmos keladigan so‘zlarni qo‘yib o‘qing.

1. Muyulishda bir ayol (qurt, qurut) sotib o‘tirgan edi. 2. Buxoroda uylar qurilishi jadal (sur‘at, surat) bilan bormoqda. 3. Limon – ming dardga (da‘vo, davo). 4. Xarsangning kattaligi (naqd, naq) uyday keladi. 5. Dushman qal’ani (xiyla, hiyla) bilan qo‘lga kiritmoqchi bo‘libdi. 6. Ezgulik bilan umr kechirgan kishining nomi

xalq xotirasida (adabiy, abadiy) qoladi. 7. Ko‘ylak (asil, asl) ipakdan tikilgan edi. 8. Nodirning (asil, asl) maqsadi Toshkentni tomosha qilish edi. 9. Matematika darsida o‘qituvchi Nazirga 5 (bal, ball) qo‘ydi. 10. Chol tovuqqa bir (qism, qisim) don berdi. 11. Toshkent – (azm, azim) shahar. 12. Firiza sunbula (burjida, burchida) tug‘ilgan. 13. Qishloqda bir (faqir, paqir) dehqon yashar ekan. 14. Qiz-chaning tili juda (biron, biyron) ekan. 15. Nodir (oxurga, oxirga) yem soldi. 16. Insonning (qiymati, qimmat) emas siym-u zar, insonning (qiymati, qimmat) ilm ham hunar. 16. Nazir ariq bo‘yiga o‘n (tub, tup) ko‘chat ekdi. 17. Hamma baxtiyor yashasin deyman, sursin ozodlik (nashasin, nash’asin) deyman. 18. Uy bekasi (xil-xil, hil-hil) pishgan tovuqni dasturxonga keltirib qo‘ydi. 19. Qilgan ishidan Nodirning boshi (ham, xam) bo‘ldi. 20. Fermer xo‘jaligi a‘zolari g‘o‘zani (yagona, yagana) qilyapti. 21. Chumchuqlar tut (shoxiga, shohiga) qo‘nib chrqillamoqda edi. 23. Nilufarning yuzida katta (xol, hol) bor edi.

24. Yengil shabada badanga (xush, hush) yoqardi. 25. Maktab o‘quvchilardan (xoli, holi) edi. 26. Nodira doskaga chiqib (she‘r, sher) o‘qidi. 27. Tekin boylik axtarguncha o‘zingga (bob, bop) hunar top. 28. Sinfxona devorida (dars, darz) paydo bo‘ldi. 29. Nodir (eskalator, ekskavator) bilan yuqoriga chiqib oldi. 30. Qo‘shiqchi (tambur, tanbur) chalib qo‘shiq aytdi. 31. Podsho katta ariq chiqarishga (amr, amir) qildi. 32. Dadam bir oydan beri (tussiz, tuzsiz) ovqat yeyaptilar. 33. Chaqaloq ertalabgacha tinchgina (uxladi, uhladi). 34. Hozir dunyoda (ichimli, ichimlik) suv tanqis. 35. (Urush, urish), qo‘ydi-chiqdi ham har xil bo‘ladi. 36. Bilaguzuk (sop, sof) oltindan yasalgan ekan. 37. Sobir ichkaridan otning (afzallarini, abzallarini) olib chiqdi.

3-mashq. Quyida berilgan o‘xshash so‘zlarning ma’nosini izohlang va ular ishtirokida so‘z birikmasi tuzing.

Namuna: Dars – saboq, darz – yoriq. Ona tili darsi, devordagi darz.

Dars – darz, xush – hush, sof – sop, yoriq – yorug‘, urish – urush, asl – asil, asr – asir, ahil – ahl, biyron – biron, bob – bop, burj – burch

14- mavzu. Frazemalarning ma'no xususiyatlariga ko'ra asosiy belgilari va turlari.

Mashg‘ulot rejasi:

1. Tashkiliy qism.
2. Mavzuga oid talabalar bilimini savol-javob va mashqlar orqali tekshirish va mustahkamlash.
3. Test topshiriqlari asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash.

4. LTQ texnologiyasi orqali talabalar bilimni nazorat qilish va baholash.
5. Mashg'ulotni yakunlash.

Adabiyotlar:

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
 2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
 3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
 4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021
- I. Yozma jabob yozing!
1. O'zbek tili leksikasidagi o'z va o'zlashgan qatlam haqida 2.O'z qatlam.
 - 3.O'zlashma qatlam.

1. Mashqlar bajarish

1- mashq. Matni o'qib o'z qatlamga mansub (umumturkiy va o'zbekcha) so'zlarni toping.

NAVRO'Z – BAHOR BAYRAMI

Bahor! Hali yerlarda qor ko'p. Qor kunduzlari quyosh nurida eriydi, yerga si- ngydi, kechalari esa muzlaydi.

Tol kurtaklari yorilib, undan bo'z momiq g'unchalar chiqadi. Bo'g'ot-da sap- sariq bo'lib osilib yotgan sumalaklar quyosh shu'lasiga chidayol-may yosh to'kmoqdalar. Tomchilar mart... mart... mart... deganday bo'layotirlar.

O'lkamizda bahor... Yilimiz o'z umrini yangidan boshlayyapti: jamiki mavjudot o'z umrini shu bahordan boshlaydi. Shuning uchun ham qa-dimda yilning boshlanishini bahorning yigirma birinchi martidan boshla-ganlar va uni katta bayram qilganlar. Bu bayram Navro'z, ya'ni yangi kun deb atalgan...

Inson eng avvalo mehnat bilan sharaf qozonadi, shuning uchun ham dehqon ahlining qadimiy bayrami – Navro'zni har yili zo'r quvonch, katta tayyorgarlik bilan kutib olish elimizning eng yaxshi odatlaridan biri bo'lib qolgan.

Dehqonlar Navro‘zda dala ishlariga kirishganlar, ish hayvonlarini, asboblarini olib chiqib, yer hayday boshlaganlar.

Yurt soya-salqin bo‘lsin, o‘tgan-ketganlar rohatlansin deb, Navro‘zgacha yo‘llarga ko‘chat, bolalarga atab hovli va bog‘larga meva nihollari ekiladi. Ko‘chalar tozalanib, ariqlar qaziladi. Hamma yoq supurib-sidiriladi. Uylar ko‘tarilib, idish-tovoqlar yuvilib pokizalanadi. (M. Alaviya)

2- mashq. Berilgan so‘zlarni affiksatsiya yoki kompozitsiya usulida yasalganligiga ko‘ra ikki guruhga ajratib yozing. Affiksatsiya usuli bilan yasalgan so‘zlarning yasaliş asosi va yasovchi qo‘shimchasini ko‘rsating.

Kompyuterchi, uchburchak, yetakchi, issiqsevar, oshko‘k, so‘koshi, buklama, eruvchanlik, kungaboqar, tezpishar, to‘lqinli, ituzum, aqlli, eritma, boshpana, sachratqi, dunyoqarash, bug‘latgich, yopishqoq, tabiatshunos, urinma, chizma, yonuvchan, infraqizil, o‘zgaruvchan, bodom-qovoq, anjirqoqi, andishali, agentlik, archazor, bachkanalashmoq, millatlaro, yomg‘irpo‘sh, beboshlik, nosimmetrik, yoysimon.

O‘zbekcha so‘zlar qanday usullar bilan yasaladi?

3- mashq. Berilgan o‘zbekcha so‘zlarni quyidagi guruhlarga ajratib yozing: 1) turkiy so‘z + o‘zbekcha qo‘shimcha, 2) arabcha so‘z + o‘zbekcha qo‘shimcha, 3) fors-tojikcha so‘z + o‘zbekcha qo‘shimcha, 4) ruscha-baynalmilal so‘z + o‘zbekcha qo‘shimcha, 5) turkiy so‘z + fors-tojikcha qo‘shimcha, 6) arabcha so‘z

+ fors-tojikcha qo‘shimcha, 7) ruscha-baynalmilal so‘z + fors-tojikcha qo‘shimcha. Shunday so‘zlarga 5 tadan misol keltiring.

Terimchi, andishali, go‘daklik, adabiyotchi, sportchi, bo‘linuvchan, mehrsiz, filtrlamoq, ajriqzor, sertuk, tekinxo‘r, notekis, o‘txo‘r, bebosh, mashinasoz, jurnalxon, nomukammal, gazzimon, bolalik, kesma, polk-dosh, vazirlik, bachkanalshmoq, shofyorlik, demokratlashtirish, avvalgi, zargarlik, mevachilik, radioaktivlik, qo‘yfurush, konussimon, besuyak, buyruqboz, noaniq, ma‘rifatparvar, pichanbop, partadosh, meshkobchi, haqoratlamoq, yonuvchan, egiluvchan, dutorchi, akusherlik, fokuschi.

Affiksatsiya usuli bilan yasalgan o'zbekcha so'zlar tarkibiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

4-mashq. Matnni o'qing. O'zbekcha so'zlarni topib, yasalişini tushuntiring.

Shaharda ko'kalamzorlashtirish oyligi bo'lib o'tgandi. Shu oylik davomida ko'chalar chekkasiga, ariqlarning bo'yiga, xiyobonlarga naq uch mingga yaqin mevali va manzarali ko'chatlar o'tqazishdi. Qiyqirishib ko'chat ekan o'quvchilar biri ketmonni asfalt yo'lda daranglatib sudrab, biri belkurakni yelkasiga teskari qo'yib, yana bittasi bo'sh chelakni childirma qilib chalib jo'nab ketishgach, chinorlar bir-birlariga ma'noli qarab qolishdi...

Nihollar sabr-u bardoshlari zo'r, ancha-muncha qiyinchilikka parvo qilmaydigan, quyosh taftiga, suvsizlikka o'rgatilgan edi.

Bir kuni quyosh haddan tashqari qizdirib yubordi, o'zi to'kayotgan mo'l-ko'l harorat evaziga niholchalarning barg-u shoxchalaridagi eng so'nggi namlikni ham so'rib olib boshladi. (X. To'xtaboyev)

15- mavzu. O'zbek imo-ishora tilida leksikografiya (lug'atshunoslik).

Mashg'ulot rejasi:

1. Tashkiliy qism.
2. Mavzuga oid talabalar bilimini savol-javob va mashqlar orqali tekshirish va mustahkamlash.
3. Test topshiriqlari asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash.
4. LTQ texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.
5. Mashg'ulotni yakunlash.

Adabiyotlar:

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // o'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.

4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

I. Yozma javob yozing!

1 Leksikaning ijtimoiy- dialektal bo'linishi. 2.Umumxalq so'zlar.

3. Shevaga xos so'zlar. 4.Jargon va argolar.

5.Atamalar.

II. Mashqlar bajarish

1- mashq. Berilgan so'zlarni qo'llanish doirasi chegaralanmagan va chegaralangan so'zlarga bo'lib yozing. Qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlarni necha guruhga ajratish mumkinligini ayting.

Anhor, sinus, hasut (non), danap (ayol raqqosa), go'sala, yil, yurmoq, jo'rob, gavdo'sha, non, challoq, suv, las, tarvuz, xurmo (buxoro tilla tangasi), burjaq, barak, sharshara, ishlamoq, birinjoba, jingildak, gujum, zaldori, burjaq, soqqa (pul), mashina, poyezd, ko'chmoq, tog', shuxer (xavf-xatar), hulbo'y, g'oz, gilam, yakan (pul), kesim, baliq, affiks, maymun (oyna), ko'ylak, timsoh (qaychi), sindirmoq (qoyil qilmoq), gipotenuza, badik, tarozi, xorpish, quduq, satil, g'o'lin.

Savollar:

1. Qo'llanish doirasi chegaralanmagan so'zlar deganda nima tushuniladi?
2. Qo'llanish doirasi chegaralangan so'zlarga qanday so'zlar kiradi?

2- mashq. Berilgan so'zlarni adabiy til va shevaga oid so'zlarga ajratib yozing.

Do'ppi, go'sala, to'sin, juvona, zangi, gujum, donasho'rak, buzoq, inak, narvon, zaldori, shoti, sabzi, qaroli, sigir, paypoq, dala, o'rik, bodberak, chayla, xapitmoq, varrak, g'olin, turshak, dala, qayrag'och, yobon, koza, mag'al, mos, kalapo'sh, qolin, ota, gilam, lo'li, qayish, shilpildoq, gilos, mo'ylov, olcha, qaptal, yon, g'o'z, objo'sh, ada, bo'-lakdan, bopta, burut, o'jak, jo'gi, jelatka, nimcha, jilob, g'ilak, sho'r-danak, burjaq, do'l, gashir, olxo'ri, novvos, atiz, karvich, g'isht, bolor, cho'milmoq, pichak, somsa, dajam, g'azab.

3- mashq. Gaplardagi sheva so'zlarni topib, ma'nosini izohlang. Yozuvchi bu so'zlarni nima maqsadda ishlatganini tushuntiring.

1. Xudoyor muhr bosish asnosi yozilgan yorlig' va nomalarni o'qitib eshitar, munshiylarning eshitilmagan arab va fors so'zlari orqali to'qig'an yarim turkiy jumlariga aksar vaqt tushunmas: "Enalaring' arapqa tekkanma?" deb mirzo, muf-tilarni koyir edi. (A. Qodiriy) 2. Qora burti ko'kka o'sgan, bet qip-qizil. (G'. G'ulom) 3. Uyiga militsioner yuborib yuragini po'killatib qo'yardim. O'zi oyogini qo'lga olib yugurib kelardi elanib! (S. Nurov) 4. Oying bilan magazinga chiqing-lar-da, yetma-ganiga qo'shib, bitta bopta kostum olinglar. (M. Ismoilii) 5. Rayim yaznamiz sal g'irrom kuyovlardan chiqib qoldi. (S. Siyoyev) 6. Toshsoqa magistral kanalining ham quti o'chib qolgan – suv o'ltangda shildirab qolgan. (E. Rahim) 7. Odamlar cholni o'rlikda qancha ayblamasin, lekin u jo'n turmushga ko'nikib ketolmadi. (N. Norqobilov) 8. Hoy uka, sekinroq gapir, qopining orqasida odam bor. (J. Sharipov) 9. – Osilgan kim? – Qiyotlik g'o'ch yigit. (J. Sharipov) 10. Poy-teshada bolor chopaverib bellaring qotib ketgandir. (S. Ahmad) 11. Bir kun deng, shunday isitma qildim, varaja tutdi. (N. Aminov)

12. – Zomicha dumcha berib, Qovun pishdi, yor-yor! Bizning Sayyot qishloqqa

Kelin tushdi, yor-yor! (T. Jo'ra)

13. Shundoq ajib yurtsan, jon Qozog'iston,

Qardoshim, qurdoshim, bovrnim azal! (A. Oripov)

4-mashq. Berilgan terminlarning ma'nosini izohlang va qaysi sohaga oidligini ayting. Shu terminlarning 8 tasi ishtirokida gap tuzib yozing.

Ega, kesim, son, aylana, undalma, kompas, nuqta, so'z, metafora, xarita, turoq, qo'shish, ayirish, bosh bo'lak, yulduz, arxaizm, sayyora, osmon jismi, ot, doira, sifat, son, atoqli ot, turdosh ot, ertak, ufq, hikoya, tovush, majoz, materik, okean, bo'g'in, masal, istorizm, harf, alifbo, kometa, raqam, band, istiora, perimeter, bo'lish, gap, tog', masshtab, asotir, tekislik, matn, janr, barxan, she'r, daryo, meteor, clobus, yil, masala, maqol, adir, doston, kvadrat, topishmoq, kanal, sujet, to'g'ri to'rtbur-chak, tenglama, tugun, obraz, adabiy ertak, anafora, cho'l.

16- mavzu. Bir tilli va ko'p tilli lingvistik lug'atlar.

Mashg'ulot rejasi:

1. Tashkiliy qism.

2. Mavzuga oid talabalar bilimini savol-javob va mashqlar orqali tekshirish va mustahkamlash.
3. Test topshiriqlari asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash.
4. LTQ texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.
5. Mashg'ulotni yakunlash.

Adabiyotlar:

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

I.Savollarga yozma javob yozing!

1. Zamonaviy so'zlar haqida fikr yuriting. 2.Eskirgan so'zlar haqida ma'lumot bering.
3. Yangi so'zlar (neologizmlar).

II. Mashqlar bajarish

- 1- mashq. Berigan so'zlarni zamonaviy so'zlar, eskirgan so'zlar va yangi so'zlarga ajrating.

Suv, havo, pedagog, audit, qushbegi, mobil, ota, ona, lizing, broker, non, suv, stol, eshik, tog', tender, yer, shamol, radio, lizing, audit, sayt, jallod, mirob, sayis, miqdor, dubulg'a, samolyot, dengiz, sammit, handasa, televizor, charter, sinus, ko- sinus, shou, geometriya, ustuxon, emgak, menejment, triller, nanotexnologiya, gar- dun, moyana, qirg'oq, fleshka, interfaol, darvesh, otaliq, onlayn, etuk, sovut, yazdon, ishlamoq, virtual, kiberterrorizm, moy, kelmoq, olmoq, mikrochip, sayt, ki-tob, daftar, ko'rsatmoq, buyurmoq, transmilliy, saylamoq, shirin, modul, futbol, saxiylik, achchiq, ponsad, qizil, xaker, ko'k, provayder, klip, katta, go'zal, kompe- tensiya, hamisha, ba'zan, ataylab, hozir, ilgari, skaner, kulgi, gul, olov, shotir, shi- g'ovul, parvonachi, baqqol, vovurush, madaniyat, turmush.

Savollar:

1. O'bek tili leksikasi tarixiylik nuqtayi nazaridan necha guruhga bo'linadi?
2. Zamonaviy so'zlar deganda nimani tushunasiz?
3. Eskirgan so'zlar deb nimaga aytiladi?
4. Yangi so'zlar deganda qanday so'zlarni tushunasiz?
5. Nima uchun samolyot, kompyuter, vagon, apelsin kabi so'zlar yangi so'z hisoblanmaydi?

2- mashq. Berilgan so'zlarni tarixiy va arxaik so'zlarga ajratib yozing. Sulton, qul, shatranj, cho'ri, jumhuriyat, handasa, kanizak, darvesh, g'ulom,

sarf, nahv, xoqon, konkret, tilmoch, zapas, amin, amir, otaliq, bek, devonbegi, mirshab, noib, drulfunun, parvonachi, ponsad, udaychi, shig'ovul, qushbegi, jallod, mirob, sayis, bazzoz, oblast, baqqol, rayon, vofurush, mulla, otin, agitatsiya, otin-buvi, zapas, rayono, obkom, madrasa, mudarris, sovut, ideologiya, shpion, nayza, sarboz, gurzi, yasovul, suvoriy, dorug'a, boda, tutmoch, kashkul, juvoz, omoch, botmon, qadoq, misqol, arshin, eshon, murid, qavs, aqrab, hamal, zakot, juz'ya, o'lpon, bakovul, taxt, toj, oblast, funksiya.

17- mavzu. O'zbek imo-ishora tilida morfema va uning turlari.

Mashg'ulot rejasi:

1. Tashkiliy qism.
2. Mavzuga oid talabalar bilimini savol-javob va mashqlar orqali tekshirish va mustahkamlash.
3. Test topshiriqlari asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash.
4. LTQ texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.
5. Mashg'ulotni yakunlash.

Adabiyotlar:

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // o'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.

4. Зайсева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

I.Savollarga yozma javob yozing!

1. Hissiylik bo‘yoqdorlik jihatidan o‘zbek tili leksikasi.
2. Uslubiy xoslanganlik jihatidan o‘zbek tili leksikasi.

II. Mashqlar bajarish

1- mashq. Berilgan so‘zlarni hissiy bo‘yoqsiz va hissiy bo‘yoqdor so‘zlarga, hissiy bo‘yoqdor so‘zlarni ijobiy bo‘yoqli va salbiy bo‘yoqli so‘zlarga ajratib yozing. Hissiy bo‘yoqdor so‘zlar ishtirokida gap tuzing.

Gul, bola, oriq, ko‘rmoq, stol, mishiqli, chiroyli, so‘zlamog, kulmog, do‘ndiq, jajji, jilmaymog, do‘ndirmog, yuz, ketvorgan, bashara, olam-shumul, tor, kirdikor, vaysamog, valdiramog, ajib, mishiqli, tirrancha, zumrasha, kutmog, daraxt, baland, tirjaymog, ilakishmog, laqillatmog, qal’a, non, novvot, kuz, aldamog, aljiramog, aralashmog, otarchi, semiz, chumoli, to‘lamog.

2- mashq. Gaplarni o‘qing. Hissiy bo‘yoqdor so‘zlarni aniqlab, ularni ijobiy va salbiy bo‘yoqli so‘zlarga ajratib yozing. Ularning hissiy bo‘yoqsiz ma’no- doshini ayting.

1. Sidqidillik ifodalovchi samimiy chehralarni ko‘proq ko‘rish orzusida oldinga qarab boraveribdi. (A. Obidjon) 2. Og‘ushlari xilvatlarga tayyordir ma’vo, so‘lim, salqin soyasida kiyiklar uxlar. (O. Rajab) 3. Terak naynov bo‘lib o‘saveribdi, maqtanaveribdi. (Sh. Shodmonova) 5. Qarasa badbashara bir kampir unga chang solishga shaylanayotgan ekan. („Nilufar“ ertagidan) 6. Men uni deb sizni ham, Rustam akamni ham xafa qildim. Agar u kelib suqilmaganda, biz baxtli bo‘lardik. (O. Yoqubov) 7. – Ey bebosh bola, sochi kalta, dumi yuluq bir satangga uylanib olibsan-u, onang bexabar, – dedi Karomat. (Sh. Sa’dulla) 8. Be, bo‘lmag‘ur gapni qo‘y-sangiz-chi. Eshitmagansiz, ko‘rmagansiz, qayoqdan bilasiz. (P. Tursun) 9. Amir kulgan sari qiltiriqday bo‘yniga kallasi og‘irlik qilib, dam oldinga, dam orqasiga og‘ib ketar edi. (S. Anorboyev) 10. Anvar kelishgan, do‘ndiq bola edi. (A. Qodiriy) 11. Yonida arslondek, tog‘ni ursa tolqon qiladigan azamat eri turganda,

tashvish qilishga hojat yo‘q edi. (S. Ahmad) 12. Chorshanba – zo‘r yigit, ishni do‘ndiradi. (M. M. Do‘st) 13. – Hov, kim u bemahalda sanqib yurgan nobakor?!

18- mavzu. O‘zbek imo-ishora tilida qoshimchalarning tuzilishiga ko‘ra turlari.

Mashg‘ulot rejasi:

1. Tashkiliy qism.
2. Mavzuga oid talabalar bilimini savol-javob va mashqlar orqali tekshirish va mustahkamlash.
3. Test topshiriqlari asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash.
4. LTQ texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.
5. Mashg‘ulotni yakunlash.

Adabiyotlar:

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о‘quv qo‘llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po‘latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

I. Savollarga javob yozing!

1. Iborada haqida tushuncha.
2. Iboraning semantik tarkibi.
3. Iboralarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari.

II. Mashqlar bajarish

1- mashq. Gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan birikmalardan qaysilari ibora, qaysilari erkin so‘z birikmasi ekanligini aniqlab, tushuntiring.

1. Bolalar ertakni og‘zini ochib tingladi. 2. Shifokor boladan og‘zini ochib tomog‘ini ko‘rsatishini so‘radi. 3. Nazirjon kechki shamolda bug‘doy sovurdi. 4. Sobir otasidan qolgan boylikni bir yilda shamolga sovurdi. 5. Sobir gapning oxiriga nuqta qo‘ydi. 6. “Paxtakor”ning urgan goli o‘yinga nuqta qo‘ydi. 7. Qo‘shnimiz so‘rab kelgan ekan, bir piyola tuz berdim. 8. Men sizga uy berdim, joy berdim, vaqtida tuz berdim. (A. Qahhor) 9. Haligi xayoli chippakka chiqqa- nini ko‘rib, xolaning tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi. (S. Anorboyev) 10. Pistafurush

xolaning bozorning o'rtasida tarvuzi qo'ltig'idan tushib ketdi. 11. Muhabbat bu taklifni o'rtaga qo'ydi-da, rollarni taqsimlashda ko'p qiynaldi. (H. Nazir) 12. Nodir qovunni o'rtaga qo'ydi.

Savollar:

1. Ibora nima?
2. Iboraning erkin so'z birikmasidan farqi nimada?
- 2- mashq. Gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ibora bilan almashtirib o'qing.

1. Ish juda oson bitdi. 2. Zamira opa ovqat qilishda har qanday osh-pazdan o'zadi. 3. Umr degan narsa tez o'tib ketar ekan. 4. Hozir oq tur-nalar kamyob bo'lib ketgan. 5. Quadrat unga gap uqtirish qiyin ekanini sezdi. 6. Peshonam sho'r bo'lmasa, shu landovurga tegamanmi? 7. Bu eski mashinangiz bilan shaharga yuk olib borib bo'lmaydi. 8. Choyxonaning egasi Nodirning juda yaqin qardon ulfati. 9. Ma'ruzachi fikrini shunday chiroyli, yangi jumlar bilan sodda qilib tushuntirardiki, kishining sira esidan chiqmasdi. 10. Havoning birdan sovib ketishi dehqonchilik ishlariga xalal berdi. 11. Tuni bilan hech kim uxlamadi. 13. Bir talaba kutilmaganda mavzuga aloqasi bo'lmagan savol berib qoldi.

Foydalanish uchun iboralar: ko'z ochib yumguncha, anqoning urug'i, mijja qoqmaslik, amri mahol, ammamning buzog'i, oralaridan qil o'tmaydigan, almisoqdan qolgan, tesha tegmagan, xamirdan qil sug'urganday, bir cho'qishda qochiradi.

Iboraning ma'nosi so'z ma'nosidan nimasi bilan farq qiladi?

- 19- mavzu. O'zbek imo-ishora tilida so'z yasalihi. Mashg'ulot rejasi:
1. Tashkiliy qism.
 2. Mavzuga oid talabalar bilimini savol-javob va mashqlar orqali tekshirish va mustahkamlash.
 3. Test topshiriqlari asosida talabalar bilimini aniqlash va mustahkamlash.
 4. LTQ texnologiyasi orqali talabalar bilimini nazorat qilish va baholash.

5. Mashg'ulotni yakunlash.

Adabiyotlar:

1. Гонеев А .Основы коррекционной педагогики // о'quv qo'llanma.- Академия, 2004.
2. Nazarova D,A.Mamarajabova Z.N. Surdopedagogika // Darslik. – Toshkent: Innovasiya-ziyo, 2019.
3. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika. Darslik. - T.: Fan va texnologiya, 2014.
4. Зайцева Г.Л. Дактилология. Жестовая реч. - М.: Владос, 2021

I.Savollarga javob yozing!

1. Lug'at va uning turlari.
2. Ensiklopedik va izohli lug'at ustida amaliy ish..
3. Frazeologik lug'at ustida amaliy ish..
4. Imlo lug'ati ustida amaliy ish.

1. Mashqlar bajarish

1- mashq. Ko'z so'zining turli lug'atda berilgan izohini o'qing. Izohlarning farqini tushuntiring.

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2-jild, Toshkent, 2006. (So'zning izohi qisqartirib olindi.)

Ko'z 1 Tirik mavjudotning ko'rish a'zosi. Ko'z kosasi. Ko'z oqi. Ko'z qorachig'i. Qora ko'z. Ko'k ko'z. Xumor ko'z. Ayagan ko'zga cho'p tushar.Maqol. Qarg'a qatg'aning ko'zini cho'qimaydi. Maqol.

2 Nazar, nigoh, qarash. [Kumushning] Ko'zlari o'ynaguvchi qizlarda bo'lsa ham, haqiqatda boshqa narsani ko'rgandek. A. Qodiriy, O'tgan kunlar. Mansur hamon indamas, ko'zlarini bir nuqtadan uzmas edi. O'. Hoshimov

3 Ko'rish qobiliyati. Ko'zi xira. Ko'zi o'tkir. Kozi ojiz. Ko'zi yaxshi emas. — Bir vaqtlar do'ppi tikdim, ko'rpa qavidim.. endi unday ishlarga ko'zim o'tmaydi. Oybek, Tanlangan asarlar. Yozuvchining ko'zi ham, dimog'i ham, qulog'i ham hech kimnikuga o'xshamaydi. Shukrullo, Javohirlar sandig'i.

4 ko'chma Ba'zi narsalarning biror belgisi bilan ajralib, ko'zga o'x-shab ketadigan qismi, bo'lagi. Derazaning ko'zi. Yog'ochning ko'zi. Buloqning ko'zi.

